



PREZIDENT TA'LIM  
MUASSASALARI  
AGENTLIGI



*Ijod bog‘idan  
guldasta*

II

PREZIDENT TA'LIM MUASSASALARI  
AGENTLIGI

# IJOD BOG'IDAN GULASTA



TOSHKENT – 2021



UDK 821.512.133-1  
KBK 84-5(5Ў3Б)

Loyiha rahbari: Prezident ta'lim muassasalari agentligi direktori Hilola Umarova

Taqrizchi: O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi O'quv-metodika va harbiy-vatanparvarlik bo'limi boshlig'i Ma'mura Zohidova

Tuzuvchi: Prezident ta'lim muassasalari agentligi Ijod maktablari bilan ishlash bo'limi boshlig'i o'rinnbosari Sabohat Rahimova

Ijod bog'idan guldasta: to'plam.

Mazkur to'plam O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan 2019-yilda tashkil qilingan Prezident, ijod va ixtisoslashtirilgan maktablarni rivojlantirish agentligi tasarrufidagi Ijod maktablarida tahsil olayotgan o'quvchilarning adabiyot sohasidagi ijod namunalarini jamlangan shu nomdagi ikkinchi kitob bo'lib, keng adabiyot ixlosmandlari va ommaning istak-xohishlari asosida nashrga tayyorlandi.

Ushbu kitobda siz nazm, nasr va tarjima yo'nالishida o'z iqtidorlarini namoyon qilayotgan o'g'il-qizlar ijodidan eng sara namunalar bilan tanishishingiz mumkin.

To'plam orqali ijod maktablarining ijodkor o'quvchilarini adabiyotsevar xalqimizga tanishtirish, ularning ijodlarini keng jamoatchilikka taqdim etish ko'zda tutilgan.

ISBN



“Adabiyot, san’at va madaniyat yashasa, millat va xalq, butun insoniyat bezavol yashaydi”.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti  
Shavkat Mirziyoyev

## KIRISH SO‘ZI

Yurtboshimiz tashabbusi bilan mamlakatimiz bo‘ylab tashkil etilgan dunyoda muqobiliyo‘q ijod maktablari adabiyot sohasida alohida tug‘ma istedodini namoyon qilgan o‘g‘il-qizlarni o‘z bag‘riga to‘plagan. Ushbu ta’lim dargohlarida Davlat ta’lim standartida belgilangan barcha fanlardan chuqur bilim, ko‘nikma va malakalar shakllantirilishi bilan bir qatorda, ona tili, chet tillari, shuningdek, eski o‘zbek yozuvi, dramaturgiya, publisistika, tarjima asoslarini ham qamrab olgan adabiyot fanlari chuqurlashtirib o‘qitiladi.

O‘tmishi ulug‘ xalqimizning buyuk kelajagi bunyodkorlari bo‘lmish ma’nан yetuk va intellektual barkamol avlodni tarbiyalash yo‘lida olib borilayotgan oqilona siyosatning eng e’tiborli jihatlaridan biri ham aynan badiiy adabiyot va ijod sohasiga qiziqadigan yoshlarning istedodlarini yanada rivojlantirish maqsadida ijod maktablariga asos solinishi bo‘ldi, deya mammuniyat bilan aytan olamiz. Ijod maktablarida o‘ziga xos ijodiy muhit shakllantirilgan bo‘lib, bu o‘quvchilarining qisqa vaqt ichida adabiyot va san’atning turli yo‘nalishlarida o‘z iqtidorlarini namoyon qilish imkonini bermoqda.

Adabiyotning biron-bir janrida qalam tebratib, nazm yo nasrda chiroyli namunalar yaratayotgan o‘quvchilar ijodining sara namunalarini to‘planib, 2020-yilda “Ijod bog‘idan guldasta” nomli to‘plam chop etildi va keng kitobxonlar ommasiga taqdim etildi. Adabiyot ixlosmandlari tomonidan iliq kutib olingan mazkur to‘plamga ijod maktablari o‘quvchilaridan sakson nafarining she’ va hikoyalari kiritilgan edi.

Keng jamoatchilikning yoshlarimiz ijodiga bo‘lgan qiziqishlarini inobatga olib, ularning tengdoshlari va adabiyotsevarlarni ijod namunalaridan bahramand etish, ijod maktabi o‘quvchilariga ko‘tarinkilik berish, shuningdek, ularning fikr-mulohazlarini o‘rganish maqsadida joriy yilning boshida “Ijod bog‘idan guldasta” nomli telegram kanali ishga tushirildi. Kanalda ijodkor o‘quvchilarining yangi-yangi ijod namunalarini saralanib, muntazam e’lon qilib borildi. Ko‘pchilik adabiyot muxlislarining istak-xohishlariga binoan ijod maktablari o‘quvchilarining ijodini har yili nashr etishni yo‘lga qo‘yishni lozim topdik. O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi bilan hamkorlikda “Ijod bog‘idan guldasta” to‘plamining navbatdagi qismiga 205 ta muallifning 300 dan ortiq ijod namunalarini tanlab olindi. Yosh ijodkorlarimizning she’riy, nasriy “asarlari” bilan birga, tarjima sohasidagi ilk mashqlari ham e’tiboringizga havola etilmoqda.

Quvonarлиshi shundaki, ijod maktablari o‘quvchilarini o‘rtasida adabiyotga bo‘lgan qiziqish, kitobxonlikka ishtiyoq, ijodga bo‘lgan muhabbat kun sayin ortib bormoqda. Ijodkorlar safining kengayishi, ularning sodda, samimiyy, shu bilan birga, o‘ziga xos fikrlari, dunyoqarashlarining teranlashuvi ijod maktablarining tashkil etilishidan ko‘zlangan maqsadning to‘g‘ri yo‘nalishda borayotganini ko‘rsatmoqda. Umid qilamizki, mana shu yoshlarimiz orasidan kelajakda ona tilimiz fidoyilarini, millatimizning bo‘lg‘usi mutafakkir-u adabiyotshunoslari, tarimon va jurnalistlari yetishib chiqsa, ajab emas!

Hilola Umarova,  
Prezident ta’lim muassasaları  
agentligi direktori



BIYBJAMAL REYIMBAEVA  
11-sinf oquvchisi

### SINSHIG'A ...

Nege qosıqlardi singa salasız?!  
Sezim ag‘isig‘oy ozi lirika.  
Buwinlardı sanap, nizam qoyasız,  
Bolarma sezime qoyip qag‘iyda!

Onda muhabbatiň o'lshemin aytıň,  
Siziq tartayın sanap sezim buwinin.  
Keliň naħaqlıqtıň o'kshesin aytıň,  
Anıq ayag‘inan shalip jig‘iwim.

Aytıň ja’ne o'lshem qoyasız qayg‘a,  
Kelin’ sizg‘ish penen sizip o'sheymiz.  
Qag‘iydalar jazip ha'r bir qayg‘ig‘a,  
Sezim shegarası usında deymiz.

Jaziwda qoysiň shegaralardı,  
So'z dizbegin suliw so'zlerden quraň.  
Oqiň lal qaldırsın aqillardı,  
Olar dizip shiqsin dizimli quram.

Dizimge tu'sken ju'reksiz adam,  
Qanday baxit, ko'z jastiň qadırın bilsin.  
Lekin qag‘iydalar jazasız mudam,  
Meyli bug'an dartsız shayirlar ko'nsin.

Meyli miň shayirliq nizamin aytıň,  
Siziň aqil bug'an bärha ko'nedi.  
Ilajsız ju'rekti qiynawdan qaytiň,  
Haqiyqiy sezimdi ALLA beredi.



### WAQIT

Bunsha tez jüredi saat tiller,  
Bunsha tez ótpekte saat tiller,  
Saat hár “hirt” etken gezleri,  
Azaya beredi ómir demleri.

Ámir ótip keter tawsımas waqıt,  
Aylar, jıllar, máwsimler aylana berer,  
Hárkim izler iğbalı ushın baxıt,  
Ólshemli waqıtta ırısqısın terer.

Bálki jalǵan bári waqıt degen bul,  
Sanlar shıgar tek te diziliq qalǵan.  
Bir aqılı professor derseń ol,  
Joq nárseni qiyal menen jaratqan.

Bar bolsa nelikten kózge kórinbes,  
Hátte onıú ótkeni de bilinbes,  
Jaratılış inam etken bul waqıt,  
Alıp kelgey bárshemiz ushın baxıt.





ASADBEK KURALTAEV  
11-sinf o'quvchisi



### ERKIN WAHIDOVTI ESKE TÙSIRIW

Jaziq jiralardi samal gezgende,  
Altin "Altiariqtan" payiz tabadi.  
G'azzel pàryadlari oni tòzgende,  
Jùreginde jùyrik tulpar shabadi.

Kòrki bolğandayin appaq qardıñ da,  
Qàlbime suliw qosiq tûygenmen.  
Sizdey jayı jànnet zatlar aldında,  
Kòksime qol qoyip basti iygenmen.

Boran uyitqidi seller gùrkirep,  
Tawlar setem alip kùshli silkindi.  
Kim aytti Erkindi bùgin öldi dep  
Ruwxina kòshirgen gózzal kùlkìñdi...

### BOZATAW

Sàlem, jasil jağıs altın diyarim,  
Nurli bostanlardan baxit tapqanday.  
Aylı aqshamlardiñ shoq juldizlari  
Seniñ qushağıña taman aqqanday.

Begligin buzbağan märdana elseñ  
Jolima qaraysaň alistan kelsem.  
Xoshamet qurlardi sağındim derseñ  
Nesiye malingän jerseñ, Bozataw.

Bòrshitawdiñ jeli eser isqirip  
Quslar sesti qulaq jarar qishqirip.  
Qız-jigitke pinhana gùl qistirip  
Tal asti tabisqan sende, Bozataw.

Jol boyinda toraňgillar tirmasip  
Salqin sayasınan ötseñ qır asip.  
Ziywar muñi namalarǵa ulasip  
Saǵan alip ushar jirlar, Bozataw.

Jaňa àsir àwladlari qoyniñda  
Shadlıq tawip tüssin deymen oyinǵa.  
Jaslar quriltayı atlı toyıñda  
Qanatlı qosıqlar jaňlar, Bozataw.

Nòkisimniñ bir àjayip samalin  
Avtobusta sazǵa salıp àkeldim.  
Kündey kùlip gùllenbekte jamaliñ  
Iğbali aldında elseñ Bozataw!!!



## TÒRTLIKLER

Hayyam sharap iship otirsa ùyde,  
Bir topar atlilar suw sorap tünde.  
Hàzligi buzilǵan jànjelkesh Hayyam,  
Gùze menen urip ol quwip salǵan.

Insan kewilinde isenim bolsa,  
Bàrha taq turadi Watan qasında.  
Hàkke naymitlardan sum xabar tapsa,  
Barlıǵı jazılǵan Berdaq muqabasında.

Keshe bir shayirdi men kòrip qaldım,  
Iyninde kostyum galstuk taqqan.  
Qoyın dàpterime qol qoyǵanda dep,  
Shayırǵa asıqtım atladım japtan.

Shashtàrezxanada ağay shash alar,  
Bos gürsige bala kelip otırar.  
-Balam, shashińdi alayın- dese,  
-«Kùn-kùnnen bahańız qimbatıp barar».

Jeńgey gòsh àkelip qazańga saldı,  
Sùyekler tiǵildi ağay tisine.  
Iyti de taǵamin jemesten qaldı,  
Balası toymadı iyttiń gòshine...

G‘arriniń gùjimi qoñsiǵa qarap,  
Sipasi ıstıne sayasin saldı.  
Ashiwi kelip shaqasin shawip,  
Endi bayǵus ǵarri gùjimsiz qaldı...

Qarindas modaniń izinen quwip,  
Kelte kòylek kiyip bàzıme bardı.  
Qistiń kùni qara shashların juwip,  
Kòshede kòp jùrip ayazlap qaldı.

Qara kòz àyneklı zañgar jigitler,  
Jiyinalip barlıǵı shilim tütetti.  
Bosap qalta-qalta araq shiysheler,  
Soñira paydakùnem sùyrep àketti.

Bazda jùregińe jaqtı jol izlep,  
Bazda qol sozaman bekkem doslıqqa.  
Bazda Kùnshıǵıstan hikayat sòzlep,  
Bazda sóz beremen aldamaslıqqa.

Birewler sóz aydap yosh àleminde,  
Az jasapta mashqul bolıp ketedi.  
Ne tilsim bar Hafızdıń qàleminde,  
Gyoteni ǵazzelleri örtedi...

Qızalaǵın sùyip anasi,  
Jalǵızım dep basar bawirina.  
Pàk boladı ananıń mehri,  
Baǵışlayma jetim jolina...

Qoy saqlayıdi qozisin,  
Tüye meniń botam der.  
Qanǵa boyap jas qizin,  
Bendelerge insap ber!

Tulpar jigit joldası,  
Qay mānzilge shıqsa da.  
Kùshlimen dep aytpaydi,  
Talay palwan jijsa da.

Zaman bizden burın ayǵa shabadi,  
Biz kòlik tapsaq ta minbedik ele.  
Dàwran sahralardan payız tabadi,  
Jas alpinist keleshekke örmele!

Segbir tartip jùginseň de Kaabaǵa,  
Jilan bolip piteseň de kemeni.  
Tàñrim, mùriwbetli Adam ataǵa,  
Inam qilǵan jalǵız Hawa eneni.



ARIWXAN NURATDINOVA  
11-sinf o'quvchisi

## NAWRIZ BAYRAMINA

Saqiy quyash sàwlesinen keying,  
Àtirap jasil lipaslarin kiyindi.  
Köklem jeli izǵiradi qubilip,  
Alip ushar qaqamannan kùyimdi.

Shàriyǵattiń teberigi sanalǵan,  
Xosh keldiń Nawrizim, sapa keldiń be?  
Mustaqilliq irisinan nàr alǵan,  
Jarasiǵiń bardı aqiri seniń de.

Tas qazanda sùmelegi qaynawǵa,  
Jeńgeylerim jeńdi türgen erteden.  
Bir jıl sàtli bolsań bir jili ǵawǵa,  
Ippadrom tiǵilisin ayt degen ...

Gòbik shaynap, arǵimaqlar arqirap,  
"Jaqsi atlar keyin shabar" degen bar.  
Bir gódektiń dawisinday shirqirap,  
Quslar-keń kóktegi orkestr olar.

Nawriz-jildiń bası bayramlar sàni,  
Nawriz-jańa kùnniń jańa àrmani.  
Baxti báleñt Özbekstan elime,  
Hàr jıl sayin tezden keldiń bolǵani!

## SAĞINDIM AKE ...

Bügin qálem terbep jay ǵana,  
Sirlas boldi jalǵ'iz ay ǵana,  
Janimda siz emes o'zgeler pana,  
Sizdi qattı saǵindim äke ...

Kewlim boslıq etken hámıyshe,  
Köz jasimdi tiyalmay qaldım.  
Ömirde özimdi izlemektemen,  
Hätte öz-özimdi jiyalmaq qaldım ...

Siz kerek qasimda aqıl beriwe,  
Basimdi köksine urǵım kelip tur.  
Jańa bayaǵiday izge eriwe,  
Waqitti artına burǵım kelip tur.

Adamlar ne degen jaman äkejan,  
Kewlińdi tilkimlep oyip taslaydi.  
Eresek boldima jasqa mindimbe,  
Özinshe söz ertip shertip baslaydi ...



Sendeyin däri joq jaramdi emler,  
Kimniň kim ekenin bilgim kelip tur.  
Jüregim öziňdi sağındı būgin,  
Sağınish sözlerim ilham berip tur.

Kewlimdi tappaqshi basqalar kündे  
Aldaw jalğan aytar bunsha biymani.  
Jüregim kōzime jas qadar kündе,  
Tündе elesleymen özin tuwrali.

Bala bolip qalğım keler hāmishe,  
Ömirdiň qiyinin körgim kelmeydi.  
Waqit haq ekenin bilip turipta,  
Sizdi äke heshte oğan bergiň kelmeydi ...

Ömir tăshwishlerin sūrip bir shetke,  
Ğam qayğı bolisip dărtimdi tōksem.  
Būgin qăne sizdi kōrgende tekte,  
Aldında bas iyip dizemdi büksem.

Sağindim sol ashshi ashıwli söziniň,  
Gäzeblı baqsada hätteki kōzin.  
Ashiwiňdi alarem janında özim,  
Jasimdi jiylmay turippań äke.

Ashshi söz janiňa awir batadi,  
Adamlar bunshama tasin atadi,  
Olarǵa hayranman basim qatadi,  
Saǵan dartim aytip barǵım kelip tur.

Seniň ashshi söziniň batpastay edi,  
Biraq adamlardıň salqın sözleri.  
Sen bolsan taslarin atpastay edi,  
Joqlığını bilinip turganday ake.

Ömirdin jalğanın tusinip bildim,  
Qayğını bildirmey jasirdim kūdim.  
Özimdi özimnen qidirip jurdim,  
Seniň násiyatin kerektey äke.

Haqiyqat jalganday jalgañ haqiyqat,  
Adamlarda qalmadi ar namis uyat.  
Bildim būgin qadirli en ulug zat,  
Janima jaqinim sen eken äke.

Būgin seni qattı sağindim äke  
Ömirdiň zaňina bağindim äke



## SŐNBES SÖZ

Sinshil dūnya sinaq berip sinatti,  
Seni aytshi kim bunshalar jilatti,  
Biyiklerge jeter edin kütkende,  
Jawizlarsha til baylasti qulatti.

Armanlarin arman jibin uzdime,  
Jaman qiyal sagan kōzin suzdime,  
Sezim toli jüregiňdi sezbedim,  
Qarap tursam uqsamaysan özine.

Dūnya eken jalğan isi arasat,  
Jaqsi bolsaň juqtirasan jaman at,  
Öz özindi eplep alip ketkende,  
Kōralmaslıq shaytan isi jaman zat.

Mashaqqatli omir sawda basinda,  
Tusinbeysen jasap qansha jasinda,  
Perishte köriner här kim har tärep,  
Nağız shaytan bolar eken qasinda.

Dushpanindi dostinnan tap dostinnan,  
Ötker nağız dosti kőz taslap sinnan.  
Ömirde ötkinshi bolar hämmesi,  
Shida bawrim qapa bolma hesh bunnan.

Jasa meyli jaman bol ya jaqsi bol,  
Basqa ushin shart emes jaqsi boliwin,  
En baslisi insanlarğa baxit ber,  
Tapsin hämme sennen nagiz jiliwin ...



QUMAR SIPATDINOVA  
9-sinf o'quvchisi

### JAQSILIQ ISLEYIK!

Bir ku'ni Abdig'aniy a'kesi menen soqpaq jolda ketip baratir edi. Jolda bir jantaqtin' quwrag'an shaqası sınip jatır edi. Abdig'aniy jantaqtı da'rhal joldan alıp shetke tasladı. - Haw, balam jantaqtı nege alıp tasladın? Jerde jatqan na'rse jata bermeyme?- dedi ag'ası . -Haw, ag'a onın' tikeni birew bolmasa birewdin' ayag'ına kiredi-g'oy. Sebebi mug'allimimiz bizlerge "Jolda jatırg'an tikendi alıp taslasan' ju'z adamg'a jaqsılıq etken bolasan",- dep tu'sindirdi. - Ba'rekella, balam ! Men seni ne qılar eken dep sınap aytqan edim . Usınday etip, a'deplilikti u'yretken ustazin'a min'-min' raxmet! Balam, bunday jaqsılıq islerdi islewden hasla sharshama, dedi Abdig'aniye a'kesi kewli tolıp. Kelin' doslar qolımızdan kelgenshe adamlarg'a jaqsılıq isleyik!

### AWILDIN TURMISI

Men özim awilda turaman. Ol jerde o'sip kamalg'a jettim, hawasınan dem alıp topırag'ında oynadım, tu'rli doslar arttırdım. Awilda jasag'an insan hesh qashan zerikpeyi, bos otırmayıdı. Awıl adamları ju'da' miynetkesh, haq kewil, sada boladı. Bizlerdin' awılımız ju'da' shıraylı adamdı o'zine tez tartadı. Jap - salmalardın' boyında tu'rli- tu'rli miyweli terekler, gu'ller egilgen. Bul jerdin' adamları bir - birine ju'da' miyirman. Egerde birewdin' awırıp qalğ'anlig'in esitse sol adamnın' u'yine barıp onın' awhalinan xabar aladı. Eger de bir insan awilda toy berse sol insannin' toyında kishkene balalardan baslap, jası u'lkenlerge shekem xızmette ju'redi. Orta jaslı jitgitler suw tasıp oshaqqa shay qaynatadı, jen'geylerge otin shawıp a'kelip beredi, al u'lken jastag'i apalarımız, taza tu'sken kelinshekler toydan bir ku'n aldın nan -bawırsaq pisirip toy iyesine ja'demlesedi. Qullası aytqanda, toydın' jartısın awıl adamları atqarıp beredi.

Bizlerdin' awılımızdin' balaları da miynet su'ygish, a'depli, ta'rtipli balalar.

Olar sabaqtan bos waqtında ata-anasına ja'rdem berip u'yinin' aldındag'ı qıytaq jerlerdi awdarıp, ol jerge to'gin to'gisiwge ja'rdemlesedi. Awilda sharwashılıq ha'm diyxanshılıq jaqsı rawajlang'an. Sonın' ushın da bul jerdegi ko'p adamlar u'yelerinde mal, qoy-esħki, tawıq saqlaydı. Olardı jazdın' ku'ni shopan tan' sa'ha'den jaylawg'a aydap ketip bag'adı, suwg'aradı, keshte toydırıp aydap keledi. Ha'mme malların tu'wellep keshte son' u'yine kiredi. Awılımızdın' balaları da jazg'ı dem alısta olarda mal bag'ip a'kesine ko'meklesedi.

Al diyxanshılıqqa kelsek, awılımızda hesh bir jer bos turmaydı ha'mme qolınan kelgen na'rseleleri isleydi, ju'weri, gu'nji, salı, paxta, biyday ha'm palız eginlerin ko'p egedi. Olardıń ta'rbiyasına ayrısha itibar qaratıp, jaz aylarında jabayı sho'plerden tazalaydı, olardı mehir berip o'siredi, waqtı-waqtı menen suwg'aradı.

Ba'ha'r baslanıwı menen shembilikler bolıp o'tedi, awıldı shig'indilardan tazalap, terekler egedi, ha'kleydi, miwa tereklerinin' astın bosatıp suw ashadı. Bul shembilikler awılımızdın' aqsaqalları Polat ag'a menen Tilepbay ag'a basshılıg'ında bolıp o'tedi. Eger de kimde kim shembilikke qatnaspasa ol adamnın' u'yinin' qasında shembilik jumısları alıp barılmayı deydi. Awılımızda tereklerdi ag'artıw, jumsartıw birinshi bolıp kekse atalarımızdın', apalarımızdın' u'yinde bolıp o'tedi. U'yinin' sırtın sibawg'a qurbı jetpese u'yinde qa'wendershi adamı bolmag'an adamlardın' u'yin sibap, ha'tteki ha'klepte beredi. Usı shembilik tuwralı awılımızda bolıp o'tken bir waqıya yadıma tu'sip ketti. Bizlerdin' awılımızda u'lken bir jap bar edi. Onin' boyında menin' atam bunnan 28 jıl aldın bir jiyde teregin ekken eken. Ol jiyde terek ha'zirde bar. Bizler bul terekten' miywasiń ha'r jılı gu'zde tatıp ko'retug'in edik, ju'da' mazalı. Apam ha'r jılı bizlerdi qızlar menen oynap atırg'an jerimizden jiyde terisiwge shaqıratug'in edi. Bizler ol waqıtta 4-klass edik qızlar menen ko'p oynamız aqırı onnan basqa talapta joq edi. Kempir apam jiyde teriwe doslarımımdıda ko'mekke shaqıratug'in edi aqırı terek miywəni ko'p beretin edi -da'. Qızlar menen jiyde terisip jarisatug'in edik, qansha jiydeni tez tersek sonsha tez oying'a ketemiz. Bizler jiyde tersek, apam o'zinin' atama bag'ishlap jazg'an qosıqaların oqıp beretug'in edi, ko'p hikayalar aytatugin edi.

Bir ku'ni ba'ha'rde rayonnın' joqarı aqsaqalları kelitti. Japta asfalttin' boyında edi. Onin' boyındag'ı jiyde terekti ko'rgen, onin' ayırım shaqalarının' quwrap atırg'anlıg'in aytıp ha'm bul terekti tez shawıp taslap ornına paydalı bolg'an aq terek egiwdi aytı. Awıl adamları bolsa bug'an ko'p qarsılıq bildirgen biraq olar tınlamadı. Sonda olardin birewi jiyde degen suwsız jerlerde de o'se beredi, suwdın' jag'asına aq terek egiw kerek, onin' paydası ko'p boladı dedi. Bul ga'pke menin' akem de ko'p qarsılıq bildirgen olar tınlamag'annan son' onı shawıp taslag'an.



RAMIZA SARSENBAEVA  
9-sinf o'quvchisi

## UMTILIW

Adamniń kelege keliwi qiyin,  
Bala waqta túsinbeysen hesh birin  
Jaqsi hám de jaman degenniń birin,  
Saylaw joli tek óziń berilgen.

Jaqsi insan boliw hár bir adamniń,  
Júreginde túygen arziwi bálkim.  
Jaqsiliqqa umtil endi hárdayim,  
Jaqsi insan boliw jaqsidur bálkim

## WATANIM

Bul jariq du'nyada,  
Bostanim o'zin.  
Gu'ldey suliw do'ngen,  
Da'stanım o'zin.  
Baxtimsan' baylig'im,  
Jalg'iz tilegim.  
Sen dep sog'ar watan.  
Menin' ju'regim,  
Janimda ta'nimsen',  
Tamirda qanım,  
Ju' rekte tolqiydi,  
Bir senin' sanin',  
Watanim barimsan',  
Ju'rekte janim,  
Keleshek kamalim,  
O'ziň watanim.





RAWSHANAY ÓTEWLIEVA  
9-sinf o'quvchisi



AZIMA DANIYAROVA  
8-sinf o'quvchisi

## SHAYIRSIZ

(Ibroyim Yusupovga)

Shayır bolıp sóz marjanın tergensiz,  
Dilwar bolıp tilge itibar bergensiz,  
Xalqım dártin aq qag'azg'a dizgensiz,  
Ilham perilerin tutqan shayırsız.

Kúnxoja, Ájiniyaz júrgen jolinan,  
Ótesh, jiyen, Sadıq baba tobınan,  
Berdaq babamızdıń saxiy qolinan,;  
Ala moynaq duwtar alg'an shayırsız.

Elim azat bolıp, erkin el bolıp,  
Ullı keleshekte qádem tasladı,  
Gárezsizlik samalı esti jel bolıp,  
Gimndi jaratqan ullı shayırsız.

Qırlı qálemińnen sırlı sóz dórep,  
Poeziya nurın shashqan shayırsız,  
“Dala ármanları” ilham yosh bolıp,  
Shayırılıq jolların ashqan shayırsız.



## ANAM

Ko'zleri tolip turg'an mehir,  
Qoli ashiq qushaq'i ken' anam.  
Jilli juzlik shiyrin so'zler menen,  
Basimdi siypalap o'sirgen anam.

Berdi bar mehirin ayamastan hesh,  
Miyrimli,pak kewil,shirayli anam.  
Kelsede jumistan sharshap kesh,  
Tinbaydi heshqashan miynetkesh anam.



## ONA TILIM BOYLIGIM

Ona tilim boyligim,  
Ona tilim borlig'im.  
Qulog'imda jaranglagan,  
Ona tilim jon tilim.





Gapirganman shu tilda,  
Birinchi so'zim bo'lgan ona.  
Shu tilda aytganman qo'shiq,  
Shu tilda kuylaganman jo'shib.

Kitoblar ham o'qidim.  
Bir birdan qiziqarli,  
She'rlar ham yodlaganman.  
Bir birdan mazmunli.

"Shum bola"ni o'qidim,  
Mazza qilib shodlanib.  
"Oq kema"ni o'qidim.  
Ko'zimda yosh to'planib.

Muhammad Yusuf she'rlari.  
Yuragimdan joy olgan,  
Zulfiyaxonim qo'shiqlari.  
Odamni jonlantirgan.



AYNURA ALIMJANOVA  
8-sinf o'quvchisi

### BAXITLIMAN, WATAN

Baxitliman, Ózbekstan elim bar,  
Qaraqalpaq keń dalalı jerim bar.  
Bir jag'i suw, bir jag'i shól, keń dala,  
Juwsan, boyan, seksewildey shóbim bar.

Tariyxı bay ájayıp bes qalam bar,  
Maral, kiyik, sayg'aq qashqan dalam bar.  
"Ellerim bardı" dep elin jirlag'an,  
Ájiniyazday meniń ullı babam bar!



### WATAN – BUL ...

Watan der ińg'álap tuwılg'an jeríndi,  
Biyg'ubar baxıtlı bala gezińdi.  
Watan der anadan tuwila salıp,  
Júrekti qaq jarg'an mehirli sezimdi.

Watan – bul tis jarıp sóley baslawıń,  
Shıg'ıp ayag'iní g'az-g'az qádem taslawıń.  
Sońinan bala bop joldı shańg'ítip,  
Baxittan yoshlanıp kewil xoshlawıń.

Watan – bul qádirdan anań dur seniń,  
Watan – bul ádiwlı ákeńdur seniń.  
Insanlar kewline yol tartıp bergen,  
Watan –bul muqaddes ilahiy sezim.



BIYBIRABA MAWLENOVA  
8-sinf o'quvchisi



GÜLZIRA BIYSENBAEVA  
8-sinf o'quvchisi

## MEN USHIN ERTEK

Bir kúnleri Moynaq sháhrine,  
Atam menen qídırıp bardıq.  
Mayatnikiń qasına barıp,  
Skameykag'a otırıp aldıq.

Uzaqtag'ı kemelerge tigilip,  
Eh,- dedi de, gúrsinip aldi.  
Ángimesin baslap jiberdi,  
Sózlerine men qulaq saldım.

Aq kóbiki burqıtıp atqan,  
Bul jerlerde teńiz bar edi,  
Korabller kárwanı bolg'an,  
Bir ájayip bostanlıq edi.

Ana manda konserva zavod,  
Balıqlardan ónim tayarlar.  
Gúwildesip neshe poroxod,  
Shet jaqlarg'a izsiz jol tartar.

Atam aytqan bul ángimeler,  
Mag'an ertek bolıp túyildi.  
Burın bostan bolg'an jerler,  
Búgin shólistan bop búlindi.

Mehir qoysaq ana tábiyatqa,  
Isenemen, Aral qayta toladi.  
Atam aytqan ertek te sonda,  
Álbette, kóz aldımda iske boladı.



## WATAN

Júregime siídirgenmen bala gezimnen,  
Seniń ibrat sózińdi bes hárıpten,  
Sapan qaray umtılaman sol kúnimnen,  
Meniń bárhá qıyalımdasań, Watan!

Tuwılıp ózkenmen ana diyarda,  
Shipa bolg'an hárbir giyańda.  
Hátteki bir qısım topırag'ıńdı,  
Altınday ardaqlayman ózińdi, Watan!





ANISA KARIMBAEVA  
8-sinf o'quvchisi



MIRAS MIRATDINOV  
8-sinf o'quvchisi



## BOZATAW

Jerleriń boz egin ekse qolaylı,  
Mal-sharwag'a barlıq shópleriń jaylı,  
Jurt basshımız pármanı menen,  
Bozataw qalası, boldıń shıraylı.

Jas "Zulfiya" shıqtı ózińnen,  
Mehir jaynap turar kózinen,  
Keleshekke degen shiyrin sózińnen,  
Minnetdarman máńgi, sag'an, Bozataw.



## WATAN

Qúdiretińde qanday sır bar,  
Júregimdi jawlap aldıń.  
Sennen jıraq ketsem mágar,  
Magnit kibi tartıp aldıń.

Watan degen ullı sózdiń,  
Tereń uqtım mag'anasin.  
Watan degen Ana misli,  
Álpeshlegen óz balasın.





ZAYNABBIBI UMIROVA  
11-sinf o'quvchisi



SEVARA DAMINOVA  
10-sinf o'quvchisi



\*\*\*

Qalbingdan lolalar chiqsinlar unib,  
Faqat g'uborlarni uzoqlarga ot,  
Har doim hayotda yashagin kulib,  
Toki kulish uchun yaralgan hayot.

Orzularing birla samolarga uch,  
Maqsadga harakat o'zi bir bayot,  
Muhabbatdan, darddan topa olgin kuch,  
Toki sevish uchun yaralgan hayot.

Baxt izla, baxtingdan qurgin qasrlar,  
Hech qachon o'zgadan izlama najot,  
Muhabbat yashasin million asrlar,  
Toki muhabbat-la yaralgan hayot.

Hatto dardingdan ham izlayvergin baxt,  
Baxtsizlik, qalbsizlik bo'lzin doim yot,  
Sof qalbing, yuraging senga toj-u taxt,  
Toki yashash uchun berilgan hayot!



### USTOZLARGA EHTIROM

Umidning g'unchasi ochilib sekin,  
Samoda porlardi samimiyl yulduz.  
Talpinsam, talpinib mehr-la sokin,  
Orzular bag'rida tundagi kunduz.

Zamin kulguchini yashirib yeldan,  
Lahzalar lablarda titratib so'zni.  
Abadiy asraydi avaylab seldan,  
Rang-barang olamga chorlaydi bizni.

Ilm maskanining marvaridlari  
Maqsadlar yo'lini o'rgatib bizga,  
Gulladi ma'rifat meva bog'lari,  
Asrlar qa'rida bitgan sho'x kuyga.

Ulug'dir ustozim bergen saboqlar,  
Qalblarni mehr-la bezatib ular,  
O'rgatdi charchamay hayot jumboqlar,  
Sizga ta'zimdamiz, aziz ustozlar!



## ENG YAQIN DO'ST AFSONASI

Kitob – qalb mulki.

Bu yerlar haqida anchadan beri g‘alati gap-so‘zlar yurar, bundan borgan sari qiziqishimiz ortardi. Bobomning hikoya qilishicha, hali hayotimizga texnika-yu texnologiyalar kirib kelmagan vaqtlar, har gal ovqatdan so‘ng barchamizning diqqat-e‘tiborimizni ohanrabodek tortadigan oynayi jahon – televizorlar kashf etilmagan davrlarda qadimiy Yerqo‘rg‘on taraflarda ulug‘ bobokalonlarimizdan sehrli sandiq avlodlarga meros qolganmish. Ammo bu sehrli sandiqlar ular tomonidan puxtalik bilan yashirib qo‘yilganmish, degan mish-mishlar bor ekan. Buni qarangki, eng yaqin do‘stim Alining ham uydagi keksalardan bu afsona haqidagi pichir-pichirlari qulog‘iga chalingan ekan. Xullas, har narsaga qiziquvchi bitta tadqiqotchi ikkitaga ko‘paydi.

Bu haqiqatning tagiga yetish asosiy maqsad-muddaoymizga aylandi. Shu tariqa, yozning issiq saratonida do‘stim Ali bilan o‘sha sandiq iziga tushib, kichik ekspeditsiyaga otlandik. Bu sandiq yashiringan joyga yetib borish uchun ko‘p harakat qilishimizga to‘g‘ri kelishini yaxshi bilardik. Ammo bu bizni sira cho‘chitmasdi. Va, nihoyat, shu xazinani qo‘lga kiritish uchun yo‘lga otlandik. Ekspeditsiya baribir ekspeditsiya-da! Safarga hech bir tayyorgarliksiz chiqish bu – tajribasiz va no‘noq tadqiqotchilar ishi. O‘zimiz bilan oyim yopgan ikkita shirmoy non, to‘rt-beshta shafaqdek qirmizi olma va 2 kunga yetarli suv g‘amlab, yo‘lga chiqdik.

Ayni saraton kunlari emasmi, quyosh vujudimizni gulxandek qizdirardi, tinka-madorimiz qurib qolganida esa yo‘l bo‘yidagi tollar biz uchun “soyabon” vazifasini o‘tardi. Ko‘p yo‘l yurganimizdan ko‘zlarimiz tinib, yo‘llar xuddi charxpalakka o‘xshab aylana boshlardi, eng yomoni ular hech tugamasdek edi. Yo‘lning yarmiga kelganda qosh qorayib kech tushdi. Samo peshtoqida oy jamolini ko‘rsatdi, shunda o‘zimizga tunash uchun joy qidira boshladik. Bir payt Ali bor ovozi bilan baqira boshladi, men ham baqirganini eshitib uning yoniga yugurib bordimu, ko‘zlarimga ishonmadim. Qorong‘u g‘orda yirik, yam-yashil bir daraxt tovlanib turibdi, u xuddi yashil zumraddek ko‘zni qamashtirardi.

– G‘orda ham daraxtlar o‘sarkan-da? – dedi Ali.

Men esa hayron bo‘lib, yelka qisdim. Bu daraxt hayotimizda ko‘rgan eng g‘ayritabiiy daraxt edi. Ali bilan daraxtg‘a qarab, uni rosa tomosha qildik. Charchaganimizdan qachon uyquga ketganimizni bilmay qoldik.

Tong otib, quyoshning zarrin nurlari ko‘zimizga tushganida uyg‘onib ketdik. O‘rnimizdan turib, nonushta qilgach, yo‘lni kelgan joyidan davom ettirdik. Tepalikka chiqayotganimizda uzoqdan suvli qoya ko‘rindi. Zum o‘tmay qoya yoniga yetib bordik va atrofini ko‘zdan kechira boshladik. Shunda sharshara biqinida uchburchaksimon yerto‘la ko‘rindi, u yerga kirishga chog‘landik. Ichkari

yo‘lklar nimqorong‘u edi, buning ustiga, har xil tovushlar eshitilar, bu esa bizni tobora vahimaga solardi. Yo‘l-yo‘lakay bir narsaga turtinib ketdim. Qattiq jism ekanmi, oyog‘im og‘riy boshladi. Yerga qarasam, o‘sha sandiqning bir cheti chiqib turibdi. Ali bilan birga yerni kovlab, sandiqni chiqarib oldik. Xuddi o‘zi, bobom ta‘riflagandek usti tillarang, chetlari allaqanday yozuvlar bilan bezatilgan.

“Biz uni topdik!”, – dedim Aliga. Ikkalamiz yaxshilab o‘tirib olib, ming bir hayajon bilan sandiqni ocha boshladik. Sandiqni ochib qarasak, dur-u javohirlar, olmos-u zumradlar, tillalar o‘rniga kitoblar... Hayratlanib, bir-birimizga ancha payt qarab qoldik. Keyin bu kitoblar nodir, noyob ekanini anglagach, quvonchimizni ichimizga sig‘dira olmay, ancha paytgacha sandiq yonidan ketolmadik.

Qanday uya yetib oлganimizni sezmay ham qolibmiz. Ali o‘z uyiga, men o‘z uyimga keldim. Kitoblarni esa qishlog‘imiz chetidagi hech kim kirmaydigan, eski, egasi ko‘chib ketgan uyda qoldirdik. Ertasi kitoblarni birma-bir varaqlab, ularni tarixiy ekanligini bildik. Shunchalik berilib o‘qiganimizdan kech tushganini ham payqamabmiz. Kitoblarni ikkalamiz bo‘lib olib, uyda o‘qishga qaror qildik.

Uya kirayotib matabimizda tanlov borligi, unga tayyorgarlik ko‘rish lozimligi esimga tushib qoldi, lekin hozir tanlov haqida o‘ylagim kelmas, xayolim kitoblarni o‘qish bilan band, ular meni ohanrabodek o‘ziga chorlar edi. Har bir kitobni ochib o‘qir ekanman, kitob ichidagi voqealar ko‘z oldimdan o‘tar, ajdodlarimiz haqida, ularning hayoti haqidagi ma‘lumotlarni o‘qish hozir har nedan a‘lo edi. Kechasi bilan o‘qib, uxbab qolibman. Oyim uya kirib, chiroqni o‘chirganalrini ham sezmabman.

Quyosh charaqlab o‘z nurlarini xonamga taratganda uyg‘onib ketdim-u oyimning hay-haylashiga qaramasdan, yugurgancha ko‘chaga otildim.

Tanlov boshlanishi arafasida, Ali ham yonimga keldi.

– O‘qidingmi, – dedim unga.

– Nimasini aytasan, qiziqib qoldim, – dedi u.

O‘qiganlarimizni bir-birimizga aytib, faollar zaliga mehmonlar kirganini ham payqamabmiz.

Tanlov boshlandi, matab zalining qoq markaziga ishtiropchilarni taklif etishdi. Men har doimgidan-da tetikman, ko‘p kitob o‘qigan insonning o‘ziga bo‘lgan ishonchi ortishini shu onda his qildim. Birma-bir ishtiropchilarga savol berila boshladi. Aliga ham navbat yetdi. U savollarga mahorat bilan javob berdi. Keyingi qatnashchi men edim, ammo shu tobda xayollarim tinchlik bermas, hayajonlanib o‘tirardim, ammo ichki bir ovoz men g‘olib bo‘lishimni qayta-qayta ta‘kidlardi. Savollarga to‘liq va yaxshi javob berdim. Tanlov o‘z nihoyasiga yetdi, ha‘yat a‘zolari tanlov natijalarini aytarkan, butun vujudim yomg‘irda qolgan barg singari titrardi. G‘oliblar e‘lon qilindi, 1- va 2-o‘rinlar bizga nasib qildi. Biz juda xursand edik. Ayniqsa, oxirgi savolning javobi kechasi o‘qigan kitoblardan ekanligini o‘ylasam, shunday shodlanar edimki... Jamoamiz bilan g‘alabani nishonlash maqsadida o‘qituvchimiz bilan O‘lkashunoslik muzeyi va istirohat bog‘iga borishga ahd qildik.

Kun bo‘yi o‘z-o‘zimdan xursand edim. Bularning barchasiga haqiqiy do‘stim – kitobning katta ahamiyati borligini yana bir bor anglab yetdim.

Ha, kitob – qalb mulki ekan. Inson umrining esa baxt kaliti. U bizga yomonni yaxshidan farqlashga, hayotda o‘z o‘rnimizni topishga ko‘mak beradigan sehrli vosita, noyob manba ekan.

Do‘stim! Bir haqiqat mavjud – aslida asl xazina va haqiqiy boylik dur-u javohirlar, tillalar, zumrad-u olmoslar emas, aksincha, u – kitobdir. Nega deganda, o‘sha xazinalar sarflaganingiz sari kamayib, bir kun bitadi, tugaydi. Kitob-chi? U sira tugamaydi, foydalanganingiz sari ortib boraveradi...



SEVINCH HAMRAYEVA  
10-sinf o‘quvchisi



## QISH

Oppoq qor yuzlarin silaydi shamol,  
Go‘zallik libosin kiygan tabiat.  
Sumalak yoshiga tutib dastro‘mol,  
Quyoshjon nurlarin sochar beminnat.

Oppoq qor qo‘ynida ungan bir chechak  
Atrofga termilib rosa shodlanar.  
Har tomon qushlar ham boqadi sergak,  
Bahorni chorlashga qayta otlanar.

Garchand sumalakday to‘kilsa yoshing,  
Ko‘zingdan sevinchlar tomsa bahorday.  
Ko‘ngilda mustahkam bo‘lsin bardoshing,  
Orzularing erib ketmasin qorday.





BOBOMUROD SA'DULLAYEV  
10-sinf o'quvchisi

**“SIZGA HAVAS QILDIM,  
DOKTOR, MEN BUGUN”.**

(Erkin Vohidov)

Sizga havas qildim, doktor, men bugun,  
Bebaho hikmatlar sizda mujassam.  
Oppoq qog'ozlarga bitmoqdan burun,  
Oppoq qalbingizga ichgansiz qasam.

Siz asli mehrdan taralgan sado,  
Borliqni bag'rige qucha olgan zot.  
Yurakdan kelguvchi musaxxar nido,  
Siz asli dunyoni qilursiz obod.

“Sog'lik” deb atalmish oliy omonat,  
Sizning kaftingiz-la hayotdir mudom.  
Hatto zahmatlarda qilib siz toqat,  
Tuhfa etajaksiz olamga orom.

Men sizni bir umr olqishlab yashay,  
Bu buyuk zaminning buyuk jonlari.  
Yurt uchun har qanday jangga doim shay,  
Shavkatli yurtimning qahramonlari!



MAFTUNA TO'LAGANOVA  
10-sinf o'quvchisi

**QIZG'ALDOG'IM...**

Muhammad Yusuf xotirasiga

Qizg'aldog'im, qirlaringga qadam qo'ysang,  
Ko'k toqida ol yuzingga oylar shaydo.  
Poyingdadir butun dunyo agar bilsang,  
Sening esa boshing egik gullar aro.

To'lg'onasan, yuragingda unsiz nola,  
Ne g'amlardan chekding buncha jabr-u zulm.  
Alamlardan o'z-o'zingni qilib pora,  
Sog'inchlardan sarg'aydingmi, sodda gulim.

Qizg'aldog'im, armonlarga qilma parvo,  
Bu dunyoda faqatgina haqdir o'lim.  
Yo'llariga ko'zlariningni qilib shahlo,  
Muhammading sog'indingmi yoki, gulim?

Yaxshisi, bor, shoiring qabri qoshiga.  
Aytolmagan dil so'zlarin oqqa ko'chir.  
Cho'milgancha osmonlarning ko'z yoshiga,  
U his qilgan tuyg'ularni dildan kechir.

Boshing egsang, eggin faqat har subhidam,  
Sajda qilib, shu chamanning tuprog'iga.  
Shu chamanni kuylab ketdi shoiring ham,  
Qodiriy-u, Fitrat, Cho'lponlar yoniga.





SEVINCH OMONOVA  
10-sinf o'quvchisi

### ALISHER NAVOIYGA

Ilm dengiziga to'ldirib suvlar,  
Tomchisin shu zahot sepgan ko'ngilga.  
Qalba ma'rifatdan qurib saroylar,  
Besh ulug' xazina jo etgan unga.

Baytlarin bag'rida asrlar dardi,  
G'azallar ko'ziga muloyim boqar.  
Ko'kka ko'tarilgan millatning qadri,  
Yurakka komillik mash'alin yoqar.

Shu bois hamisha ul zotning yodi,  
Ko'kka porlayotgan nurli quyoshdir.  
Jahon ayvonida bobom bayoti,  
Ulug'lik boshida porlagan tojdir.

\*\*\*\*\*

Chiqdim karvon ila mustaqil yo'lga,  
Ko'ngil saroyidan qo'rquvni haydab.  
Erklik shamollarin taratdi yurtga,  
Qalba komillikning niholin qadab.

Poklikka yo'g'rilgan millat orzusin  
O'tmishning qa'ridan opichlab o'tdi.  
Baxtning yuzin o'pgan xalqning kulgusin  
Kelajak peshtoqin naqshiga bitdi.

Taralar tinchlikdan qadrdon bonglar,  
Yaratdi mehr-la buyuk bo'stonni.  
U sabab otmoqda nurafshon tonglar,  
Meros qilib ketdi O'zbekistonni.



### TEMUR BOBOM DA'VATI

Buyuk Amir Temur tavalludining 685 yilligiga  
bag'ishlanadi.

Janglar manglayida mardlikka to'lib,  
Ko'ksim vulqonida yurak yonmoqda.  
Qo'limda adolat bir shamshir bo'lib,  
Riyokor kimsalar jonin olmoqda.

Zolimlar bog'lasa erklikning qo'lin,  
"Sarhadim – hurlik" – deb boshin ezadi.  
Isyonkor quzg'unlar yanchsa xalq dilin,  
G'ururim o'q bo'lib bag'rin teshadi.

Janglarda tulporim bo'rondek kishnab,  
Qo'limda qilichim "haq" deb boqmoqda.  
Har lahma bu ochun chehrasi yashnab,  
Bizlarga shijoat sarvar bo'lmoqda.

Xalqimni yuksaklik tog'iga chorlab,  
Manfurlik chohidan etdim men xalos.  
Avlodlar quyoshi porlashin o'ylab,  
Adolat, tinchlikni ayladim meros.





LOCHIN ISMATILLAYEV  
10-sinf o'quvchisi

Qalbimni tirnaydi mash'um hodisa,  
O'zbek osmonini rosa titratdi,  
Samo yoshin to'kdi, bulutlar zada,  
Shu ko'hna dunyoning Islomi ketdi.

Oppoq bulutlardan tikilar kafan,  
Zamin ham kiyadi qora libosin.  
Aza ochiladi, afsus, daf'atan,  
To'xtatib bo'lmaydi motam ovozin.

Sekin qanot qoqar oppoq kapalak,  
Jannatga yo'l olar farishta bo'lib.  
Tog'idan ayrilar zamin jonsarak,  
Tabiat yig'laydi ko'ksini tilib.

Endi yuraklarda yashar u inson,  
Oq bulut ortidan qarar mo'rabal.  
Suratiga boqib, kutaman hamon,  
Sirli gaplashaman bulutga qarab.

\*\*\*\*\*

Moziydan keladi hayotbaxsh navo,  
Tinglagan ko'ngilga beradi davo.  
So'zlari sehridan bo'laman shaydo,  
Bebaho merosdir shoir ijodi.

Hayotning shodligi yiroqlashsa gar,  
Qalbimni chorlasa she'riyat agar.  
Umrim yo'llariga tashlasam nazar,  
Qayta umid berar ajdodlar yodi,  
Obihayot erur shoir ijodi.



E'ZOZA YO'LDOSHEVA  
9-sinf o'quvchisi

## BARMOQLAR

Hamma ishni to'kis bajarar,  
Besh og'ayni, botir besh barmoq.  
Bosh, ko'rsatkich, o'rta, nomsiz deb,  
Bo'linishar ular besh barmoq.

Atashadi meni bosh barmoq,  
Bo'yim pastdir hammadan biroq.  
Barmoqlarga boshliq bo'lsam ham,  
Ular mendan ko'p yuqoriroq.

Kimligimni istasang bilmoq,  
Yon qo'shimdir o'sha bosh barmoq  
Ko'rsatib ishora qilaman  
Deyishadi ko'rsatkich barmoq

Men o'rtada turganim uchun.  
Nomlashadi o'rtacha barmoq,  
Bo'yim baland, hammadan uzun,  
Tanib olgin sen meni, o'rtoq.

Mustaqil ish hech qilolmasman,  
Yotib, turib hech ham tinmasman.  
Nomning yo'qmi?, deb berib so'roq,  
Meni bezab taqishar baldoq.

Arazlashib qolganni ko'p bor.  
Yarashtirib qo'yaman bundoq,  
Ko'p savobli nozik ishim bor,  
Shuning uchun nomim jimjiloq.



SHODIYA YUSUPOVA  
9-sinf o'quvchisi



## AYOL

Xayollarim, ilhomim bo'lib,  
Hislarimdan to'kilar durdek.  
Ko'k toqida oydayin to'lib,  
Yoritadi zaminni nurdek.

Dengiz ham, u ummon ham udir,  
Va surganda eng shirin xayol.  
U tabiat, u giyoh, guldir,  
Barchasida mujassam ayol.



## SHOIR

Shoir kim desalar,  
U samo derman.  
Sababi she'rida  
Soflik aks etar.

Shoir kim desalar,  
U daryo derman.  
Qalbida ilhomlar,  
Shiddati oqar.

Shoir kim desalar,  
U ummon derman.  
Yuragin tubida,  
Sirlari yotar.

Shoir kim desalar,  
U inson derman.  
Uning ham dilida,  
Armonlar yotar.





AZIZBEK RAJABOV  
9-sinf o'quvchisi



### ONA ZAMIN

Beshigimga baxtni belab,  
Tovonimdan o'pgan zamin.  
Tog'lar kabi tole tilab,  
Tandirda non yopgan zamin.

Meni deya istiqbolni,  
Istiqlolni tutgan zamin.  
Boshim uzra nurlar elab,  
Poyimga dur sepgan zamin.

Har zarrangni, har gardingni  
Tomirimda qon bilaman.  
Ellar ichra, yurtlar ichra  
Nomingni doston qilaman...



MAFTUNA NASRILLAYEVA  
7-sinf o'quvchisi



### ONA TILIM

So'zlab yubordilar qadim bitiklar,  
Ko'ngillar qasrida charog'on nurim.  
Navoiy kalomi sendan boshlangan,  
So'nmas gulshan kabi g'ururim tilim.

Bu kunga yetishmoq edi orzular,  
Qancha balolarning boshini kesding.  
Yo'lingdan chiqdilar qancha nokaslar,  
Sinmading, ko'klarga bo'y cho'zib o'sding.

Olg'a intilmoqdir – oliy bir maqsad,  
Istiqlol bizlarga berdi-ku imkon.  
Charog'on iqboling, nur sochgay baland,  
Buyuk kaloming-la yashnagay Vatan!





MADINA BOYMURODOVA  
8-sinf o'quvchisi



Boshda baxt yulduzim bor,  
Yorug' kech-kunduzim bor.  
Ko'nglimda o't so'zim bor,  
Vatanim obod bo'lsin!

Har tong tiniq osmonim,  
Qo'l uzatsam, imkonim.  
Chamanzordir har yonim,  
Vatanim obod bo'lsin!

Tinchliksevar el yashar,  
Mehnatdan kamol topar,  
Qalbim baxt torin chalar,  
Vatanim obod bo'lsin!



MUSHTARIY SAIDOVA  
8-sinf o'quvchisi



### VATAN...

Ona, sen Vatanmi, yo Vatan senmi?  
O'rtanib ketadi yuragim nechun?  
Siz boshim silaysiz parvona bo'lib,  
U esa o'padi tovonim uchun.

Vatan, sen onammi, yo onam senmi?  
Bir tuyg'um mujassam ikki bo'lakda.  
Bir-birin rad etmay ikkisi mudom  
Jonimdek yashaydi sohir yurakda.

Mag'rur tog'laringga qilgayman ta'zim.  
Poyida asrlar bog'lar ham chaman.  
Men seni sevishni, sodiq bo'lishni  
Ulug' tog'laringdan o'rgandim, Vatan!

Qalamimga qo'nib ilhom parisi,  
Sarafroz hislarim olsalar xabar.  
Men baxtli sezardim musavvirlardek,  
Vatanim, sur'ating chizolsam agar.





SHERMUHAMMAD TOJIDDINOV  
8-sinf o'quvchisi

### IBRAT

Boqib uzoq kelajakka,  
Ul Navoiy qildi hikmat.  
O'qib uning ijodini  
Oldim o'lmas, boqiy ibrat.

Bilib-bilmay, xato qilmay,  
Mavh etmayin yovuz illat.  
Eslab Navoiy yodini  
Oling undan doim ibrat.

Bevaqt so'l mang, ilm izlang,  
Bo'ling yuksak, Cho'lp on, Fitrat,  
Ochib Alisher konini  
Oling undan oliy ibrat!

### YAXSHI NOM

Boylik deb yashamoq nodonning ishi,  
Buni soz biladi har qanday kishi.

Borin olib ketmoq bo'lsaydi agar,  
Qo'li bo'sh ketmasdi buyuk Iskandar.

Deydilar, yaxshi nom mangulik demak!  
Yurt deb olg'a yurmoq, xoh o'lmoq kerak.

Shuning-chun eslanar buyuk Temur ham,  
Zero, afsonamas, u ham bir odam!

Nega yod olinar Shiroq, To'maris?  
Nega Muqannalar tarixda aziz?

Nega ular kabi eslanmas yovuz?  
Nega yomon debmas maqtov-u xush so'z?

Chunki barcha narsa o'z nomiga xos,  
Yomon kelar-ketar, yaxshiga ixlos...

Vaqtlar o'tajakdir, ilg'or, bardavom.  
Biroq, aslo o'chmas yaxshi degan nom!

### BURCH

Goho yurdim quvonchga to'lib,  
Goh g'am chekib, ba'zida kulib,  
Shu paytgacha ne foydam tegdi  
Onam uchun bir farzand bo'lib?!

Ba'zan uning bag'rini o'ydim,  
Dam qalbidan shodligin yuldim,  
Ishongani men bo'la turib,  
Otam uchun nima naf qildim?!

Deyman, hali bari oldinda,  
Ular mushtoq mening ortimdan,  
Qiyosi yo'q ota-onam-chun  
Bir kun haykal qo'yay oltindan!





SHAXINA MUSURMONOVA  
6-sinf o'quvchisi

### MANGULIKKA DAXLDOR INSON

O'zbekning zabardast buyuk ajdodi,  
Qancha-qancha o'tdi jasur o'g'loni.  
Janglarda jon tikdi, yosh navqironi,  
Shu yurtga baxsh etdi aziz jonini.

Tarixi buyuk yurt, hur O'zbekiston!  
Gullab-yashnayversin mustaqil zamon.  
Baxtli bo'lsin, elim, xalqim deb omon,  
Mardlar maydoniga chiqdi bir inson.

Dovrug'in taratdi o'zbek nomini,  
Mustahkam qurdilar poydevorini.  
Xalqidan ayamay hatto jonini,  
Qalblarda qoldirdi mangu shonini!

Tinchligimiz bo'lsin mangu barhayot,  
Ruhingiz shod bo'lsin duo qilgaymiz.  
Buyuk ajdodlarim berar kuch najot,  
Yorqin xotirangiz hech unutmaymiz.



### ONAJONIM

Dilim kular, tilim kulardi,  
Ona desam, onajon desam,  
Har bir kunim, tunim kulardi  
Ona desam, onajon desam.

Quyosh bo'lar, oy bo'lar dunyo,  
Sho'x bir qo'shiq, soz bo'lar dunyo  
Qog'oz-qalam bulbuli go'yo,  
Ona desam, onajon desam.

Peshonamni silaydi onam,  
Uzoq umr tilaydi onam,  
"Quyoshim" deb, "yulduzim, bolam",  
Ona desam, onajon desam.





MADINA OMONOVA  
6-sinf o'quvchisi



### NAVOIY BOBOMNI ESLAYMIZ BU KUN!

Ilm-ma'rifatni zo'r qurol bilgan,  
Rostgo'ylik, kamtarlik libosin kiygan.  
Ko'ngilga ma'rifat nurin taratgan,  
Hazrat Navoiyni eslaymiz bu kun.

Do'stlik rishtalarin mahkam bog'lagan,  
Xalqning tinchligini har dam o'ylagan,  
Turkiy til dovrug'in dunyoga yoygan,  
Hazrat Navoiyni eslaymiz bu kun.

Asrlar qa'ridan o'chmas nomingiz,  
Avlodlar yodida ulug' shoningiz.  
Komillikka eltar ilm koningiz,  
Hazrat Navoiyni eslaymiz bu kun.



### VAQT BILAN QUVLASHMACHOQ

Quvlashmachoq o'ynadim,  
Soat bilan bir kuni.  
U chopdi hech yetmadim,  
Rosa ham quvdim uni.

Holdan toydim yugurib,  
Vaqtni hech yutolmadim.  
Soniyalarni sanab,  
Oxiriga yetolmadim.

Yetib olay shoshmay yur,  
U dedi: "Kutolmayman.  
Xohlasang tezroq yugur,  
Vaqtni to'xtatolmayman."



To'xtasam zamon to'xtar,  
Holbuki inson to'xtar.  
Shunday ekan ildam chop,  
Mehnating-la kamol top!"



DILXUSH ABDURAHIMOV  
6-sinf o‘quvchisi



## BAYROG‘IMIZ

Yashar unda to‘rtta rang  
Yashil, moviy, oq, qizil.  
Hilpirashiga qarang,  
Ko‘rib shodlanar ko‘ngil.

Osmon qadar balandga  
Ko‘tarayin bayrog‘im.  
Dunyo bo‘lsin havasda,  
G‘ururimsan, ardog‘im.

Zafar quchgan har g‘olib  
Qo‘lida dunyo kezgin.  
O‘zbekning faxri bo‘lib  
Baxtning tasvirin chizgin.



## AYOLLAR

Siz atirgul, sizlar qizg‘aldoq,  
Sizlar lola, siz qizil baldoq.  
Yuragida mehri bir quchoq,  
Doim kulib yuring, ayollar.

Farzandiga mehribon ona,  
U yashagan kulba – koshona.  
Yuzi masrur, qalbi gulxona,  
Baxtga to‘lib yuring, ayollar.

Tabiatning oliy ne’mati,  
Ollohnning beminnat himmati.  
Bizlar-chun kattadir mehnati,  
Bayramingiz qutlug‘, ayollar!





MADINABONU YO'LDOSHEVA  
11-sinf o'quvchisi

### YURAKDAGI SO'Z

Zulfiyaxonim nomidan

Yaproqsiz daraxtday qoldim men nochor,  
O'rtaydi alamlar dilimni bot-bot.  
Meni muhabbatga oshno etgan yor,  
Sen-la birla bo'lish orzu umrbod.

Sensiz ko'chalarda tentirab yolg'iz  
Faqat seni izlar bu qora ko'zlar  
Taskin axtaradi, lekin topmaydi  
Ovutmoq-chun o'zni yetmaydi so'zlar.

Sensiz yiqilsam men hayot yo'lida,  
Qo'llimdan tutdilar Hulkar va Omon.  
Ular menga har dam bo'ldilar tirkak,  
Ammo dil tortadi hanuz sen tomon.

"Muhabbat har nega qodir" – deydilar,  
Sening ishqing bilan tirikman, yorim.  
Ikkimizni ayro qilolmas yillar,  
Baxt to'la boyligim, sen-mening borim.

Har bahor faslida yayrasin ruhing,  
Biz uchun abadiy shod bo'lsin, shodon.  
Bizni tark etmagay she'rning shukuhi,  
Doim biz bilansan, ustoz Olimjon!



### BAG'ISHLOV

Doimo aksingiz yurakka yupanch,  
Kelsangiz otajon, men uchun bir on.  
Yo'lingizga qarab, ko'z yoshga to'ldi,  
Mehringizga qonmoq istadim chunon.

Unutish degan his men uchun yiroq,  
Xotiralar tomon hech yetolmadim.  
Onamdek o't bo'lib yondim-u, biroq  
Kul bo'lib ketsam ham, jiz etolmadim.

Ko'ksimni tiladi shu o'n ikki yil.  
Qabringiz boshida turibman mahzun.  
Bir quchoq sog'inchim hadya etaman,  
Chunki bugungi kun siz-tug'ilgan kun.





SHAHNOZA MAMIROVA  
11-sinf o'quvchisi



## YULDUZLAR CHARAQLAR, SOKINDIR BU TUN

Yulduzlar charaqlar, sokindir bu tun,  
Boshini bulutga qo'yib uxlар oy.  
Tin olar borliq ham besas va beun,  
Jimlikni qalqitar jildiragan soy.

## QUYOSHJON

Quyoshjon, manziling qayerda sening?  
Boshingni berkitgan ufqqa yetsaydim.  
Gar issiq taftingdan kuysam ham mayli,  
Ortingdan shom bo'lib botib ketsaydim...

Va sahar uyg'otib mudroq zaminni  
Sen-la qo'l berishib kelsaydim Sharqdan.  
G'aflatga ko'ksini berib yotganlar  
Qalbiga nur bo'lib kirsaydim shaxdam.

Men sening olovqalb qizingman, Quyosh,  
Tunlarni yoritgan tong bo'lgim kelar.  
Ko'ksimda yig'lagan bitta armonim –  
Dunyoda baxt degan bong bo'lgim kelar...

Men sening olov qalb qizingman, Quyosh!

Yulduzlar charaqlar sokindir bu tun,  
Yerga to'kiladi sarg'aygan yaproq.  
Har joyda nur sochib go'yoki uchqun  
Qorong'u ko'chani yoritar chiroq.

Yulduzlar charaqlar, sokindir bu tun,  
Bahaybat ko'rinar bunda tog' qoya.  
Sevgiga mutbalo kimlardir bugun,  
Devorda g'imirlar ikkita soya.

Yulduzlar charaqlar, sokindir bu tun,  
Charxpakalak misoli aylanar xayol.  
Jajji bolakayning iqboli uchun  
Alla aytar ma'sum, mo'tabar ayol.

Yulduzlar charaqlar, sokindir bu tun...





BAHRIDDINOVA GULSANAM  
11-sinf o'quvchisi

## BIR BAYTNING IKKI MISRASI

Ijod-ko'ngil mulki, ishq mahsuli. Chinakam iste'dod esa afsonaviy mehrigiyoga o'xshagan noyob bir ne'matdir. Jizzax vohasining ardoqli farzandi Hamid Olimjon shunday ohanraboga, shunday mehrigiyoga ega, juda ulkan qalbi bor, sohir qalam sohibi edi. O'ttiz to'rt yil umr ko'rgan bo'lsa-da, katta hayot va otashin ijod yo'lini bosib o'tib, ko'pgina ko'ngillarga o'zining benazir dil sadolarini muhrlab chiqqan kishiga bo'lgan izhorlarimni bayon etish bir qancha mushkuldir. Bugun Hamid Olimjon 111 yoshda. Oradan bir asr o'tgan bo'lsa-da, shoirning so'zлari, olamni tarannum etuvchi sarin she'rлari, tuyg'ulari naqadar pokiza, navqiron. Uning she'rлarida Ona Vatan, Baxt, Mehr-muhabbat chizgilari g'oyatda ta'sirli tasvirlanganki, she'rxon ularni o'qiganida ko'ngliga iliqlik yuguradi, yurak-yuragida eng bokira, quyoshli tuyg'ular ildiz otadi.

O'zbek xalqining hassos shoir o'g'loni Hamid Olimjon va Zulfiyaxonimdek ardoqli qizining tutash taqdiri tillarda doston. She'riyat olamiga o'zining Vafo va Sadoqat qo'shig'i bilan kirib kelgan bu ikki sohibi qalam go'yoki, bir baytning ikki satri kabidir. Bir-biriga hamohang, hamfikr, hamdard... Zulfiyaxonim ijodini shoira chizgan bir suratga qiyos etsak, Hamid Olimjon bu tasvirga rang berib chiqqandek... Bir-birini to'ldirib, sayqallab keladi. Ulkan shoir, nodir insoniy fazilatlar egasi Hamid Olimjon rafiqasiga har narsada o'rnak bo'ladi. Zulfiyaxonim qalbiga bir umrlik uyg'un hamroh va sezgir maslahatchi bo'lib keladi.

Hamid Olimjonning she'rлarida shoir qalbidagi qaynoq muhabbat, o'z sevgisidan Baxtning sururini his eta olgan lirik qahramon obrazni yorqin tasvir etilgan. Hayotdan go'zallikni his qila olgan, uni ko'ra bilgan inson chinakam baxt sururidan sarmast bo'ladi. Garchi og'ir yillarda yashab o'tgan bo'lsa-da, shoir she'riyatini Baxtdan, Muhabbatdan, jozib kechinmalardan ayro tasavvur qilib bo'lmas,,, Baxtim borki, har narsa go'zal Ko'rindi mening ko'zimga", - deb yozadi Hamid Olimjon. Shu sababdan ham, o'z muhabbatidan behad baxtiyor shoir she'riyatining ufqlari uzoq -uzoq kengliklarga quloch yoygandir.

Hamid Olimjon siymosi deganda, mening nazdimda, inson sifatida ham, shoir sifatida ham, avvalo, ulkan qalbga, nozik hissiyot va kechinmalarga ega bo'lgan

so'z musavviri namoyon bo'ladi. Hayotimning o'n yili Hamid Olimjon bilan hamnafas va hamqadam o'tgani men uchun ulkan bir baxt bo'ldi", - deb yozadi Zulfiyaxonim esdaliklaridan birida. Darhaqiqat, yirik shoir Hamid Olimjon benihoya mehnatkash, noyob intizom egasi bo'lgan. Uning misralari butun bashariyatga odamiylikdan, insongarchilikdan saboq beradi. So'zim so'ngida, Hamid Olimjon va Zulfiyaxonim singari ikki buyuk sohibi qalamning barhayot ruhi oldida mudom bosh egaman va musaffo qalbi hamda baborlardek buyuk, nurli she'riyatini insoniyatga baxsh etganligi uchun tashakkur bildiraman. Hamid Olimjonning Zulfiya bilan kechirgan hayoti, bir-birlariga bo'lgan sadoqati yoshlarimiz uchun har jihatdan ibrachtadir" - deydi Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev. Shunday ekan, ular bizning haqiqiy hayot va ijod maktabimizdir.





LAYLO BOSIMOVA  
11-sinf o'quvchisi



MOHICHEHRA ABDURASULOVA  
11-sinf o'quvchisi



## TUN

Tun...  
Borliqda bir ajib sukunat cho'mgan,  
Zim-ziyo pardasin tushirdi osmon,  
Sarg'imtil yulduzlar mitti fonusdek,  
Erinib nurini to'kadi hamon.

Tun...  
Yolg'izlik istagan dillarga tuhfa  
Gavjum xurujlarga beozor taskin.  
Bebosh tuyg'ularni jilovlash uchun  
Sukunat qa'riga bir nafas berkin.

Tun...  
Basharni bag'rida tebratgan xil'at  
O'ksik ko'ngillarning ma'sum malhami  
Borliqning jonlarga armug'on etgan  
Umr kitobining osuda dami...



## O'ZBEKISTON, QUYOSHIMGA O'XSHAYSAN

Orzularning qanotida uchib men  
Keng jahonni quchog'imga olarman.  
Yuragimni qiblagohda qoldirib,  
Vatan ishqing, o'zga qalbga solarman.

Vatan seni tog'-u toshda ko'rsam ham  
Lekin asli qalbganimda yashaysan  
O'zbekiston qaynoq bo'lgan mehring-la  
Uyimdag'i quyoshimga o'xshaysan.





UMIDA MAVLONOVA  
10-sinf o'quvchisi



Bilmam nesin o'g'irladim bu dunyoning,  
Nafrat bilan ko'z tikadi yo'llarimga.  
Bitta inson halovatin tutqazar lek  
Qaltiragan qo'llarimga.

Yiqilaman to'g'ri yo'lda go'dak kabi,  
Yordam uchun topilmaydi bitta odam.  
Bir alfovza uyg'a kelsam sado chiqar:  
"Nima qildi, jonim bolam?"

Keng osmonni qoplaganda qorachig'im,  
Kemtik qalbdan tomganida achchiq ko'z yosh  
Telefonda onam so'rар: "Yaxshimisan?  
Nimagadir yuragim g'ash".

Toshday qattiq yelkalar ko'p botdi menga,  
Tizzangizga boshim qo'yay yana bir bor.  
Mehringizni yopib qo'ying, sovqotmayin,  
Bag'ringizda uxlay takror.

Uyg'otmasin shirin tushning og'ushidan,  
Kulgichimga yashiringan xasta dardlar.  
Ajinlarga ko'mib qo'ying barchasini,  
Oq sochlarga ko'milamiz... Ketdik ona.



## SABAB

Muallim barchaga berdi bir savol:  
"Tahlil qilib ko'ring ushbu zamonni,  
Rustamov, qani, tur surmasdan xayol  
Xo'sh, nechun sevasan O'zbekistonni?"

O'rnidan turdi-yu o'ylanib qoldi,  
So'ng sekin so'z boshlar asta Davronbek.  
"Sadoqatnama"ni qo'liga oldi,  
Shovqindan ovozi eshitilmas lek.

Ustoz der: "Jim turing, to'polon qilmang,  
Tasvirlab bersin u shunday makonni."  
Javobim: "Kimlardir o'tibdi bilmay  
Ne uchun sevishin O'zbekistonni.

Men sizga aytaman faqat bitta so'z,  
Yurak uni deya urar basma-bas.  
Yurtim tinchligiga hech tegmasin ko'z,  
Men uni sevish-chun sabab shart emas."

Javobim: "Kimlardir o'tibdi bilmay  
Ne uchun sevishin O'zbekistonni.

Men sizga aytaman faqat bitta so'z,  
Yurak uni deya urar basma-bas.  
Yurtim tinchligiga hech tegmasin ko'z,  
Men uni sevish-chun sabab shart emas."





IRODA XOLBEKOVA  
10-sinf o'quvchisi

## ABDULLA ORIPOVNING TILLA BALIQCHASI

(Hikoya)

Adashmasam, to'qqizinchi sinfda o'qiyotgan paytlarim edi. Endigina qo'limga qalam olib, ilk marta she'rlar qoralagan davrlarim... O'shanda hamma sinfdoshlarim meni shoir deb chaqirardi. Parallel sinfdagi o'quvchilar ko'chada ko'rib qolishsa, qo'llarini bigiz qilib: “- Qaranglar, shoir kelyapti. Hoy, chala shoir, bizga ham atab she'r yozmaysanmi?” – deya masxara aralash iltimos ham qilib qo'yishardi. Men esa qaddimni g'oz tutib: “Haqiqiy shoirlar buyurtmaga she'r yozmaydilar, ular qalbiga kelganini she'r qilib, qog'ozga tushirishadi”, – deya mag'rur qadam tashlagancha ularni mensimay o'tib ketardim.

O'sha damlar hanuzgacha esimda. She'rim ilk bora gazetaga chiqqan kuni maktabda tongi saflanish vaqtida adabiyot o'qituvchimiz Farog'at opa chiqib, bu yangilikni barchaga e'on qilgandilar. Shunda direktorimiz meni yonlariga chaqirib, hammaning oldida maqtagandi.

– Shunday shoir bola men ishlaydigan maktabda o'qirgan ekan-u, bilmay yurgan ekanmiz, - deya yelkamga qoqib qo'yganlarida kimdir menga havas bilan qaragan, kimi larningdir qalbida hasad tuyg'usi yanada avj olgan, ammo sinfdoshim Rohila hech narsaga e'tibor bermas, menimcha o'z xayollari bilan band edi.

Saflanish tugagach, maktab hovlisidan sinfxonaga qaytib kirar ekanman, barcha, koridorda kelayotganimda hattoki parallel sinfdagi qizlar ham shaxsan qo'l berib tabrikladi. Asta-sekin ularning yonidan uzoqlasharkanman uch-to'rtta bo'lib to'planib turgan qizlarning: – Zo'r yozibdi-ya she'rini? – degan gaplari qulog'imga chalinardi. Bundan so'ng yanada o'z-o'zimdan mag'rurlanib ketdim.

To'g'risini aytaymi sizga? O'sha kuni na kulishimni, na yig'lashimni bildim. Qaysi tomonga yurishini bilmay yarim yo'lida adashib qolgan yo'lovchidek his etdim o'zimni...

Endi men mashhur shoirman. She'rim gazetada bosildi! Ha, meni hamma

taniydi. Mendek istedodli shoir bolani tanimay bo'ladimi? Endi ko'chada yurgan paytim odamlar meni ko'rib qolishsa, bir-birlariga qarab: – Anavi shoir Azim Turdiyev emasmi? – deya kelib mendan dastxat olishadi. Hali mashhur san'atkorlar she'rlarimni qo'shiq qilishadi. Shunday zo'r she'rler yozay-ki, hamma lol qolsin!

Shunday xayollar bilan o'zimni ovutaman. Boshqa nimayam qilardim? Shoirlarning yuragida bir dardi bo'ladi, deb bekorga aytishmas ekan... Dardi bo'lganda ham yuragini tub-tubida dardi bo'lar ekan shoirlarning... Mana, masalan, birkina o'zim yaqqol guvohman, desam mubolag'a bo'lmaydi. Rohila menga aqallib birkina e'tibor qilsin, deb qancha she'rler yozaman, o'qituvchilar ham faqat meni maqtaydi, hamma baholarim ham besh. O'zimizning sinfdagi qizlarga ozgina yaxshi gapirsam, birortasi ham yonimdan ketolmay qoladi. Ammo... Ammo Rohilaga umuman farqi yo'q. Uni deb o'lib-tirilib harakat qilayotganimning zarracha ham qizig'i yo'q unga...

Bugun uyg'a ertaroq qaytdim. Tushlik qilib olgach, birdan miyamga ajoyib fikr keldi: Rohilaga atab she'r yozsammikan? Ha, albatta, unga atab yaxshi she'r yozib, partasining tagiga qo'yib ketaman yoki sumkasiga solib qo'yaman. O'ziga bersammikan? Yo'q, o'ziga bersam olmasligi mumkin, hammaning oldida bersam, olmay ketib qolsa, butun sinfga kulgi bo'laman. Yaxshisi, buni o'zimdan boshqa hech kim bilmay qo'ya qo'lsin. Yopig'liq qozon yopig'ligicha qolgani ma'qul. Darslarimni qilib bo'lgach, oppoq qog'ozga ichimdag'i dardlarimni to'kib, qalam tebrata boshladim.

“Nega tilkalaysan bag'rimni, aytgin?

Ayt, kimdan kamim bor?..”

Atigi ikki qatorgina yozib, to'xtab qoldim. Ilhomim qochib ketdi, shekilli. Adabiyot ustozim Farog'at opa "Azimjon, bolam, agar she'r yozolmay qolsang, ko'proq kitob mutolaa qil, she'rлaringga rang kiradi. Ular ham sekin-asta ulg'ayishni boshlaydi. Sen ko'proq o'qishing kerak", - degandilar-a? Qiziq, she'rlarimda rang yo'q, demoqchilarmi bu bilan? Afsus, o'z o'qituvchim ham menga hasad qilar, yutuqlarimni ko'ra olmas ekanda... Shoir bo'lish uchun unchalik ham kitob o'qish shart emas. Ilhom kelsa bas shoir uchun. Tamom, vassalom. Demak, ko'proq she'r yozishim kerak. Ularni tez-tez gazetada chiqarib tursam, yaqin orada mashhur shoir bo'lib ketaman. Keyin hamma nashriyotlar kitobimni chop etishadi. Hali kitobim hammaning qo'lidan tushmay sevib o'qiladi. Keyin esa nashriyotlar menga qalam haqi beradi! Balki, o'shanda Rohila meni sevib qolar ...

Shunday qilib, Rohilaga maktub ham yoza olmadim. Kecha tumanimizdag'i gazeta tahririyatiga sal avvalroq yozilgan she'rlarimni olib bordim. Yana o'sha gapni aytishdi: "Ko'proq o'qing. Siz faqat gazetada chop etish uchun she'r yozmang". Yana o'zim bilan birga olib kelgan she'rlarimni qo'lga olgancha uyg'a qaytdim.

Nahotki shoir bo'lish shunchalik qiyin bo'lsa? Shoirga kitob o'qishning nima keragi borligini tushunmay o'lib ketmasam bo'ldi. Ilhom kelsa bo'ldi-ku she'r yozmoqchi bo'lgan shoirga ...

\* \* \*

Tushkun kayfiyatda maktabga bordim. Negadir sinfda Rohila ko'rinnmasdi. Joyimga o'tirishim bilan o'rtog'im Javohirdan uning nega kelmaganini so'ranganidan keyin: - Eh, Majnun, Majnun... Laylining ishqida kuyib, oxiri kul bo'lmasang, deb qo'rqaman, - dedi u. - Xavotir olma, buvisinikiga mehmonga ketgan ekan.

Javohirning gaplarini eshitib, ko'nglim biroz joyiga tushdi. Geografiya darsida xayol surib o'tirgandim, o'qituvchim hammaning oldida tanbeh berdi.

- Ustoz, shoirlarga hamma narsa mumkin, - kesatdi Abduxoliq.

O'qituvchimdan uzr so'rab, indamaygina joyimga o'tirdim. Qirq besh daqiqa bir asrdek tuyuldi. Qo'ng'iroq chalingach, birinchi bo'lib narsalarimni olib sinfdan chiqib ketdim va kutubxonaga kirdim.

- Kel, shoir yigit, - jilmaydi kutubxonachimiz, - qanaqa kitob olasan?

Yuzimda soxta tabassum bilan arang jilmaygancha salom berganimdan so'ng, qaysi kitobni tavsiya qilishlarini so'radim.

- Abdulla Oripovni to'liq o'qi, - qat'iy ohangda dedi kutubxonachi opa, - avval ham o'qigan bo'lsang kerak-a ustozning she'rlarini?

- Ha, Abdulla Oripovning ijodiga mehrim bo'lakcha.

Kutubxonachi opa yolg'on gapirogtganimni qayerdan bilsin? Ey, Xudo, o'zing kechir...

Kitoblar orasidan Abdulla Oripovning "Saylanma"sinı topdik. - Mana shu kitobni yaxshilab o'qi. Nasib etsa sen ham zo'r shoir bo'lasan, - dedilar kitobni qo'limga tutqazar ekanlar, - o'shanda bizni tanimay qolmagina.

Indamaygina kulib qo'ydim va rahmat aytib, uyga shoshildim.

\* \* \*

Varaqlarning shiqirlashi quloqqa biram yoqimli eshitiladi-ki... Hatto, kitoblarning ham hidi ajoyib bo'lar ekan. She'r insonning dilini poklaydi, deganlari rostga o'xshayapti. Kitobni birma-bir varaqlab o'qib borganim sari she'rlarning mazmuni, saviyasi xuddi nihol unib, barg chiqarib va nihoyat meva bergandek o'sib bormoqda. "Tilla baliqcha" nomli she'rga ko'zim tushib qoldi. O'qib, rostini aytsam, etim jimirlab ketdi. Demak, men ham o'sha tilla baliqcha kabi loyqa ko'lmaida suzib yurgan ekanmanda... Nahotki... Nahotki men ham shugina loyqa ko'lmaeni dengiz deb tasavvur qilsam? Men xato qildim! Qarsak va maqtovlarga ishonib qolganimni endi angladim. Ha, men ham o'sha tilla baliqchalarning biriman...

Yana xafa bo'lgancha kitobni mutolaa qilishda davom etdim. Darslarim ham bir chetda qolib ketdi. Shunda shoirning bir misrasi yuragimga umid bag'ishladi-ki, shodligimdan ichimga sig'may ketdim. Dardni ham, darmonni ham shu kitobning o'zidan topdim.

"Ba'zan g'aliz jumla ustida  
Soatlab bosh qotirganim bor".

Abdulla Oripov shu she'rini mendek paytlarida yozgan ekan. Xo'sh, men she'r yozsam, g'aliz jumlalar ustida ishlaymanmi? Yo'q! Xato va kamchiliklarini tuzatamanmi? Yo'q. Savollar yog'ilib kela boshlaydi.

- ...?

- ...!

Ongimda turli fikrlar charx ura boshladi. Axir, hech kim buyuk shoir bo'lib tug'ilmaydi-ku. Yillar va tinimsiz izlanishlar ijodkorning yozganlarini yuksaklikka ko'taradi. Demak, tushkunlikka tushishim kerak emas. Hali menda vaqt bor.

"Hali qancha tunlarni yana

O'tkazishim kerak uyqusiz?"

Demak, shoir bo'lish uchun ilhomning o'zi kamlik qilar ekan. Nega shuni ertaroq anglamadim-a? Hechdan ko'ra kech. Muhimi, angladim. Endi haqiqiy she'r yozaman. Haqiqiy shoir bo'laman. Shunda Rohila ham mening she'rlarimni o'qiydi, albatta o'qiydi...





OYNISA ABDUVALIYEVA  
10-sinf o'quvchisi



SEVINCH ABDAZOVA  
9-sinf o'quvchisi



## YASHANG

Otajonim, ko'nglim qishloq havosini qo'msab qoldi,  
Dim shahardan dimiqqan kun tig'lab qoldi,  
Onam yopgan kulchalari yig'lab qoldi,  
Sog'inganim, talpinganim sizdan bo'lak.  
Sizga tomon eltar meni o'sha yo'lak.  
Dilimda yosh, ko'zimda yosh ko'hna quyosh  
Charaqlasa ko'ngilginam charaqlaydi.  
Otaginam, sizdan boshqa topmam bardosh,  
Qora sochmas, oq sochlari yaraqlaydi.  
Oq soch emas, qor ham emas oq armondir  
Bu armondir iqbolimiz bo'lib qirov  
Iqbolimiz otam, sizga bir darmondir  
Bu armonni men tushundim emas birov  
Yurakkinam yana meni etar so'rov.  
Alp edingiz tishlar sadaf, sadaf dillar,  
Olib ketdi sadaflarni zolim yillar.  
Erkni bersam so'zlayverar zabon tillar,  
Kimshik tishmi, oppoq sochmi mayli yashang  
Qo'lda asov, azim chinor bo'lib yashang.



## ABADIY ISHQ

Yana bahorlarga vaslingni tutib,  
Kuylay boshlamoqda tanish qo'shiqni.  
Bir lahza, kel, yana dardni unutib  
Kel, birga kuylaylik abadiy ishqni.  
Bu ishq qo'shig'idan yaralmish olam,  
Va yurak qatida hanuz hayajon.  
Endi gul bag'rida uyg'on mish shabnam  
Va qalbda tirilmish Hamid Olimjon.  
Mana, chappar urib, vodiylar kezib,  
His qildi hayotning sof nafasini  
Yorining zor yolg'iz qolganin sezib,  
Izлади bog'lardan Zulfiyasini.  
Endi ruhing ila chiqamanmi-a?  
Bahorga, baxtlarga, shodlikka peshvoz.  
Eshitilar, o'zing aytgandek, tingla  
Faqat bor quvonchni maqtagan ovoz.  
Endi parchalolmas, endi sindirmas  
Bahor mavjlariga bo'lgan oshiqni.  
Bo'ronlarda o'chmas, olovda yonmas  
Kel, birga kuylaylik mangu qo'shiqni...





## HAYOT, SENGA DILNI BERSAM

Hayot senga dilni bersam  
Chayon bo'lib chaqmaysanmi,  
Ko'ksim uzra endi, ona,  
Ko'zmunchoqlar taqmaysanmi?

O'n oltita karvonimga  
Ketayapman yurak berib.  
Olovlarg'a jon qasdma-qasd  
Chiqayapti ko'krak kerib.

Qo'rroq emas, qara ruhim  
Ko'zlarimda asli olam  
Turnalarim qanot qoqsa  
To'kilmasmi yerga nolam.

Bu dovyurak hislarimga  
Endi o'zi bersin to'zim.  
Yuzim burib taqdirdan ham  
Najot kutgan yana o'zim.

Endi ko'kka sovuraymi  
Fig'on bo'lgan firoqlarni.  
Oshkor etmay kel, yig'laymiz  
Qo'yib "cho'li iroq"larni.

Ko'zlarimga samo yaqin  
Yaqin qalbga olov-quyosh  
O'n oltinchi bahorlarga  
Yaqin qoldi yana bir yosh.

Ketib... bolalikdan yiroq  
Yillar yurakni so'roqlar.  
Ona, meni asramoqda  
O'zing taqqan ko'zmunchoqlar .



NASIBA BOSHMONOVA  
9-sinf o'quvchisi

## VATAN, SENI YAXSHI KO'RAMAN!

Dilimga mukofot - she'qli cho'g' bilan,  
Manguberdi tutgan mangu tug' bilan,  
Baxt-u rivojingga umrlar tilab,  
Vatan, seni yaxshi ko'raman!

Shiroqning ko'ksida alami bo'lib,  
Muhammad Yusufning qalami bo'lib,  
Yuksalsang, yuksaklik faxriga to'lib,  
Vatan, seni yaxshi ko'raman!

Mardlikka timsoling - Ulug'beging bor,  
Qancha buyuging-u ulug' beging bor,  
Ularning ruhidir bizga hamroh, yor,  
Vatan, seni yaxshi ko'raman!

Navoiy navosi – nazm tumori,  
Jonimga sayqaldir o'zbegim ori,  
She'r qilib madhingni, she'r qilib borim,  
Vatan, seni yaxshi ko'raman!

Temuriy bobomdan shaxd, toqat meros,  
Islom Karimovdan sadoqat meros.  
Xalqqa muhabbatim To'marisiga xos  
Vatan, seni yaxshi ko'raman!



Qodiriy qonida barq urgan g'urur,  
Bugun bu qalbimga bag'ishlar surur.  
Har o'zbek o'ziga bek bo'lib yurur,  
Vatan, seni yaxshi ko'raman!

Avloniy misrasi go'yoki hikmat,  
Himmatni o'rgatdi satri-la Fitrat.  
Kubroying baxsh etdi shijoat, shiddat,  
Vatan, seni yaxshi ko'raman!

Yurtboshim-sha'nimiz erur, shonimiz,  
Shodlikka, tinchlikka moyil onimiz,  
Fido bo'lsa arzir hatto jonimiz,  
Vatan, seni yaxshi ko'raman!

Dilimga mukofot - she'rli cho'g' bilan  
Vatan, seni yaxshi ko'raman!!!

## QARO QOSHING...

(Erkin Vohidovning "Qaro qoshing ..." deb boshlanuvchi she'riga nazira)

"Qaro qoshing, qalam qoshing,  
Qiyiq qayrilma qoshing, qiz"  
Qoyil, qaddimni qavs qilar,  
Qalba qayg'u qadoshing, qiz.  
Qiynog'ingdan qochmoq qiyin,  
Qasd qiladur qadamlaring,  
Qaro qarog'ing qiynaydur,  
Qiynayverar qaroshing, qiz.  
Qamardayin qiyofangga  
Qoyil qolmaslik qiyindur,  
Qancha qalandarlar qalbin  
Qizdirdi qalb quyoshing, qiz.



SEVINCH ABDURASULOVA  
8-sinf o'quvchisi

## MENI O'ZGARTIRGAN KITOB

Insonning bir umrlik hamrohi shu yoshgacha olgan bilimlari bo'larkan. Mana shu bilimlar manbai esa shak- shubhasiz – kitobdir.

O'sha paytlarda taxminan 5-6 – sinflar edim. Ha, aytgancha, mening ismim Jasur. Aslida-ku, unchalik yomon bola emasman, lekin hamma meni buzg'unchi deb chaqiradi. Rosti bu nom menga juda yoqadi, "Jasur buzg'unchi"...

Shu yoshimgacha juda ko'p buzg'unchiliklar qilganman. Buzog'imizning ipini o'rtog'im Kamronga 10 ta olma evaziga almashganman, onamning yaxshi ko'rgan tovug'iga ikki kun ham suv bermasdan o'ldirib qo'yganman. Bularning barchasini aslida atay qilmaganman. Gapning indallosi deganday, bularning barchasi qiziqishdan. Otam bilan onam koyishganlari koyishgan. Qachon odam bo'lasan-a, deyishaveradi. Yakka-yu yolg'iz opam bo'lsa, meni tarafimni olish o'rniغا, ayblarimni aytgani-aytgan. Lekin baribir uni yaxshi ko'raman. Shunday qilib hikoyamning bosh voqeasi mana bunday boshlangandi. Men supada velosipedimni sozlayotganimda otam qo'lida allanimalar bilan kirib keldi .Men o'tirgan joyimdan qo'zg'almadim. Opam bilan onam xuddiki bir narsani kutayotgandek oshiqishdi. Men bo'lsam shu o'tirgancha to velosipedimni sozlab bo'limganimcha o'rnimdan turmadim.

Ha, yana shu o'rinda aytib o'tayki, men mo'jizali sarguzashtlarni juda yoqtiraman. Ishimni qilib bo'lgach nima qilishimni bilmasdan ancha o'tirdim. Uyimizda bir eski xona bo'lardi. Shu paytgacha u yerga hech qadam bosgan emasdim. Biron narsa bormikan deb kirdim-u, lekin hech narsa topolmagach, hafsalam pir bo'lib endi xonadan chiqayotsam burchakda bir narsa e'tiborimni tortdi. Shosha-pisha shu yerga bordim-u yaxshilab qarasam-eski bir kitob. Shuncha yugurganimga afsuslana boshladim. Ha mayli foydasi tegib qolar deb o'zim bilan olvoldim. Shu voqeadan so'ng uch-to'rt kun o'tib, biz maktabda insho yozdik. Bu inshodan olgan bahom yomon edi. Ammo bunga ham ozmi ko'pmi mehnat qilgandim. Xo'rligim keldi-yu nima qilishimni bilmay o'sha eski kitobni qo'limga oldim. Uning bosh sahifasida "Qiyinchilik ortidan albatta yengillik

keladi” – deb yozilgandi. Men shu-shu bu kitobga ko‘p qaraydigan bo‘ldim. To‘g‘risi yashirmayman, shu paytgacha biron marta ham kitob o‘qigan bola emasdim. Darslarimni mehribon opajonimga ishonsam bo‘lardi. 14 yoshga kiribmanki, o‘qigan bitta-yu bitta kitobim “O‘n besh yoshli kapitan” bo‘lgan. Bu kitobni ham sahifalarini qoldirib-qoldirib o‘qiganman.

... O‘sha xonadan topgan kitobim mening hayotimni tubdan o‘zgartirib yubordi. Qanday qilib bu kitobni tugatib qo‘yganimni ham bilmay qolibman. Eng muhimi, undan o‘zimga ko‘p foyda oldim va kitobga bo‘lgan mehrim oshdi. Do‘sstarim ham meni bunchalik tez o‘zgarganimga hayron qolishdi. Endi mahallada nomim “buzg‘unchi Jasur” emas, balki kitobsevar Jasurga aylandi. Lekin hali ham ozgina buzg‘unchiligidagi tashlaganim yo‘q. Shu-shu men kitobni sevib, unga do‘s tutina boshladim. Qolgan do‘sstarimga ham shuni maslahat beraman. Hozirgi kunda mening o‘z kitob javonim bor. Albatta, unda men uchun aziz hisoblangan o‘sha meni o‘zgartirgan kitob xazinadan topilgan tilladek yaraqlab turibdi ...



SHAHRIYOR PIRIMQULOV  
8-sinf o‘quvchisi



## VATAN

Vatanimiz yagonadir,  
Topolmaymiz, bir donadir.  
Tuprog‘ini ko‘zga surtib,  
Zarrasini o‘pib-o‘pib.

Vatanni sevamiz biz,  
Unga ta‘zim qilamiz.  
Vatan jonajon uyim,  
Dilimdagi chin kuyim!





DIYORA HATAMOVA  
8-sinf o'quvchisi



### BAHOR TAROVATI

“Salqin saharlarda bodom gulida  
Binafsha labida yerlarda bahor”.  
Qushlar chug‘urlashar mavjlanar suvlar  
Tog‘-u toshlarimda qirlarda bahor.

O‘z sepinib yoygan go‘yo kelinchak  
Husn-u jamolini ko‘z-ko‘z qiladi.  
She‘r yozgim keladi shu vaqtda, ammo  
Tovlanadi, xayollarim oladi.

Shodlikning nafasi kezar yurtimda,  
O‘rig-u bodomlar kiyar oq libos.  
Qizlarning boshida iroqi do‘ppi  
Atlas ko‘ylagi ham milliylikka xos.

Bahor tarovatin ko‘rib ko‘nglimda,  
Gurkiraydi hayajonim mash‘ali.  
“Men ketsam mung‘aymas umrim hech qachon,  
Bu bog‘lar bir bog‘lar bo‘ladi hali”.



### XALQIM

“Agar bola bo‘lsang bag‘rimga bosib  
Yelkamda ko‘tarib yurardim xalqim.”  
Agar lola bo‘lsang to‘rt fasl bahor  
Dalani makonim qilardim, xalqim.

Ulkan sinovlardan bardosh-la o‘tding  
Gohida sharob, ham goho qon yutding  
Bir qo‘lda ketmonni iymonni tutding,  
Ta‘rifingga ojizligim bilurman, xalqim.

Sen bo‘lmasang yoron kerakmas menga,  
Sen bo‘lmasang Turon kerakmas menga,  
Sen bo‘lmasang bir on kerakmas menga,  
Munosib farzanding bo‘lurman, xalqim.





MOHIGUL AHMEDOVA  
7-sinf o'quvchisi



MAVJUDA IRSALIYEVA  
7-sinf o'quvchisi

## AJAB DUNYO

(Muhammad Yusufning she'riga nazira)

Bu yo tasodifmi yoki bir qismat,  
Chalkashtirdi uzun yo'llarda hayot.  
Qayerda yurdilar, bilamiz, faqat  
Navoiy Hirotda, Qobulda Bobur.

Ikki chashma qoni bordir bizda ham,  
Bobolar qadami yetmagan joy kam,  
Endi dunyo bilan ko'ramiz baham,  
Navoiy Hirotda, Qobulda Bobur.

Uchrashishmagandi ular hayotda,  
Yoturlar yonma-yon ikki lahadda.  
Nima deysiz endi, hayot – hayotda  
Navoiy Hirotda, Qobulda Bobur.

## NON – ULUG' NE'MAT

Bir kuni vaziri bilan Ulug'bek,  
Otda ketar emish madrasa tomon.  
Ozgina yurganda uning oldidan,  
Chiqib qolibdi-ku kaftdekkina non.

Shunda darrov otdan tushib Ulug'bek,  
Nonni qo'lga olib ko'zga suribdi,  
"Kim qildi bu ishni?" deya o'rnidan  
G'azab bilan nonni olib turibdi.

Vaziri qaltirab, shohiga debdi:  
Shohim, buyursangiz bo'lardi menga,  
O'zim olardim-ku shu burda nonni.  
Ovora bo'ldingiz, tushdingiz nega?

– Bu nonni birinchi men o'zim ko'rdim,  
Nega olishingni buyuray senga?  
Axir shu non bilan bordir har so'zim.  
Bu non ulug' erur podshohligimdan,

Agar uvol bo'lsa bitta ushog'i  
Asrash uchun kechay qildek jonimdan.





NAFISA AXROROVA  
7-sinf o‘quvchisi

### TONG OTMOQDA

Zarrin quyosh ko‘tardi boshin,  
Shudring tomchilari yaltirar.  
Yoddan chiqar tun va yulduzlar,  
Mayin shamol yelpinib turar.

Tong otmoqda yorishar bu kun,  
Olam qayta boshdan jonlanar.  
Kun chiqqanda tabiat siri  
Yana bir bor yangilanar.

Tong otmoqda ochilar gullar  
Iforidan uyg‘onar ari.  
Sayrar quvnab gul totidan mast  
Sho‘x bulbulcha ketolmay nari.

Tong otmoqda mavj urar hayot  
Maysalar ham tebranar nafis.  
Bunday ajib olam sirini  
Anglamoqda odamzod hargiz.

Ishonaman, kelar shu kunlar-  
Hali go‘zal tonglar otajak.  
Uyg‘onadi barcha orzular,  
Bizni kutar porloq kelajak!



### KARTOSHKA

Kuchli bo‘lmoqchimisan?  
Yegin ko‘proq kartoshka  
Baquvvat qilar seni  
Xush kelar qari-yoshga

“Men kartoshka yemayman”  
Xarxasha qilib dema.  
Senga bir maslahatim  
Faqat uni xom yema!

### PIYOZ

Insonlarga hayronman  
Mening qadrim bilmaydi  
Tag‘in po‘stimni archib  
Tinim bilmay yig‘laydi.

Mening qadrim bilasiz  
Kirib kelganda ayoz.  
Shamollasang-og‘risang,  
Eng yaxshi davo-piyoz

Shunday qilib ta‘rifim  
Bir dostondir so‘zlasam.  
Birinchi o‘rindaman  
Ro‘yxatga ko‘z tashlasam





MARJONA ESHBOYEVA  
6-sinf o'quvchisi



## QIZG'ALDOQ

(Muhammad Yusuf she'riga nazira)

"Qizg'aldog'im qirdan bo'lak koshonang yo'q,  
Kokil yoysang yerdan bo'lak toshoynang yo'q".  
Xiyonatdan kuyganingda bag'ring o'yib,  
Qoshingda jim o'turguvchi parvonang yo'q.

Quyosh qarar alamidan senga kulib,  
Sevishganlar kelar qalbing yulib-yulib,  
Sen ularga aldanmagin ming bukilib.  
Asirlarday tog'laringda chekmayin g'am,

Senga yordam bera qolay bir bor men ham.  
Bahoringda kapalakdan yo'llay malham,  
Suyguvchilar qatorida bo'lay men ham.  
Kel, o'zimga sirlaring ayt, lolaginam!



## OLMA

Shoxda qizarib pishgan,  
Qizil olmaga qarang.  
– Tushmayman, – deb yig'laydi  
Osilib turar arang.

Ona daraxt aytdiki:  
– Olmajon, jon olmajon,  
Sen bo'lmasang, bolajon  
Bo'lib qoladi nimjon.

Olma xatosini anglab,  
Sekin yerga tushadi.  
Bola tomon yumalab,  
Iymanib gap boshladi:

- Bolajon, meni yegin,  
Bog'bonga rahmat degin.  
Meni qilmagin uvol,  
Bo'lgin sog'lom barkamol!





NARGIZA BUVAJONOVA  
11-sinf o'quvchisi



SHAROFATXON ABDUQODIR QIZI  
11-sinf o'quvchisi

## “O‘TGAN KUNLAR”NI O‘QIB

(Zaynabning o‘ylari)

“Ketdi toqat, ketdi sabrim ketdilar,  
Sindiraman urib yerga torimni”.  
Ne qilayin, niyatiga yetdilar,  
Kumushoylar tortib oldi yorimni.

Ko‘nglimdagi tuyg‘ularim bilmaydi,  
Aytolmayman hech birovga zorimni.  
Otabegim Marg‘ilondan kelmaydi,  
Kumushoylar tortib oldi yorimni.

Meni yomon deysiz, bag‘ritosh deysiz,  
Birovga beraymi dilda borimni?  
Zaharlar beraman Kumushga toki-  
Tortib ololmasin mening yorimni.

## OGAHİY MEROSI

Buyuk merosingiz qalbga nur sochar,  
Ham shoir, tarjimon, tarixchi olim.  
Arab, turk tillarin sirlarin ochar,  
Ul zotga mehrimiz dilda limmo-lim.

Buyukligingizga shak-shubha bo‘lsa,  
Ko‘ngil uyimizdan chiqar bir nido.  
Baralla aytadi avlodlaringiz,  
Ogahiy merosi bo‘lmagay ado.

## OTA

Ilm izlab yuribman, mana,  
Asli fe’lim biroz chatoqroq.  
Xayollarga berilib yana,  
Qilolmadim bir bor qo‘ng‘iroq.

Sahar tongdan shom-u kechgacha,  
Yuraverdim kitobim quchib.  
Uxlamayin hatto tonggacha  
Xayollarda samoga uchib.

Ota, sizni sog‘indim rosti,  
Ezilmoqda yuragim bedor.  
Borolmadim hatto uyga ham,  
Endi bitmak ne kerak ash’or.

Ahvolingiz so‘rayolmadim,  
Sovuq, ayoz, esmoqda shamol.  
Kasalingiz qo‘zg‘amadimi?  
Qiynayapti to‘xtovsiz savol.

Darsga yana ketaman shoshib,  
Ahvolimga yiglaydi osmon.  
Odam bo‘lish bunchalar qiyin,  
Oldingizga boraman qachon?

Bag‘ringizga shoshaman, ota...





MASHHURA BOTIROVA  
11-sinf o'quvchisi



### VATAN MEHRI

Qaldirg'ochlar janubga ketib,  
Bo'm-bo'sh qoldi shiftda loy uycha.  
Sovuq kunda qolsa-da qotib,  
Kirmas edi uyga musicha.

Buni ko'rib bo'lgandim hayron,  
Onam aytdi menga bir matal.  
"O'zga yurtda saqlagandan jon  
O'z uyingda o'lmosh'ing afzal".

Anglab yetib matal mag'zini,  
Mehrim oshdi bu qushga chunon.  
Qani endi sevolsam seni  
Shu qushchalik, jon O'zbekiston.



### QISHLOG'IM MENING

Shirin u xlabelapti qishlog'im mening,  
Sukunat bag'rida go'yoki yolg'iz.  
Biram yozgim keldi sening haqingda,  
Xayolim buzyapti chigirtka – hofiz.

Tebranib daraxtlar raqsga tushadi,  
Tarnovdan tushadi tomchilar chak-chak.  
Bog'lari olovrang go'zal qishlog'im,  
Tabiat vasfidan orziqar yurak.

Tun yarim zulmatni yoritadi oy,  
Suвлar oqib kelar to'ldirib soyni.  
Yulduzlar sochilgan gulga o'xshaydi,  
Qishlog'im shundayin go'zal, chiroyli.

Shirin xlabelapti qishlog'im mening,  
Sokinlik bag'rida yolg'izdan yolg'iz.  
Turaqol, qishlog'im, uyg'otyapman men,  
Kuylarni kuylagan men o'zim hofiz.





ROBIYAXON ABDULLAJONOVA  
10-A sinf o'quvchisi



### KO'NGLIM BEKATI

Meni kutadi chiroyli bekat,  
U oddiy bekatmas, ko'nglim bekati.  
Unga talpinishga qilsam harakat,  
Jur'atim jur'atsiz qochib ketadi.

Unga borolmayman, u yo'llar tomon,  
Yurakka borishning o'z soati bor.  
Maktab bekatida turibman hamon,  
Ijod vujudimda uyg'ongan bahor.

Yoshlik ko'chasida o'qish bekati,  
Turibdi nur ila bizlarni kutib.  
Biz ham kutmoqdamiz nurli kelajak,  
Baxtli talabalik orzusin quchib.



NODIRABEGIM SOBIROVA  
10-sinf o'quvchisi



### VATAN

Men dunyoga boqsam jilmayib,  
Go'zal husning bo'lar namoyon.  
Ta'rifingni maqtab, olqishlab,  
Seni jondan sevganim ayon.

Durdek tomgan kiprikdagi yosh,  
Chehramdagi tabassum – Vatan.  
Ko'zlarimda porlagan quyosh,  
Senga qilgum ming ta'zim, Vatan.

Otash qalbni yondirgan olov,  
Bilgin, sira o'chmaydi mangu.  
Vatan, qancha izlamay hatto,  
Men nomini topmagan tuyg'u.

Erta tongda derazam chertib,  
Mehr bilan qaraysan, Vatan.  
Aslida men bag'ringda emas,  
Sen qalbimda yashaysan, Vatan!





MOHIZODA TUROPOVA  
9-sinf o'quvchisi



GULCHIROY DAVRONBEKOVA  
9-sinf o'quvchisi



## BOLALIK

Hovlim etagida yong'oq shoxida,  
Osilgan arg'imchoq meni kutadi.  
Qo'shni qizaloqlar bahor chog'ida,  
Tolpopuk sayliga taklif etadi.

Oq terak, ko'k terak, to'p tosh-u chillak,  
Hali ortda qolar bolaligim ham.  
Endi ko'proq kitob o'qishim kerak,  
Qancha bilim olsam bo'laverar kam.

Bolalik sen mendan xafa bo'lmay tur,  
Hali ulgurarmiz, sen-la quvnashga.  
Iltimos, ochsam ham ortimdan yugur,  
Senda olgan sabog'im yozilar toshga.



## LOLAQIZG'ALDOQ

Yuragim bir nima deyapti tinmay,  
Balki o'ksiyapti hayotdan har choq.  
Men esa qalbimga hech parvo qilmay,  
Sen bilan ovora, lolaqizg'aldoq.

Yaproq'ing belanchak, uxlaydi shudring,  
Erkalab, allalab qilasan ardoq.  
Sen bilan bo'lsam-u ko'tarsam ko'ngling,  
Ilhomim parisi, lolaqizg'aldoq.

Shoir Muhammmadni o'ylab har kuni,  
Ko'z yoshlaring daryo qilasan oh-voh.  
Usiz yo'qtgansan umring mazmuni,  
Sevgi bayrog'isan lolaqizg'aldoq.

Ketdi endi deya kuyinma har on,  
Yutmasin seni ham shu qaro tuproq.  
Erka bir qizingning qalbida hamon,  
O'chmagay toabad lolaqizg'aldoq.





AKMAL ABDURAHMONOV  
9-sinf o'quvchisi



BAHOROY ABDUNABIYEVA  
8-sinf o'quvchisi

## SHUKRONA

Ohista otadi vatanimda tong,  
Tog' uzra miltirab ko'rinar quyosh.  
Maynalar chug'urlab uradilar bong,  
Yangi kun muborak, ey keksa-yu yosh.

To'lqinlar boshini urar qirg'oqqa,  
Buloqlar qaynaydi, to'lib-toshadi.  
Bunday manzarani ko'rib albatta,  
Bu go'zal yurtimga mehrim oshadi.

Yaratgan oshirar bu yurt qudratin,  
Qurban binolari qay yurtdan kamdir?  
Qayga borsa boshda milliy do'ppisi,  
Albatta belida belbog' mahkamadir.

Asli biz o'zbeklar mehnatkash xalqmiz,  
Nihollar ekamiz yer qadrin bilib.  
Ming shukur, bir kaftdek vatanimizni,  
Tangri yaratibdi serquyosh qilib.

## BAHORIM

Hovlimizda daraxtlar ochildi gulgun,  
Yerni yorib nihollar chiqibdi bugun.  
Havojonim tozalab qo'yishing uchun,  
Bahorim, kel, seni bag'rimga bosay.

Toza havolaringdir dardlarga davo,  
Qushlaring chug'urlab chalishar navo.  
Arzir seni qanchalar qilsak tavallo,  
Bahorim, kel, seni bag'rimga bosay.

Atlas kiygan kelinlar suvlar sepishib,  
Og'zimizga tegdi mevalar pishib.  
Hovlimizda bolalar yurar chopishib,  
Bahorim, kel, seni bag'rimga bosay.

Yomg'iringni yog'dirgin atrofni yuvsin,  
Virus degan shu yomon illatni quvsin.  
Qaldirg'och ayvonimga inini qursin,  
Bahorim, kel, seni bag'rimga bosay.

Oilamiz davrasida sumalak qilib,  
Ekinlar ekyapmiz yerlarni chopib.  
Tandirga issiq non, ko'k somsa yopib,  
Bahorim, kel, seni bag'rimga bosay.

O'zbekiston, senda bahor o'zgacha,  
Meva pishib bitmas hatto kuzgacha.  
Bag'ringda erkalanib o'g'il-qizgacha,  
Bahorim, kel, seni bag'rimga bosay.





GULBADAN ALIQULOVA  
8-sinf o'quvchisi



MUHAMMAD AZIZ QODIRJONOV  
8-sinf o'quvchisi

## YURT MADHI

Yuragim hapqirar sening yoningda,  
Vujudim titroqda, o'ylaydi har on.  
Temuriylar qoni bor mening qonimda,  
Sen mening onamsan, hur O'zbekiston!

Bir yonda Sayhun-u bir yonda Jayhun,  
Sening jamolingga dunyo ham maftun.  
Ayamaydi sendan quyosh ham taftin.  
Sen mening onamsan, hur O'zbekiston!

To'lin oy misoli yagonadirsan,  
Sening nuring bilan yashnar osmonim.  
Chamanlar ichida durdonadirsan,  
Sen mening onamsan, hur O'zbekiston!

Seni madh etishdan tolmaydi tilim,  
Sen bilan yorug'dir bu murg'ak qalbim,  
Seni asramoqlik farzandlik burchim,  
Sen mening onamsan, hur O'zbekiston!

## ERKA MUHAMMAD

Andijonlik erka Muhammad,  
Qanday bo'lgan bolaligida?  
Qizg'aldoqlar terganmi faqat,  
Mingtepaning tepaligida?..

Kim biladi o'sha paytda ham,  
Qirliklarda surgandir xayol.  
Mayin esgan saboga atab,  
Balki bitgan g'azal-u ash'or?!

Sho'xliklari me'daga tegib,  
Goh birovni qilgandir xafa.  
Onasidan dakki eshitib,  
Otasidan olgan martaba ...

Eh, ikkichi Muhammadjon-a,  
Arslon kabi shaylanib yotding.  
Ulg'ayishning bo'sag'asida,  
Ijod sari o'zingni otning!

Yillar o'tdi misoli shamol,  
Maqsadiga nihoyat yetdi.  
O'z yurtida topdi u kamol,  
Har misrada yurtin madh etdi!

Bitganlaring har bir satrida,  
Yashirinday tuyular bir sir.  
O'sha sirni menga aytgani,  
Bola bo'lib tushlarimga kir!



JASMINA KOMILOVA  
6-sinf o'quvchisi



## VATAN HIMOYACHILARI KUNIGA

Sen buyuk qahramon, sen buyuk shuhrat,  
Tinchlik humosisan, samodagi nur.  
Ezgulik elchisi, qat'iy bir jur'at,  
Faxrla hilpirar bayroq erkin, hur.

Sen bir oy kabisan, yulduzga chiroq,  
Iftixorsan dilda suyuk chin iqbol.  
Eltib hurlik tomon, zulmatdan yiroq,  
Sen-la ozodlig-u yorqin istiqlol.

Yengilmas tog'dursan, xalqingga suyanch,  
Erkinlik timsoli, botir pahlavon.  
Butun O'zbekiston bildirgan ishonch,  
Bayraming muborak, ey o'ktam o'g'lon!



## YOSHLAR

Tog'day ulug'veordir qalbidagi nur,  
Pok niyat, sof orzu, ezgulik erur.  
Ularning quvonchi olamdag'i hur,  
Qo'lni qo'lga bergen, yelkadosh yoshlar.

Olamga nur sochgan oftob kim erur,  
Orzular eshigin ochgan kim erur.  
Yer-ko'kni quvonchga solgan kim erur,  
Komillik eshigin ochmoqda yoshlar.

Quyoshdan nur olib, aytilar tilak,  
Halollik kuchiga to'lgan bu bilak.  
Quvonch-u, mehrga to'lgan pok yurak,  
Kelajak bugundan boshlanar yoshlar.





DILOROM TOSHKENBOYEVA  
11-sinf o'quvchisi



SHOHSANAM MADAZIMOVA  
11-sinf o'quvchisi



O'zbegimning o'tmishi buyuk,  
Buyuklikning haykali o'zbek!  
Ajdodlarim ilm sarboni,  
Renessans gultoji o'zbek.

Bugun men yosh istedoddirman-  
Ona xalqim umid, chirog'i,  
Ulug' Renessansga yetaklar  
Ibrat Domla ilm dargohi!

Qalbim to'la g'ayrat, shijoat,  
Bobomlarga izdosh bo'laman!  
O'zbekiston yuzi bo'lib men  
Bir kun albat Nobel olaman!

Fidoyi farzandmiz el-yurtimizga,  
Yuksalish sari tashlangan qadam.  
Ravnaq topamiz tengsiz jahonda,  
Yaratgan yo'limiz yoritar har dam!

## BAHORIM

Yellar esar asta silab yuzimni  
Yomg'ir ham shivalab yog'sa mayliga.  
Varrakdayin uchib, kezsin olamni,  
Mushtoqman bahorning bitta sayliga.

Nafas olaman-u, ajib bir tuyg'u  
Yuragimni chulg'ar negadir, bilmam.  
Shodon kulamanu, goh chekib qayg'u,  
Bahorim jilmayar menga ne qilsam?

Zorman bahoroyning tabassumiga,  
Gar kulsa yonida bo'lurman paydo.  
Meni maxv etgan ul go'zellarga,  
Xushbo'y iforiga bo'libman shaydo.

Bir bor qarashingga dunyoni beray,  
Unga atab she'r-u dostonlar bitay.  
Aytingiz, do'stlarim axir men netay,  
Bahorim jilmayar, ayting ne qilsam?

Bahorim jilmayar menga, ne qilsam?





MUSLIMA ERGASHALIYEVA  
11-sinf o'quvchisi



## INSON

Chaqaloq dunyoga kelishi bilan  
Jarangli yig'isi olamni tutar.  
Bu shirin go'dakning tug'ilishidan  
Qalblarga quvonch-u shodliklar bitar.

Ulg'ayib, hayotga qadam tashlaydi,  
Ezgu ishlarni ham qilar bir talay.  
Barchani yaxshilik tomon boshlaydi,  
Chin inson ishini qilar harqalay.

Umrni behuda o'tkazar ersa,  
Hayotin mazmuni bo'lgaydir sayoz.  
Inson degan nomni oqlamoq uchun,  
Umr berilgandir asli juda oz.

Savobga qo'limiz ursak-da har on,  
Yashar umrimizda ma'nolar to'lar.  
Kim umrin yaxshilik ila bezasa,  
Inson degan nomga sazovor bo'lar.



## BUYUK AJDODLARIM

Xalqim, buyuk erur tarixing,  
O'chmagay u qalblardan abad.  
Sen deb jonin fido etganlar,  
E'zozlanar bu yurtda albat.

G'anim uchun bir kaft tuprog'ing  
Qildirmayin oyoq osti, xor.  
Keng janggohda mag'rur bayrog'ing,  
Baland tutib jon berganlar bor.

Temur bobom, Jaloliddinlar  
Sen deya jon fido etganlar,  
Muqanna-yu Najmiddin Kubro  
Tuprog'ingni ko'zga surtganlar.

Yurtim deya ko'z tikkan Cho'lpon,  
Olislarda zor edi Usmon,  
Sening yoding ila yashagan  
Hindistonda shox Bobur omon.

Tinch kunlarga yetding-ku xalqim,  
Xurlik qushi sayrar boshingda.  
Farzandlaring mehrga to'yib,  
O'smoqdalar bu kun qoshingda.

Ko'z tegmasin buyuk elingga,  
Porlayversin osmonda quyosh.  
Kelajagi buyuk yurtimda,  
Shod-u xandon bo'lsin keksa-yosh.





SEVINCH HUSANBOYEVA  
10-sinf o'quvchisi

## BUYUK AJDODIM

Ibrat bobom barchaga  
Ibrat bo'lib ketdingiz.  
Jannatlar eshigiga  
Shubha yo'qdur, yetdingiz.

Sizni avval bilmasdik,  
Uzr aytamiz, bobo!  
Kechikkanroq tarixga  
Bugun qaytamiz, bobo!

Qancha mashaqqatlar bor,  
Umr hayotingizda.  
Ne-ne orzular ham bor,  
Bitgan bayotingizda.

Yetti tilni bilmoqlik  
O'zi bir katta zahmat.  
Shunday meros qoldirgan  
Bobojon, Sizga rahmat!

Kimlar Sizni ko'rolmay,  
Alamidan turolmay,  
Tuhmat toshlarin otgan,  
Katta gunohga botgan.

Bir amallab o'shanda  
Nomingiz yo'q qilishdi,  
Ammo vaqtlar o'tib kech  
Qadringizni biliшdi.

Sizning ishlaringizni  
Bizlar davom etamiz.  
Orzular qanotida  
Maqsadlarga yetamiz.

Hali Sizning nomingiz  
Barcha xalq tilga olar,  
Jahon minbarlarida  
Dillarga faxr solar.





## TARJIMALAR

AKRAMJONOVA DILSHODA  
10-sinf o'quvchisi



(Alisher Navoiydan)

Boshni ado ayla ato qoshig'a,  
Jismni qil sadqa ano boshig'a.  
Tun-kuningg'a aylagali nur fosh,  
Birisin oy angla, birisin quyosh.

Für deinen Vater dich zu opfern sei dein Glück,  
Das Leben hinzugeben für der Mutter Blick.  
Dir strahle Tag und Nacht hell ihrer Liebe schein,  
Die Eltern mögen Sonne dir und Mond stets sein.



MOHINUR ODIROVA  
9-sinf o'quvchisi



\*\*\*

(Alisher Navoiy)

Furqat sahari g'amg'a yo'liqturdi meni,  
Hijron kuni yuz balog'a topshurdi meni.  
G'am shomi o'lum xolig'a yetkurdi meni,  
Tong otguncha uyqusizlig' o'lturdi meni.

Сто тягот принесла мне разлука,  
Несчастьям передала меня разлука.  
До смерти довела меня она,  
До зари не давала спать мне разлука.

Parting took to sorrow me in the morning,  
To miseries handed me over in parted days.  
In twilight until the death brought me it  
And I had a restless night till the morning.

Scheiden führte zu Sorge mich am morgen,  
Zum Unheil gab über am getrennten Tag mich,  
Sorge brang zu Tode in der Dämmerung mich,  
Schlaflosigkeit tötete mich bis morgen.





MOHINA ISOQJONOVA  
9-sinf o'quvchisi

## UCHQUN

(Abdulla Oripov)

Goho xayol daryosida jim  
O'tkazaman tunlarni bedor.  
Ba'zan g'aliz jumla ustida  
Soatlab bosh qotirganim bor.

Shaloladek bo'lsa she'rlarim  
Yog'du sochsa misli alanga.  
Sidqidil-da qobil o'gildek  
Xizmat qilsa elga, Vatanga.

Hali bunga ko'p gap bor, hali  
Fikrlarim tarqoq, tuyg'usiz.  
Hali qancha tunlarni yana  
O'tkazishim kerak uyqusiz...

Achinmayman, sizga, o'ylarim,  
Achinmayman, sizga, uzun tun.  
Achinmayman, chunki otashga -  
Oq yo'l berar odatda uchqun!



## SPARK

Sometimes i spend the nights awake,  
In silent on the river of imagination.  
Sometimes on unnatural thought,  
I think them for hours.

My poems will like a flower,  
They shine looks like a beam.  
Like a loyal and capaple boy,  
Will serves the country, Motherland.

There is still time to talk about it,  
My thoughts are scattered and emotionless.  
How many of my nights,  
Should i spend sleepness.

I don't care about my feelings,  
I don't care about long nights.  
I don't care about flames,  
Usual give us right way a spark.





MUMTOZBEGIM USUBJONOVA  
9-sinf o'quvchisi



GULSHODA ABDULBOQIYEVA  
9-sinf o'quvchisi

## BAG'ISHLOV

Bobur-u Navoiy davomchisi siz,  
Siz uchun kuylaydi qo'limdagi soz.  
Noyob iste'dodlar egasisi- siz,  
Siz deb qalam oldim qo'limga, ustoz.

Shabnam shodasidek terilgan so'zlar,  
Milliy ruhga sadoqat, e'tiqod so'zlar.  
Mustaqillik tomon cho'zilgan qo'llar  
Adolat elchilarin so'zlarin qo'llar.

"Yillar armoni"dan qidirdim sizni,  
"Mitti yulduzlar"dan so'radmin asta.  
"Najot qal'asi"da ko'rdim nihoyat,  
"Ishonch ko'priklari" tomonsiz ustoz.

Bu yorug' olamda mehr-muhabbat  
Siz uchun, har qancha yod etishlar oz.  
Yagona Allohdan so'raymiz shafqat,  
Qalbim qo'ridasiz Abdulla ustoz.

## VATAN

Vatan, yuragimda tug'ilning qachon?  
Nafas olgandami, ko'z ochgan onim.  
Tanamda his etib ajib hayajon  
Yerga tekkandami ilk bor tovonim.

Tilimdan eng avval yangragan kalom,  
"Ona" so'zi bilan bo'ldingmi paydo?  
Tug'ilningmi menga qo'yilganda nom,  
Eshitganda Azon – muqaddas sado.

Poyoniga yetib go'daklik chog'i,  
Muhabbat aqlni olganda asir.  
Sevgi yaratgan deb butun dunyoni  
Ko'nglimga kirdingmi ishq ila birga?

Yurt cho'li, shuvoqlar yastangan hudud  
Sahroyi kibirning oldida jannat.  
Behisht nusxasidan go'yo bo'lgan but,  
O'zbekiston – yerdagi beqiyos san'at.



GULYORA TO'YCHIYEVA  
9-sinf o'quvchisi

## ONA JONIMGA

Qalbim siznikidek pok bo'lsin, ona,  
O'zingiz chin do'stim yorug' olamda.  
Siz-la baxtiyorman, sizsiz devona,  
Dunyom ichra bitta dunyomsiz, ona.

Yo'lingiz oqlagan iz bo'lay, ona,  
Sizdek latofatli qiz bo'lay, ona,  
Yo'limdan chiqmasin yomon begona,  
Ezgulik timsoli o'zingiz, ona.

Kulgingizdan dardim bo'ladi unut,  
Onajon, shuning- chun qilmangiz sukut.  
Sizdek mehribon zot yolg'iz dunyoda -  
Baxtimga doimo sog' bo'ling, ona.

Kunda quyoshimsiz, tunda oyimsiz,  
Gul bo'lsam, bog'imda sizsiz-bog'bonim,  
Ilhom qushim-bulut quchgan orzular  
Aslida Siz, ona- ilk ro'yobim.

Beshigim bezatgan qo'l izlaringiz,  
Bu qo'llar taftidan qolmam g'aflatda.  
Siz uchun yengilmam bu sinovlarga,  
Yonimda doimo bor bo'ling, ona!



## AYOL

Metin bardosh ila yashab kelgan zot,  
Minglab dovonlardan oshib o'tgan zot.  
Farzandlari uchun har damda tayyor,  
Sen go'zal bahorsan, muqaddas ayol.

Sening mehring ila toshga kirar jon,  
Sening qaynoq tafting ming dardga darmon,  
Qahring kelsa agar, titragay osmon,  
Dunyo latofati o'zingsan, ayol.

Kim bor ekan, sening mehring olmagan,  
Kimlar bor ekanki, qulluq qilmagan,  
Qay shoir bor ekan, bir she'r bitmagan?!

Sen abad muqaddas erursan, ayol.





DILOBAR MAHMUDOVA  
9-sinf o'quvchisi

## KAMTARLIK

(ErkinVohidov)

Garchi shuncha mag'rur tursa ham,  
Piyolaga egilar choynak.  
Shunday ekan, manmanlik nechun,  
Kibr-u havo nimaga kerak?

Kamtarin bo'l, hatto bir qadam  
O'tma g'urur ostonasidan.  
Piyolani inson shuning-chun  
O'par doim peshonasidan.

## MODESTY

Even though how proud teapot is  
It anyway bows to the cup  
So why there are need  
For the haughtiness and arrogance

Be modest, don't take even one step,  
To the threshold of pride.  
That's why the man always kiss  
From the forehead of the cup.



## KUZ TAROVATI

Uchib yurmoqdadir zarqanot qushcha,  
Tongdan kechga qadar esar shaboda,  
Turnalar tizilar ko'klarni ko'zlab,  
Parvoz etishadi moviy samoda

Alvon rangli gullar olamni bezar,  
Charchamas kuy-qo'shiq aytishdan ari,  
Yomg'ir tomchilari yog'ar tinmayin,  
Ko'nglim shodlanadi yog'gani sari

Kuz... mening hislarim uyg'otdi yana  
Go'zallik, zavq-u shavq bari mujassam,  
Vujudim tubida to'kilgan barglar,  
Sarg'ish tusga kirib o'zgardi shu dam.





SANJARBEK IKROMOV  
11-sinf o'quvchisi

## SEN BAHORNI SOG'INMADINGMU?

(Yo'qotgan dunyosini izlagan shoir haqida esse)

Parchagina bulut, Cheksiz osmon,  
Adir ortidagi yolg'iz oyoq yo'l.  
Barcha tashvishlarni unutib, shodon  
Qayta olsam edi qoshingga butkul.  
(Abdulla Oripov)

Qadim o'tgan zamonlarda Qo'ng'irtovda bahor ajib bir tarovat bilan boshlanardi. Ba'zi yerlar yomg'ir tufayli qatqaloqqa aylanadi. Uzoqlardagi baland-past tepaliklar, yam-yashil bo'lib yasharayotgan adirlar aro mol-qo'y o'tlab yuradi. Tabiatga ham tushunish qiyin. Goh guldurak solib chaqmoq chaqadi, biroz o'tgach, quyosh yelkangizni qizdira boshlaydi. Kim bilsin, suvidishlarning shiqillashi ichra qatqaloqlardan ketib borarkan, shoir bola ko'zi bilan o'z taqdirini ham shunday keskin burilishlarga boy, goh zafarli, goh armonlari tasavvur etganmikan?

Eshak bir me'yorda qadam tashlab boradi. Goh-goh yigitcha jonivorning yelkasiga xalacho'pda niqtab qo'yadi. Diqqatini esa bahoriy kayfiyat tortgandi. Chunki aynan shu fasldagina Qo'ng'irtovga turnalar uchib kelardi. Qo'ng'irtov bahorda ajib, o'n sakkiz yashar qizday yashnab turganigamikan yoki odam atalmish kasallikning bu atrofda kamligi uchunmi noyob jonzotlar ko'p bo'lardi. Turnalar bemalol suruvlar, podalar orasiga tushib kelar, qurt-qumursqa, fasliy xushnudlik tuhfa etadigan o't-o'lanlar, boringki, rizq-nasibasini terishardi-da. Aksar hollarda kiyiklarga duch kelish mumkin. Ular aprelning o'rtalarida, bel bo'yi o'tlar ichidan birdan sakrab chiqishi mumkin. Abdullaning ham necha marta yo'llini kesib o'tgan ekanlar, qiziq...

Neko'zda suv taqchil edi. Qazilgan quduqlardan sho'r suv chiqardi. Bu suvlardan hayvonlar ichib yuraveradi-yu, ammo odamlar suv uchun juda uzoqqa borishlari (bola nazarida, aslida to'rt chaqirim naridagi Eshonariqdan) kerak edi.

Ko'p hollarda Orif aka bu ish uchun o'zining erkatoyni – Abdullani jo'natardi. Eshakka to'rtta suvidishni har yoniga ikkitadan qilib bog'lab, ustiga bolani o'tqazib qo'yardi. Arqonlar bilan mahkamlangan suvidishlar yo'l bo'yi shiqqilab, bir-biriga urilib bolaning zavqini keltirardi. Aslida, idishlar har urilganda o'rtada o'tirgan bolaning oyog'iga tegib, og'ritar edi. O'z tili bilan aytganda, juda olisdan suv olib kelardi. Bu safarlar umr yo'llari kabi shukuhli va uzoq edi.

Olis manzil tomon ketarkan, bola-da, radio yo'q, kitob o'qiy olmaydi, zerikib ketardi va nima qilishni bilmay oxiri bir o'yin topgandi. So'zlarni bir-biriga urishtirardi... Buni akasidan o'rgangan. Filologiyada o'qiydigan kichik akasi she'r mashq qilib, tuman gazetasiga yuborar, ammo javob ko'ngildagiday bo'lmasdi. Shunda Abdulla quvlik bilan akasidan ilgari xatni o'qib olar va qanday javob keldi, deb tegish qilardi akasiga... Xullas, shu akasi so'zlarni qanday chog'ishtirishni o'rgatgandi. Masalan, "Terak" deysan va shunga ohangdosh so'z qidirasan, deylik, "kerak". Qara, qanday ajoyib. Haqiqatan, qiziq edi. Abdullaga o'yin shunchalar yoqdiki, beixtiyor xayoliga deyarli har bir so'zga ohangdosh so'zlar quyilib kela boshladi.. Endi oldinlari oddiygina bo'lib tuyilgan so'zlar qandaydir sehrli joziba kashf etar, g'alati bir ohangiga ega edi. Shuni tushungan ilk kezlaridanoq birinchi she'rlarini yoza boshladi.

O'zida tushunib bo'lmas mayl sezardi yozishga. "Yozish – bu ehtiyoj"deya o'ylardi u poyezdda "qaydasan, Toshkent", deya ketayotgan chog'da. Rost-da, ba'zilar ijod – bu ko'ngil mayli, xuddiki xobbiga o'xshagan bir nimarsa, yozging kelganda yozasan, bo'lmasa yo'q, deyishadi. Aksincha, she'r – bu uningcha, ehtiyoj. Sening yozishing, bu yeb-ichishing, yo uxlashing kabi zaruriy talabdir. U kerak. Yozishdan qutulish mumkinmas. O'zidan qiyos, otasi Orif bobo qancha qarshilik qildi, o'qishga yubormayman, deb oyoq tirab turib oldi. Chunki katta o'g'illari Buxoro, Toshkentda universitetlarda o'qir, Abdulla esa otasining o'g'li bo'lib qolishi kerak edi. Ammo poytaxtga borish akalaridan ham ko'ra Abdulla uchun zarur edi. Chunki, ko'ngil ehtiyoji, yuzaga chiqishini kutayotgan iste'dod uchun kerak edi. Otasi esa Neko'zda qolib, bog'-rog' yaratishga, bir umr tabiat, daraxtlar ichra yashab, shu hayotga o'z umrini baxshida qilishini xohlardi.

Darvoqe, endi qishloq ahlining suv muammosi hal bo'lgan, kattagina bir anhor bilan suv tortib kelishgandi. Neko'zga har kuni bir dunyo suv kelardi! Albatta, mirishkor insonlar Xudoning bunday saxovatidan unumli foydalanishga harakat qilishardi. Jumladan, Orif bobo ham. U kattagina bog' yaratishni, turli xil mevalardan ko'chat olib kelib azim daraxtga aylantirishdek ulug' niyatni orzu qilardi. Buning uchun bolalaridan biri yordamchi bo'lib qolishi kerak edi. Abdulla esa ko'ngliga qarshi borolmadı. Bunday qilsa, orzulariga qarshi borsa, bir umr o'zini kechira olmasligini bilardi. Shuning uchun ham, ming to'qqiz yuz ellik sakkizinch yilda u Toshkent tomon yo'lga tushdi. Qo'lda "Oltin medal". U hammasini to'g'ri qilayotganiga, hammasi yaxshi bo'lishiga bir jihatdan imoni komil edi. Ammo biroz o'tgach, Qo'ng'irtov atroflariga harbiylar ko'chib kelishdi. Ular ajib tabiatni, jonivorlarning boshiga yetib, turli qurollarni sinay boshladilar.

Oldinlari chamanzor bo'lib, bolani o'z bag'rida ulg'aytirgan tepaliklarda hozirda tank qoldiqlari, o'q parchalari sochlib yotar, bolakay kirishga ham qo'rqaqidan changalzorlar qaqrab yotgan cho'lga aylangandi. Endi Qo'ng'irtov oldingidek bahor kelganda yashnamas, hammasiga loqaydlarcha bezrayib turaverardi. U o'z sirini, iffatini yo'qotgandi...

Jonivorlar taqdiri ham ayanch kechdi. Bunga qisman Abdullaning o'zi ham guvoh bo'ldi. Byurokratik tizimdan charchagan asablarni yozmoq uchun turli raislar Qo'ng'irtovga kelib, ov qiladigan odat chiqarishdi. Umrida miltiq, mashina ko'rmagan kiyiklar qocholmay, qo'rquvdan dag'-dag' qaltirab, bir joyda turib qolishardi. Shunda ularni tutsa ham, otsa ham bo'lardi. Bir kecha naq o'n ikkitasining boshiga yetishdi. Va faqat bittasinigina yeyishdi!

Shunday qilib, tabiatning ajib ne'mati inson qo'li ostida halok bo'ldi. Endi shoir uchun turnalar, kiyiklar, eshakda to'rt chaqirim nariga suvg'a borish va Qo'ng'irtov armonga aylangandi. U hayot yo'qlikka yuz tutgandi. Shoirning esa shuhrati ortib borardi. Yo'qotgan, ayrilgan tuyg'u va xotiralari haqidagi she'rlari qo'lma-qo'l o'qilardi... Ammo Abdullaning o'ziga shuhratdan ko'ra Bahor kerak edi! Qalbda ochiladigan, so'nmaydigan, yakson bo'lmaydigan, umr yo'llaringda hamroh bo'ladigan Bahor kerak edi! Bahorni izlar edi shoir...



SARVINOZ OLIMJONOVA  
11-sinf o'quvchisi

## MENING BIRINCHI ASARIM

Qanchadan beri qishloqqa kelmagan edim. Oila a'zolarimni, dugonalarimni ko'rib juda xursand bo'ldim. Bir necha yil ko'rmagan ona qishlog'imning diydoriga to'yish men uchun baxt edi. Ayni bahor, lolaqizgaldoqlar ochilgan. Bolaligimda lola terishni yaxshi ko'rardim. Shu sabab qirga chiqdim. Chiroyli gullardan gulchambar yasayotgan paytim bir yigit yonimga keldi. U mening do'stim edi. Juda xursand bo'lib ketdim, uni rosa ko'p eslagandim. Salomlashdim. U esa qo'lidagi kitobni zarda bilan qo'limga tutqazdi. Men nima bo'layotganini tushunmas edim.

– Esingdami, bir necha yil avval menga bиринчи kitobingni sovg'a qilganding,  
– deya gap boshladi u. – Tilak ham yozganding, “Undan meni toping” deb. Men bu kitobni ko'p marotaba o'qib chiqdim. Ammo seni topolmadim. Chunki bu kitobdagi qiz meni hech qachon tashlab ketmagan bo'lardi. Xullas... Xayr, baxtli bo'l! Omadingni bersin.

U shunday dedi-yu, ketib qoldi. Men nima qilishimni bilmasdim. Ancha yillar bilganing, xayolan birga bo'lganining inson birdan tashlab ketsa... Og'ir botar ekan.

“Nahotki u kitobni o'qib, uning o'ziga bag'ishlanganligini bilmadi? Mening birinchi asarim unga atalganini anglamadimikin? Axir men – u, u – men emasmidik?”

Ko'z yoshlaramni artdim-da, shahar tomon ketdim. Ikkinci asarimni yozish uchun.

“Balkim, shu safar kitobimdan rostdan ham meni toparsan?..”





NARGIZA BOTIROVA  
11-sinf o'quvchisi



MUHAMMADJON HAYDARALIYEV  
11-sinf o'quvchisi

### SENGA AYTOLMAGAN SO'ZIM...

Kuchli shamol ta'sirida devorga urilgan deraza shovqini xayolimni parchalab, tokchada turgan bir uyum qog'ozni gilam ustiga yoyib yubordi.

– Erta bahorning tabiatiga g'atalida, – deya oyim oynani qattiq berkitdi va sochilgan varaqlarni yig'ib, kitoblar yoniga qo'ydi.

Tashqariga qaradim. Simyog'ochlardi lampalar nuri atrofida shamoldan ko'kka ko'tarilgan oppoq chang aylanardi. Arig'imiz bo'yiga ekilgan olmaning nimpushti gulbarglari esa to'xtab qolgan suv yuzida g'ujanak bolib olib, goh u tomon, goh bu tomon tebranardi. Uning ekilganiga ko'p bo'lgani yo'q. Bu yil u birinchi marta gulladi. Gullaganda ham shunday gulladiki, ko'rganlar ko'z uzolmaydi. Hozir esa... o'sha pushti gulbarglarni hadya etgan zamin yana o'ziga qaytarib olmoqda. Niholda endigina barq urayotgan besh-o'nta yaproqning ingragan sasi qulog'imga chalinganday bo'ladi.

Behos qalbim ularning nolasiga aks-sado berdi:

"Bugun sensiz o'tgan kunning o'n birinchisi. Dilimdan halovat ketganining o'n birinchi tuni. Esingdami? Juda sofdir va sodda yigit eding... Ko'ngli zarracha g'uborsiz senday insonni hali uchratmadim. Yodingdami, ming umid ila hadya etgan sovg'alaring "taqdiri"? Ariqqa otilgan atirgullar qismati... Mag'rurligim tutib seni ranjitgan kunlarni o'ylasam, qalbim ming pora-pora bo'lib ketadi. Shu kunlarda bir narsani qattiq anglab yetdim: inson ayriliq azobini totgandagina o'zgalarning muhabbatini qadrini tushunib yetarkan."

Negadir yuragim hovliqar, vujudimga sig'may, tuyg'ularim to'lib-toshardi. Shunda najot izlab, falakka yuzlanaman: "Balki hozir sen ham menga o'sha yerdan qarab turgandirsan... Bugun senga hech ayta olmagan so'zimni aytmoqchiman. Meni kechir..."

### BOBUR DARDI

Afg'on kechib, o'tib keldim Hind soriga,  
Bir malham yo'q xasta dilning ozoriga,  
O'lsam qo'ying Mir Alisher mozoriga,  
Majruh ko'nglim to'larmidi shunda manim,  
Sezilmasmi Navoiyni ko'rmaganim?!

Bunda shohman, qayga cho'zsam, qo'lim yetar,  
Xavotirsiz yurmoq uchun yo'lim yetar,  
Davlatimda o'z daryo-yu cho'lim yetar,  
Bir sababi yuragimning to'lmaganin –  
So'z sultonni Navoiyni ko'rmaganim.

Bu yerkarga kelib bo'ldim Mirzo Bobur,  
Dilning dardi hech tuzalmas bir vabodir,  
Shohga nelar bo'ldi, deya el xavotir,  
Yurt sog'inchi qiynar meni "Oh Vatanim!"  
Ko'proq ezar Navoiyni ko'rmaganim...



SEVARA JAMOLDINOVA  
11-sinf o'quvchisi



### SHIRINGA HAVAS

She'r yozdim muhabbat o'tdi tog'lardan,  
Hijronlar hayqirdi yolg'onchi bo'lib.  
Va sirlar ko'ksiga otildi dunyo,  
Farhodlar ko'nglimni olmoqchi bo'lib.

Tun... tushlar... izg'irin... muhabbat yolg'iz,  
Asrlar etagin tutmoqda hayot.  
Tug'ildi dunyo deb besh asr oldin,  
Kurranı larzaga keltirgan bayot.

Ufqlar ko'zlarga bermaydi uyqu,  
Shirindek tabassum kerakmidi yo?  
Shoirdek pok ko'ngil bo'lishim uchun,  
Menga Navoiydan o'qib ber, dunyo.

Ko'klardan porlaydi go'yo bir olam,  
Ilhomlar yurakka yetkazib berdi.  
Ey hayot, menga ham "Xamsa"dan joy ber,  
Bugun Shirin bo'lib yashagim keldi.



GULZODA O'RINBOYEVA  
11-sinf o'quvchisi



### SO'NGGI SO'Z... "QARO KO'ZIM..."

(Navoiydan)

Qaro ko'zim, bugun keldi haqiqatim,  
Bitdi endi nohaqlikning jabr-u zulmi.  
Qayga bordim, qaydan kelgum, o'zim bilgum,  
Yuragimni bir chetini yerga ko'mib.

Qaro ko'zim, shumi oliy ishqning ahli,  
Muhabbatga chorlaguvchi siyratimni.  
Aylanaman, gar aylansa yer-u zamin,  
Kiprigimdan chizib olib suratingni.

Nega endi sevolmaymiz ko'zsiz, so'zsiz?  
Haq amrini saqlab yurak qiblasida.  
Qaro ko'zim, joy beraman mahshar kuni  
Ko'zlarimning eng birinchi qit'asidan.

Qaro ko'zim, so'nggi so'zim ko'zimdasan...





MUATTAR MAMATKARIMOVA  
11-sinf o'quvchisi

### ESINGIZDAMI, DADA?

Keng dala, etagi osmonga tutash,  
Siz ketmon chopasiz, choy damlash menga.  
Ehtimol, bir umr topmasam kerak,  
Baxtga qorishilgan shu damlar tengin.

Qanday sabab bilan, yodimda yo'q-ku,  
Radio qulog'ini burayman...titroq...  
Biz ismini bilmas notanish hofiz  
“O'zbegim” qo'shig'in aytar ezginroq.

Faqat shundagina sukutda dala,  
Hatto men-da jimman, hech tinchimas qiz.  
Yaxshi anglaganman: dada, ketmonga  
Faqat shundagina o'ychan boqqansiz.

Ko'ngilga tutashgan qo'shiq tinmaydi,  
Bir talay alloma ismini aytib.  
Sel bo'lib tinglaysiz “O'zbegim”ni siz...  
Bu miskin holatni ko'rmadim qaytib.

Asl she'r ko'ngilga quyilib kirar,  
Ko'tara olsak bas uning yukini.  
Qachonki dunyolar kashf etiladi,  
O'zbek anglaganda o'zbekligini.



ISMOILJON ODILOV  
11-sinf o'quvchisi

### “YAPROQ” HAQIDA BALLADA

Ilk bora ko'rgani boychechak bo'ldi,  
Tinglagani esa uning ertagi.  
U hayotni faqat bahor deb bildi,  
Ammo ertak edi yuragidagi.

Shodon qo'shiq aytar yonida gullar,  
Dunyosida yo'qday baxtliroq undan.  
Ertasiga havo aynishi bilan,  
Asar ham qolmadi birorta guldan.

U ilk bor ayriliq ta'mini tottdi,  
Daraxtdan yiqildi mevalar bir-bir.  
U yig'lab alanglar turfa tomonga,  
Ertakning bu joyi yo'q edi axir.

Ko'zini chang bosgan, yuzi shalabbo,  
Darddan vujud, joni sarg'ayar g'amgin.  
Qichqirar do'stlari yotgan yer tomon,  
Boychechak, qaydasan yolg'onchi kampir?

Nahot sig'dirmasa shu qari daraxt,  
Mitti yaproqlarning mitti jussasin.  
Uning ertagida kuzdan yo'q nishon,  
Uning ertagida hamma yashasin.

Yolg'on emas edi boychechak so'zi,  
Qari ertakchining aytganlari chin.  
U yana qaytadi, qaytganda bahor,  
Ertakning davomin eshitmoq uchun!





AHRORJON TO'XTASNOV  
11-o'quvchisi

## G'AZAL

Senga Haq gul yuz beribdi, ko'z beribdi juft charos,  
Oy kabi bo'l, men boqay sen burmagin yuz, iltimos.

Sham ipin atrofida mum berkitib turgan kabi,  
Bosh-oyoqki, pok taningni berkitib tursin libos.

Roziman, jallod ko'zing qurboni bo'lsam, yoki sen,  
Kipriging ustun qilib, soching ila bo'ynimdan os.

Jon berib sevdim seni, sen shunchaki ko'nglingni ber,  
Men kabi devona bo'lma, men kabi sevgin xolos.

Yo ko'ngil ber ishq aro qadringni bilgan bandaga,  
Yo olib jonimni butkul sevgidan etgin xalos.

Ishq dema Sayyodi Dil, bas, arz etishni istama,  
Yo'q sening haqqing axir hech bildirishga e'tiroz.



## XAYOL

Ey xayol!  
Behayo.  
Charchadim!  
Ortiq yetaklama gunohga.  
Qoyib yubor nomahram qo'lni.  
Sevmaganga talpinma,  
Sevgandan qochma.  
Qayt!  
Men istamagan joyga borma.  
Buncha erkinlikka intilasan?!  
Uyalyapman, seni birov ko'rib qolishidan.  
Nahotki sen bilan yurish gunoh bolmasa?!  
Agar gunoh bo'lsa-chi?  
...  
Sen do'zaxisan!  
Jannatga sensiz kiraman.  
...  
Ko'rib kel jannatni.  
...  
Ko'roldingmi?  
...  
Erkinlikka intilganing bilan  
Chiqib ketolmadingmi  
Qobig'imdan?  
Ey, zanjirband!  
Ortiq yetaklama  
Gunohga.  
Charchadim!  
Behayo!  
Eh, xayol!





SHAHLO TEMIROVA  
11-sinf o'quvchisi



### MAJNUNGA MAK TABU...

Navoiydan ochilsa gar so'z,  
Yodga tushar yana o'sha kun.  
Hech bo'lmasa bir kechaga kel,  
Dardlashgani men bilan, Majnun.

Qoqinasan ishq yo'llarida,  
Bir yelka yo'q bermoqqa taskin.  
Qoqinasan nish yo'llarida,  
Bir lahza ham ololmading tin.

Tushunaman, ammo endi kech,  
Bir senga ham emasdir oson.  
O'qiladi bu asar har kech  
Va har kuni sen berasan jon.



SHAHRIZODA BOTIROVA  
11-sinf o'quvchisi



### ILTIJO

Ochiq darcha, yonida bulbul,  
Xonish aylar navosi sokin.  
Tinmay o'qir yoddan bir g'azal,  
So'ng qalbimga ko'chadi yolqin.

Yurak tinglar sel bo'lib uni,  
Bir notada uradi: duk-duk.  
Qancha jonzot so'zin tingladim,  
Aning kabi ko'rmaidik yetuk.

Men mubtalo shaydo bir oshiq,  
Yarim ko'nglim to'lgaydir shunda.  
Rabbim, sendan bir iltijoyim:  
Navoiyni ko'ray tushimda.





## NAVOIY ISHQIDA

Tangrim demay seni desam,  
Ne deb javob bergum Haqqa.  
Kecholmayman, ketolmayman  
Qaro ko'zum, ko'zing haqqi.

Qochar bo'lsam to'rt tomon sen,  
Boshqa yo'lni topganim yo'q.  
Ayriliqni chaqirdim, lek  
Ishq eshigin yopganim yo'q.

Ko'p adashdim, chigal ekan  
Yuragingning ko'chalari.  
Keng ko'ksingda endi kimdir  
Ayriliqdan kuy chaladi.

Ishq bog'idan qochib ketdim,  
Tutib keldi nigohlarin.  
Yetar endi desam, zaqqum  
Yutib keldi nigohlarin.

Chidolmadim sendan ko'ra  
Ishqim kuchli ekan Haqqa.  
Kechib ketib yana qaytdim  
Qaro ko'zim, ko'zing haqqi...



HOJIMUROD QO'ZIBOYEV,  
11-sinf o'quvchisi



Tegirmonda taqdiri yanchilgan unday bo'ldim,  
Qamish edim, ko'zlarim ochilganda nay bo'ldim.

Kelgan toshlarmidi-yey, keltirgan bag'ritoshlar,  
Sevgisi quroq-quroq, sabri butunday bo'ldim.

Mashshoqlari avjida, soqiylari mast-alast,  
Mayi Qaysning ustiga to'kilgan xumday bo'ldim.

Mehmon bo'ldim, xush ko'rdi, toleyimni xush ko'rdim,  
Qissaning xulosasi: hurmati zumday bo'ldim.

Sichqonlari sultonlik qilayotgan saroyda,  
O'zi o'zini suyab turgan ustunday bo'ldim.





## KENJA BOTIR QISSASI

(Samandar akamga)

Dadam aytar edi: "Ukangni urma!"  
 "Nima joni bor!?" – deb ayardi onam.  
 Men-chi shodliklarga to'lib ulgurmay,  
 Yolg'izlikda tutib olardi akam.

Ikki yosh farq edi bizning orada,  
 Mayda janjallarni ulkan sanadik.  
 Ergashib yurishim yoqmasligidan,  
 Bir mакtabga ikki yo'ldan qatnadik.

Axir, mumkin edi shu payt, shu mahal,  
 Yaxshi xotiraga to'lgan she'r yozish.  
 Axir, mumkin edi hammadan avval,  
 Tavallud kunida tabrik yetkazish.

Odamoviligidim haddan ziyoda,  
 Yolg'iz tirishardim har qanday ishga.  
 To'qqiz yil urindim sinfdoshlarga  
 Akamni akam deb ishontirishga.

Jafokash o'zimman, jafokor o'zim.  
 Ko'nglin parchalashga qo'shilgan hissam.  
 Xotiralar haqqi, do'pposlar edim,  
 Men kabi bag'ritosh ukani ko'rsam.

Ortida turarkan tog'lari suyab,  
 Ukalari mag'rur tutsin qaddini!  
 Ollohim, avaylab asray akamning  
 OQIBAT atalgan omonatini!

\*\*\*\*\*

Qay dard-la qorilgan ekan bu loyim?  
 Ohlardan keyin oq bosdi dilimni.  
 Sen kirib kelgunga qadar tushimga,  
 Xudo bildirmadi yolg'izligimni.

Bir toshlar yog'ildi – jonning huzuri,  
 Bardoshlar yog'ildi jismimga manim.  
 Qanotimdan kechmoq uchun arziydi,  
 Boshingga baxt qushi bo'lib qo'nganim!

Ne ravо ko'rilsа, rizo bo'lganman,  
 Sensiz shodliklarga aylama duchor.  
 Mehringsiz uyg'ongan tonglarda bir kun,  
 Dilning o'lib qolish ehtimoli bor.

Kafting chizig'idan axtarma meni,  
 Topsang, yo'qotishing mumkin daf'atan.  
 Meni duolaring ostiga yashir,  
 Qiynalib ketdim-ku vatansizlikdan.

Ishqi ohim mening, gumrohim mening,  
 Anglamoq baxtidan boshqasi shartmas.  
 Qancha yashashimni Xudo biladi,  
 Qanday yashashimni tushuntirsang bas!





MUXLISA ABDULLAJONOVA  
11-sinf o'quvchisi



\*\*\*

Asir bo'ldim, tutqun bo'ldim, qul bo'ldim,  
Ketmoqdaman neni izlab, yo rabbim.  
Sahro bo'ldim, tuproq bo'ldim, qum bo'ldim,  
Muhammadga oshiq bo'ldi bu qalbim.

Ishq atalmish uzun so'qmoq yo'ldaman,  
Sevgi otashida qovrildim, yondim.  
Kipriklar visoli tugagan chog'da,  
Rasul Akram yodi birla uyg'ondim.

Qaylargadir ketdim bugun qarorsiz,  
Aravaga ortib jism-u jonimni.  
Olloh, sendan yig'lab so'rар bir quling,  
Faqat butun saqlab ber iymonimni.



MAHLIYO MUHAMMADJONOVA  
11-sinf o'quvchisi



\*\*\*

Dunyo ajinlari tarqalar asta,  
Dunyo kiya boshlar yashil libosin.  
Sening borlig'ingga ruhim payvasta,  
Axir sen chertyapsan ko'ngilning sozin.

Menga ilhom berar kapalaklarning,  
Gullarga maqtanib o'ynagan raqsi.  
Meni qamrab olar bahoriy hislar,  
Qalbim gullab ketar yaxshidan yaxshi!

Menga tinchlik bermas qog'oz va qalam,  
Har bitta yaproqlar tortar e'tibor.  
Mehrning ziyosi sochguvchi olam,  
Axir men bahorman, axir men bahor!





NOZIMA MAMATQULOVA  
10-sinf o'quvchisi



SARVINOZ TURSUNOVA  
10-sinf o'quvchisi

### ONA

Men o'zimcha haqman, o'zimcha rostgo'y,  
Faqat o'zim uchun degan tushuncha.  
Yodimdan chiqdingiz, yodingizdaman...  
Qancha yosh to'kdingiz men anglaguncha.

Dunyolar ichidan dunyo izladim,  
O'zimni topdimmi sizni unutib.  
Yana qaytmoqdaman yurgan yo'limdan,  
Umringiz o'tdimi yo'limni kutib.

O'tdi ko'rganlarim – o'n olti bahor,  
Yana gulga eltdi oliy hakam vaqt.  
Kun chiqar quyosh va mehr taftidan,  
Endi ko'nglimizda gullayotir baxt!

Xayolim surating chizdi har sahar,  
Qalb o'rik guliga ko'milib ketdi.  
Har dam yonginamda bo'lmaiding, meni  
Shirin xotiralar yoningga eltdi.

Hijron torlarini chaldi fasllar,  
Sochimga oq tushdi, yuzimga ajin.  
Bizni ayirmadi zalvorli yillar,  
Qalbim hamon sening qalbingga yaqin.

Necha yil umrimnisovurdi sog'inch,  
Ishqingning quchoqlab ovundim, erkam.  
Yillar meni sendan ayirilmadi,  
Men hayot ekanman, tiriksan sen ham.



### LAYLI TILIDAN

Dunyoyimiz bo'm-bo'sh, olam ishqtalab,  
Qalbim hissizlikda, yosh to'la ko'zim.  
Ruhimning yarimi sahro bag'rida,  
G'amlarga ovlatdim o'zimni o'zim.

Qismatim ko'zingning rangidak qora,  
Qirqta kokilimdek ayro baxtimiz.  
Cheksiz oshiqlarning pok havasidek,  
Taqdiri qo'shilmay qolgan baxtmi biz?!

Armonli, azobli manglayimizga,  
Muhabbatga qulash baxti bitilgan.  
Ishqdan yaralganmiz, foniydan kechib,  
Abadiy visolga mahkum etilgan.



## SHAHAR...

Yoshsan kipriklarim ko'tarolmagan,  
Eng xunuk go'zallik ikkinchi isming.  
Meni adirlardan yulib olgan sen!  
Beo'xshov shovqinlar ajralmas qisming.

Senda tog'lar kabi tiniq yurak yo'q,  
Hayqirsam, o'zimga qaytmaydi so'zim.  
Nigohlarim unsiz qolaverar jim,  
Ko'zlaringga urib olganda ko'zim.

Xo'rланib dardini ichga yutar qalb,  
Nafratga aylanar yana bir tuyg'u.  
Men seni hech qachon qolmayman sevib, Shahar...  
Ko'zlarimga kirgan bir siqim qayg'u.

## MEN O'SHAMAN...

Men o'shaman bahorrang kuzak,  
Angolmagan oltinchi sezging.  
O'zgarmaysan ming yil o'tsa ham,  
Ko'zlarining rangidek sevgi.

Ruhi qaysar, ruhi ezgin qiz,  
Aytolmadim, borolmadim ham.  
Yoding bilan qiymalanar vaqt,  
Qarog'imga yoshlar serqadam.

Ruhi qaysar, ruhi ezginman,  
Nigohimda qaroshing tugun.  
Men hali ham bahorrang kuzman,  
Senga keldim gullamoq uchun...



DIYORA BADIRDINOVA  
10-sinf o'quvchisi



## NAVOIY OLAMI

Bir olam yaraldi osmondek keng va  
Koinotdan katta, yulduzlar bisyor.  
Oshiqlari ajib, ko'zlarida ishq,  
Yumushi hijron-u, so'zlari izhor.

Izlashar yakunni, kezib olamni,  
Laylilar chiqadi, Majnunlari yo'q.  
Chunki ishq dunyosi oshiqlari-chun,  
Visol begonadir, firoq erur cho'g'.

Ilohiy ishqlarga yo'g'rilgan dunyo,  
So'z qudrati ila go'zal bu lahza.  
Uning muallifi Navoiy erur,  
Ochun nomi esa atalur "Xamsa".





SARVINOZ IKROMOVA  
10-sinf o'quvchisi



### MURABBO

Qo'shnisining uyiga,  
Kirib keldi Sobirjon:  
"Murabbo berib turing,  
Oyim ahvoli yomon.  
Uch kundirki oyimning  
Tomog'i qattiq og'rir.  
Dori ichib ko'rdilar,  
Tuzalmadi, baribir".  
"Idish olib chiqmabsan,  
U bo'lmasa netaman?"  
"Ovvora bo'l mang, xola,  
Yeyman-u, so'ng ketaman".



RUSTAMJON HALIMOV  
10-sinf o'quvchisi



### NAVOIYNI O'QIB

Muhabbat bosh egsa o'tkinch riyoga,  
Qayda qoldi ishqqa belangan kunlar?  
Kavushin yo'qotgan foni y dunyoga  
Yana kelarmikin Layli, Majnunlar?

Adolat urug'in olamga sochib,  
Ilm-ma'rifatga saylanib rahbar.  
Millionlab nomard kimsalar qolib,  
Qayta tug'ilarmi bitta Iskandar?!

Tog'lar ham yo'nildi oshiq shashtidan,  
Mavjlangan yuraklar bilmadi tinim.  
Ko'z yoshta cho'milgan sahifalarda  
Kitobda qoldimi Farhod va Shirin?

Navoiy yashaydi yuragimizda!





SHAHNOZA ANVARJONOVA  
10-sinf o'quvchisi



ABDUMALIK XURSANALIYEV  
10-sinf o'quvchisi

\*\*\*

His qilmasdan qish zavqini,  
Muhabbatdan umid uzdik.  
Qor eridi bu zamindan,  
Sening qalbing hamon muzlik...

Tushunsang-chi, sevgi axir  
Qorbo'ronday o'yin emas.  
Balki kechish imkonsizdir,  
Sevish axir qiyin emas.

Qordek loyga qorishadi  
Sensizlikdan tuyg'ularim.  
Muz sathida kichik yoriq  
Ulkanlashar borgan sari...

Lekin baxtli kunni yurak  
Sezar ko'klamning sasidan.  
Sen abadiy qolib ketding  
Oppoq qorlar nafasida...

## RASSOM

Sinfimizdagi rassom,  
Siz bilgan o'sha Akbar.  
Shu rassomlik uchun u,  
Jazo olar har safar.

O'ylamaydi Akbarjon,  
Rassomlikning kasrini.  
Darslar tugamay chizar,  
Quyonvoyning rasmini.

## FARHODGA MAK TABU

Ko'rishmoqlik men uchun ro'yo,  
Olislarga ketding yiroqlab.  
Charchadingmi, charchatdimmi yo  
Sevasanmi deya so'roqlab?!

Tog'-u toshdan qidirib chiqdim,  
Topa olmay sening daraging.  
Yuragimni anordek siqdim,  
Shu holimga bir bor qaragin!

Yo'llaringga termulgan ko'zlar,  
Ko'rgan bo'ldi bir siqim tuproq.  
Ko'z yosh to'kdum... o'shal so'qmoqdan  
Unib chiqdi lolaqizg'aldoq.

Yo shamolga aylanib qolding,  
Ko'kka chiqding yoki bo'lib oy.  
Bunyod etgan ariqlaringdan  
Balki oqding bo'lib sokin soy.

Gar oy bo'lsang, Quyoshman deya  
Intilibman sen tomon yana.  
Uchrasharmiz degandim ko'kda  
Borar yo'lni unutibman-a...

Ko'rishmoqlik men uchun bir baxt...





ODINAXON XALILOVA  
10-sinf o'quvchisi

## NOTANISH QIZ MAK TABI

... Moviy dengiz, musaffo osmon, sohil bo'yidagi shinam uychamda pianino chalib o'tiribman. Eshik taqillaydi. Asta o'rnimdan turaman, ohista yurib xonani kesib o'taman va yuragimda o'zgacha bir his ila eshik tutqichini ushlab... Doimgidek shu joyiga kelgan qaysar soatimning asabbuzar ovozidan cho'chib uyg'onib ketaman. Xuddi shu kuni Sizga maktub yozishga qaror qildim...

"Salom, azizim. Yaxshimisiz?! "- deyolmayman... Oh, cheksiz afsusdaman! Nega deysizmi? Alik olish, balkim, malol kelar deb o'ylayman. Bilaman yaxshisiz... Bir daqiqa, yo'q-yo'q - bu juda ko'p, o'n besh soniya davom etgan suhbatimiz (agar suhbat deb bo'lsa) mobaynida ham jo'yali gap aytishga haddim sig'maydi-ku! (Nahot o'n besh soniyada jo'yali gap aytib bo'lsa...).

Ochig'i, nima deyishni ham bilmayman. Umrimda birinchi va oxirgi marta kimgadir xat yozyapman. Bu notanish qiz kim ekan, deyapsizmi? Bu men - Siz uchun pianino chalishni o'rgangan, vaqtি kelsa, sevgan qizingizga siz bergan kitoblar, maktublarni eltgan qizaloqman. Esladingizmi? Siz u bilan ayrilganingizda qattiq iztirobda qolgan edingiz. Men sizni ko'rib siqilib ketardim. Ahvolingiz nihoyatda og'ir ekanligini aytardingiz. Endi aytинг-chi, kimga ko'proq qiyin bo'lgan ekan?

Eng achinarlisi nima, bilasizmi? Siz bilan hech bo'lmasa, do'st bo'lomladim. Chunki Siz Stefan Sveygning "Notanish ayol maktubi" asaridagi mashhur romannavis R kabi duch kelgan xonimni uyiga taklif qilib do'st bo'ladigan erkaklardan emassiz. Chiroyli qizlarni ko'rganda u kabi ko'zlarining chaqnab ketmaydi. Balki shu ham yaxshidir. Agar qiz o'rtoqlaringiz ko'p bo'lganda romandagi pianist qizdan-da battar azob chekarmidim.

Men odamlarni uch guruhg'a ajrataman: men sevgan, men xafa bo'lgan, yomon ko'rishimga arziyidigan odamlar. Men ularga nisbatan mehr tuymaganim barobarida nafratlanmayman ham. Negaki Xudoyim hech bir bandani boshqa bir bandaning nafratiga duchor bo'lishi uchun yaratmagan. Bu mening fikrim.

Siz bir vaqtning o'zida birinchi va ikkinchi guruhg'a mansubsiz. Bundan ancha yillar muqaddam, qishda, dekabr oxirida muhim saralov imtihoni bo'lishi kerak

edi. Sinf xonasida qay bir o'quvchi maktabdan haydalishi haqida gap borardi. Siz: "Bu yerda o'qishga noloyiq bo'lganlar ham bor, albatta", - deya menga o'sha o'tkir, nafrat to'la nigohlar bilan qaragan edingiz. Vaholanki, nafaqat sizdan ko'ra, butun sinf ichida men namunali o'quvchi edim. Siz meni juda yomon ko'rardingiz... To'g'ri, siz bilan bog'liq shirin xotiralar ham yo'q emas. Oh, taqdir naqadar beshafqat!

Bir gap aytaymi? Yaqinda... yaqinda Tangrimning huzuriga ketaman. Bu nima degani, deysizmi? Ha, ha, men o'laman. Bilasizmi nega buni "qog'ozga o'rab" aytmayapman, chunki Shekspir ham o'zining mashhur asarlari so'ngida "u o'ldi" deydi, hech qanday o'xshatishlarsiz. Eng yomoni, oxirgi bor Sizga to'yib qaray olmasligim. Ko'zlarim butkul ko'rmay qolgan... Ha, boshimdan shunday savdolar o'tdi.

Men duolarimda doim Sizning baxtli bo'lishingizni so'radim, ammo meni sevib qolishingizni emas. Siz chindan o'zingiz sevgan inson bilan baxtli bo'lishingizni istayman.

Havo yetishmayapti, nafas ololmayapman... Sizga aytadiganlarim - shodliklarim, alamlarim ko'p, juda ko'p. Ammo vaqtim oz. Shuni aytishim kerakki... Men sizni...





AVAZBEK ADHAMJONOV  
9-sinf o'quvchisi



ARABBOY AHMADJONOV  
9-sinf o'quvchisi



### ALISHER NAVOIY G'AZALIGA TAZMIN

Ko'nglum o'tin zohir etsam, barcha olam o'rtanur,  
Shu'lasin gar tortsam, to'qquz falak ham o'rtanur.

O'ylakim, nur aks etib ul shu'ladin ming dil aro  
Ishq elining ko'nglida chun beadoq g'am o'rtanur

Darbadardir olami ishq ichra har yon telbalar,  
Oshiqin ko'nglida ishqin o'tidin sham o'rtanur.

Aydilar, ko'ngling o'ti birla jafolar chekma ko'p,  
Vah ne tong, bu o'tda hatto ashki purnam o'rtanur.

Shams nuri ishq o'tining nazdida hechdir manga,  
Ishq o'tisiz lek, Avazbek, o'tsa hardam o'rtanur.



\*\*\*  
Tunda tunab tondi tantiq tong,  
Qorachiqla indi mash'um tun.  
Kecha urush bo'ldi, qaydasan,  
Farishtalar chiqarmadi un.

Nag'malarin boshlaydi shayton,  
Budda uxlar, Yupiter mizg'ir.  
Ko'chalarda esa haliyam,  
Miltiq bilan urushlar izg'ir.

Tinchlik o'zin o'lganga solar,  
Qonli qafas ichra yurar erk.  
O'ngim urush, so'lim jahannam,  
Arosatda qoldim, yo'lim berk.

Qo'limdagi gullar so'ligan,  
Bu dunyoning umri oxirlar.  
Urush dastxat qo'ymas yuzimga,  
Men-chun dastxat qumsiz qabrlar.





NILUFAR ERGASHEVA  
9-sinf o'quvchisi



HOJIAKBAR ZIYNATSHOYEV  
9-sinf o'quvchisi

## ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR

Olis diyorlarda yurtidan ayro,  
Gullar tig'dek botar yuraklariga.  
Mardlarga xos bo'lgan sheryuraklikni,  
Axtardim Andijon yo'laklaridan.

Izladim Boburday shiddatni, shahdni,  
Tug'ilish bir bo'lsa, o'lish ming ekan.  
Hatto eski ombor saqlamas endi,  
Beshafqat dunyoning kaltaklaridan.

Kim o'zni dedi-ya, kim neni dedi,  
"Mubayyin"dan iymon, insof sado ber.  
G'animat dunyosin o'ylagan sarim,  
Yuragim sovuq yer...

Andijon bog'larin kezdim sarsari,  
Muhabbat islari tutdi xonamni.  
Katta bo'ldim deya sevgini emas,  
Yurakka qadadim "Boburnoma"ni.

Shahar shovqiniga qorishdi hislar...



## MEN BAHORMAN!

Ko'ksimda bahoriy lolalar ochgan,  
Egnimda gullaydi ezgulik, chaman.  
Yuragim juda ham buyuk cho'qqidur,  
Tuprog'im hayotbaxsh, uni sevaman.

Men bahorman!  
Hattoki toshdan ham nihol o'stirib,  
Bulutlar ko'zidan tomchilatib yosh,  
Muzlagan jilg'alar chiqar otilib,  
Nurli taftlari ham men uchun quyosh.

Men bahorman!  
Hech kim topolmagan g'uncha atirgul,  
Anjir gullarini gullatib qo'ygum,  
Hech kim topolmagan g'uncha barglarim  
Kiprikday chizaman ko'zlarni mahsum.

Men bahorman!  
Ey muhtaram, aziz, buyuk shoirlar,  
Yangidan yangiroq gullar ochaman,  
Hali ko'rib turing, sizlar do'stlarim,  
Olov muhabbatga yo'llar ochaman.

Men bahorman!  
Yaxshilik ismimning egizi bo'lgan,  
Sizni gullatadi har bitta onim,  
Hech kimsa aytмаган qo'shiqlarimni  
Jo'r bo'lib aytadi O'zbekistonim.

Men bahorman.



OLLOHYOR ERKINOV  
9-sinf o'quvchisi



## YOSHLIK


Yoshligimda yer chop deyishsa,  
Kir bo'laman deb yurar edim.  
Lek shu yerda ungan bodringni,  
Qarsillatib yeb yurar edim.

\* \* \*

Seni sevmagan qizni kutish,  
Asli ahmoqlik bilan tengdir.  
Tayyoragohda turib misli,  
Kema kutmoqlik bilan tengdir.

## VAQT

“Tezroq” deya soat millarin,  
Olg'a chorlar edi bir bola.  
Keksayganda shu millarga u,  
“Sekinroq yur” deb qilar nola.



OZODEBK ZAMZAMOV  
9-sinf o'quvchisi



## BU DUNYODA...

Omad seni tark etsa agar,  
Tor bo'ladi bepoyon olam,  
Dushmanlaring kuladi obdon,  
Do'st topilmas chiroq yoqsang ham.

Seni rosa sinaydi hayot,  
Oyog'ingdan chalar nogahon,  
Yiqilasan yuz tuban bo'lib,  
Sen o'ylaysan: hammasi tamom...

Lekin do'stim yengilma aslo,  
O'yini bor hayotning ajib.  
Xo'rlanguncha dushman qo'lida,  
Och bo'rilar tashlasin g'ajib.





ROZIYAXON KOMILJONOVA  
9-sinf o'quvchisi



## BOBUR

Saroydagi bir tup o'rik gullamoqda,  
Shoir yanglig' kuylamoqda bulbul jo'shib.  
Qo'lidagi qalam bilan Bobur turar,  
Ijodiga armon to'la she'rlar qo'shib.

Kobul uzoq, ko'ngil yaqin Bobur bilan,  
Musofirlik yelkamizni ezmasmikan?  
Andijonda gurkiragan o'shal bog'lar,  
Yuraklarga botib ketgan toshmasmikan?

Mirzo Bobur dil qonidan ungan gullar...



HILOLA ODIROVA  
9-sinf o'quvchisi



\*\*\*

Sensiz, sensizlikda yuraman unsiz,  
Sensiz orzularga yeta olmasam.  
Azob deb atalgan ro'mollarimni,  
Yecholmasam...

Xilvat ko'chalarga boshimni urib,  
Zamindan so'rayman, bilolmas u ham.  
Ne qilay, shunday alam ekan-da  
Topolmasam...

Menga do'st bo'ladi dahshatli tuman,  
Hatto yuragimda turmas yuragim.  
Zarracha imkonim, zarracha dardim  
Tirgagim...

Sening zarralaring terdim olamdan  
Seni berolmadi, o'sha xasisim.  
Lek sira butun bo'lmaiding. Nega?  
Azizim...

Dod solay, meni kechirgin, Alloh  
Uni topaman. Bormi imkonim?  
Endi seni qaydan axtaray, aytgin  
Iymonim...





## NAVOIY

Laylining sochlarin o'radi dunyo,  
Shiringa dugona bo'ladi tonglar.  
Mehrga yetkazgan kemalarmi yo  
Yurakka urilgan visoliy bonglar?

Majnunning baxtini quchadi mahkam,  
Dillardan taralgan sevgi kuylari.  
Farhod otga minar mag'rur va shahdam,  
Ko'ngildan toshadi mardlik o'ylari.

"Mahbub ul-qulub"ni o'qiydi zamin,  
"Lison ut-tayr"dan aytadi ertak.  
"Sab'ayi sayyor"ni o'qigan sayin  
Muhabbat gullari uyg'onsa kerak.

Kemada suzishar Mehr-u Suhayl,  
Sevgi-la olamni qilmoq uchun lol.  
Ey dunyo, pok iymon senga kerakmi?  
Mana Navoiyning "Xamsa"sidan ol!



DURDONA INOMJONOVA  
9-sinf o'quvchisi



\*\*\*

Bulbullar ham qutlaydi seni,  
Quyosh boshin tortqilar asta.  
Derazamdan boqsam, shabboda  
Q'llarimga tutdi guldasta.

Chiroyingdan lol, hayron bo'lib,  
Bosh ko'tardi jajji boychechak.  
Sen qalbimda chechaklar ochgan,  
Hislarimni ortgan belanchak.

Kelgin, menga o'z o'rningni ber,  
Bo'lib qolay bir lahza senday.  
Murg'ak dilga baxsh etgan ilhom,  
Bahor, chiroyingdan aylanay.





GULRUH RAYIMJONOVA  
9-sinf o'quvchisi



DURDONA YOQUBOVA  
9-sinf o'quvchisi



## BAHOR

Osmonlarda porlaydi umid,  
Ko'ngil – go'yo quyoshga tutash.  
Orzularim yelib kelganda,  
Olovlardan otilar otash.

Ko'ngil xuddi kemaday suzib,  
Qirg'oqlarga urilar bir-bir.  
She'r atalmish yashil orolda  
Bahor bo'lib ulg'ayar taqdir.

Samolardan taralgan ziyo,  
Dilimizdan o'chmaydi sira.  
She'rlarini kiprikday qadab,  
Yuraklarda yashar Zulfiya!

## MAKTUB ...

Salom, men kutayotgan go'zal kelajagim.  
Ahvollarling yaxshimi? Yaxshi yuribsanmi?

Bilaman, sen ham men tomon talpinyapsan. Menga o'zing haqingda xabar  
berging kelyapti. Hali seni mana shunday kunlar kutyapti deging kelyapti-yu,  
lekin aya olmayapsan.

Mehribon kelajagim, sendan bitta katta iltimosim bor. Bu iltimosimni inobatga  
olasanmi, yo'qmi buni bilmayman, lekin, baribir, umid qilaman. Menga ertam  
uchun shunday bir sirli sovg'a tayyorlab qo'yginki, sening kichik ukang ... ismi  
nima edi-ya, ha, o'tmish sochlardan tortib bezovta qilmasin. Yur orqaga deya  
olmasin. Iltimos sendan, mehribon kelajagim, javobingni Erkin Vohidov nomli  
ijod maktabiga pochta orqali jo'natib yubor. Konvert ustiga "Meni kutayotgan qiz  
uchun" deb yozish esdan chiqmasin.

Hurmat bilan, ko'zlari to'rt bo'lib kutib turgan qiz, Durdona...





GULZODA TURDALIYEVA  
9-sinf o'quvchisi



TOHIRJON DADAJONOV  
8-sinf o'quvchisi

## G'UNCHA

G'uncha quyosh chiqmasidan ko'zini ochdi, dunyoni ko'rди. Olam shu qadar maftunkor ediki... Shu payt yaprog'iga bir shabnam kelib tushdi.

- Salom g'uncha!
  - Salom, - dedi g'uncha, - sen qayerdan paydo bo'la qolding?
  - Men osmondan, bulutlar orasidan tushdim.
- Ular anchagacha suhbatlashishdi. Ammo birdan shabnamning yuzida qo'rquv aks etdi.
- Nima bo'ldi senga, shabnam?
  - Quyosh bobom meni olib ketgani kelyapti.
  - Nega? Men bilan qola qol, - dedi g'uncha.
  - Men qolishni istayman, ammo, ilojim yo'q!
  - Men seni albatta olib qolaman! - dedi-yu shabnamni yaproqlari qatiga yashirdi.

Quyosh shabnamni talab qila boshladi. Ammo g'uncha rozi bo'limgach, charchab, uyiga kirib ketdi. Shundan buyon g'uncha faqat oydin kechalardagina ko'zini ochib, shabnam bilan miriqib suhbat qurar ekan.

Odamlar g'unchaning kechasi ochilishini ko'rib, uni "Namozshomgul" deb atay boshlabdilar.



## ISHQ

Hayronaman ishq yo'llarida,  
Devonaman hajrida uning.  
Uni o'y lab tonglar otadi,  
Uni o'y lab o'tadi kunim.

Vujudimda yashaydi o, ishq,  
Yuragimga jo bo'lgan o'zi.  
Shu jonimni baxshida etgum,  
Hatto unga tutaman ro'za.

Hayronaman ishq yo'llarida,  
Devonaman hajrida men, oh.  
Ishqim senga baxshida etgum,  
Qabul etgin, yaratgan Alloh!





NIGINA ERGASHEVA  
8-sinf o'quvchisi

### MEN BOLAMAN

Men hali bolaman, g'amni bilmagan,  
Jajji bu qalbiga orzu in qurgan.  
Gullarni ko'rganda birdan sevinib,  
Qushlarni ko'rganda chopib yugurgan.

Men hali bolaman, qalbida poklik,  
Afsona, cho'pchakka chindan ishongan.  
Onasi erkalab borlig'im desa,  
Bag'riga otolib, mehrga qongan.

Men hali bolaman, tashvishdan yiroq,  
Qo'g'irchoqlarini baxti deb bilgan.  
Kapalakni ko'rsa, mo'jiza bilib,  
Kattalar gapini quloqqa ilgan.

Men hali bolaman, gulga oshufta,  
Bog'larga yugurib tog'larni ko'rgan.  
Berkinmachoq o'ynab ukasi bilan,  
Uzun sochlarni maydalab o'rgan.

Men hali bolaman, maqsadi ulkan,  
Muhabbat neligin tushunmaydi qalb.  
Bolalikka to'yay, shoshilma biroz,  
Tushunmasdan sevsam, bo'ladi bu dard.

Men hali bolaman, yuragi ulkan...



MARHABO IBROGIMOVA  
8-sinf o'quvchisi



\*\*\*

Gohida quyoshtir, gohida bo'ron,  
Sirli tabiatda sirli mo'jiza.  
Shamoldan tarsaki yegan nihollar,  
Bo'ronlar kelsa ham, bo'lma ojiza.

Ajdoding mustahkam, kuchli bo'l doim,  
Zabardast millatning yoshlari kabi.  
Ollohdan boshqaga egmagin boshing,  
Bir kun ko'rksam daraxt bo'lasan hali.

Shamoldan tarsaki yegan nihollar...





SAÍDAXÓN MUHIDDINOVA  
8-sinf o'quvchisi



## BAHOR

Mudroq yuragimga yog'adi yomg'ir,  
Ko'z yoshin to'kadi osmon-u falak.  
Yomg'irdan quvonib turar qarshimda  
Nurlardan yaralgan go'zal bir malak.

Yur, deya boshlaydi meni qirlarga,  
Qizg'aldoqdan to'shab poyimga gilam.  
Sharqiroq soy bilan kuylaydi qo'shiq,  
Tinglashdan to'xtamas mening qalbim ham...

Har kelishin kutib yashayman uning,  
Ismini aytaman takror va takror.  
Bu yorug' olamda husnda tengsiz,  
Fasllar ichida malika – bahor!



SHOIRBEK RAHMATULLAYEV  
8-sinf o'quvchisi



## BOBURGA QAYTIB

Yolg'izlik qiynaydi, shodlik hech kelmas,  
Yolg'izlik qiynaydi yurt alamidan.  
Boburga Hindiston emasdир havas,  
Asli Tojmahalga Hind emas Vatan!

Boburga malomat toshin otganlar,  
Ular yurt neligin bilmadi ko'r-a...  
Xiyonat qilganlar, elni sotganlar,  
Vatan ne ekanin Boburdan so'ra.

U Vatan bag'rida o'smadi, ammo  
Uning qon bag'rida yashardi Vatan!





UMIDAXON ABDURHAMIDOVA  
8-sinf o'quvchisi



## BAHOR

Necha dunyolarni bezagan go'zal  
Bugun ham atrofda qilar sayohat.  
Mening yuragimda yashaydi azal,  
Kabutar, xayolga olib kelar xat.

Shunda yashnab ketar butun o'ylarim,  
Notanish dilbarga yozaman maktub.  
Mudom nurli bo'lgan mening yo'llarim  
Zarrin quyoshini turardi kutib.

Mana, qaldirg'ochlar bilan keladi,  
Qalbimga yangidan o'zgacha nahor.  
Mayin shabbodalar hamon yeladi,  
Abadiy yashaydi, ko'nqlimda bahor.



MUHAMMADAMIN ALIYEV  
8-sinf o'quvchisi



## DARSDA

Qadim tarix darsida  
Muallim savol berdi:  
“Qodirov, ayt, Napoleon  
Qayerda o'lgan?” – dedi.

Qodirov ko'p o'ylanib,  
Oxir o'yiga yetdi,  
Der: “U o'lgan kitobning  
O'n to'rtinchi betida!”





NURULLO OMONOV  
8-sinf o'quvchisi

## AVTOPORTRET

Tong. Kuzak shamoli erinmay sayr qilgani-qilgan. O'z tug'ilgan joyini mahkam ushlab olgan barglar astagina tebranib, raqs tushadi.

Shunday sehrli nahorlarning birida aylanishga chiqdim. Ta'tildaman, vaqtim bemalol. Xiyobon tomonga borayotib, peshonasiga katta harflar bilan "San'at muzeyi" deb yozib qo'yilgan bino oldida to'xtadim. Bu yerga bir martagina dadam bilan kelgandim.

Kiraverishdagi o'ng tomonda yoshi taxminan elliklardagi rus ayol tirsagini stolga tirab, kaftiga yonboshlagancha o'tiribdi. Darcha tepasiga "Kassa" deb yozilgandi. Ertalab dadam ermak uchun bergen pulni darchadan uzatdim. Ayol "pojalusta" deb, chiptani qo'limga tutqazdi. Ulkan eshikni asta ochib, ichkariga kirdim.

Katta zalga o'tganimda, hech kim yo'q ekan. Atrof suv quygandek jim-jit. Avval bu maskan juda gavjum bo'lardi.

Chor tarafga chiroyli tartibda osilgan rasmlarni tomosha qilishga oshiqdim. Ularning atrofidagi tillarang gardishlari ko'rkiga ko'rк qo'shardi. Menimcha, suratidan ko'ra gardishi qimmatroq bo'lsa kerak, deb o'yladim...

To'g'risini aytsam, bironta surat e'tiborimni tortmadni. Yoshlik qildimmi yoki tushunmadimmi, bilmadim. Ammo oxirgisi juda boshqacha ekan. Ko'plab suratlar orasida mana shugina menga yoqdi. Unda to'qqiz-o'n yoshlardagi bir bola tasvirlangan. Qosh-ko'zlari qop-qora, sochlari kalta qilib qirtishlangan. Yanoqlari porlaydi, tabassum qilib turibdi. Xuddi o'zim-a! Tagida esa "Avtoportret" deb yozilgan. Ofarin, shu asar muallifiga!

Rasmlarni yana bir bor tomosha qilayotganimda, zerikkanimdandir, kayfiyatim tushib ketdi. Va yana o'sha rasmga diqqat bilan nazar tashlay boshladim. Ammo bu... boyagina ko'rgan rasmim emasdi. Aniq boshqa bola. Yo'q, menga o'xshaydi. Ha, xuddi o'zim, faqat sal homush. Yuzidagi tabassum g'oyib bo'lgan. Tavba, xuddi sehrlidek! Ya'ni mening kayfiyatim unga ham ta'sir qiladigandek-a. Bu suratning boshqalaridan yana bir farqi – usti ajoyib silliq edi.

Muzeydagi menga yoqqan eng yaxshi asar shu bo'ldi. Ammo keyin bilsam...

bu rasm emas, eski, qadimiy toshoyna ekan. Kimki unga qarasa, o'z aksini ko'radi. O'z avtoportretini!

Nima bo'lgan taqdirda ham, bugungi sayr menga yoqdi. "Avtoportret" tufayli men asl qiyofamni ko'rdim. Ichki hissiyotlarim va o'zgaruvchan kayfiyatimni bilib oldim. Bu san'at asarining tag ma'no-mohiyati va qiymati ham shunda ekanligiga amin bo'lib, uyg'a ajoyib ruhiyatda qaytdim. "Avtoportret" tufayli!





MUSLIMAXON TOHIRJONOVA  
8-sinf o'quvchisi

### SIZGA AYTOLMAGAN SO'ZLARIM...

Bugun men uchun juda quvonchli kun. Nega deysizmi? Bugun men birinchi sinfga boraman! Yap-yangi maktab formamni kiyishga hozirlanib turibman. Oyim esa gulzorimizda ochilib turgan bir-biridan go'zal atirgullardan guldasta yasadilar. Sochlarmi chiroyli qilib o'rib, ilgari kuni bozordan olib bergen oppoq "bantik"larni qadab qo'ydilar.

Nihoyat, maktabga ham bordik. U yerda men tengi bolalar juda ko'p edi. Bir payt ko'k eshikli zaldan ikki ustoz chiqib keldi.

Biri menga shunchalar chiroyli ko'rindiki, yuzidagi tabassum qalbimni yoritib yubordi. Birozdan so'ng bu ustozlar bizni ikki guruhga bo'lib, o'zlarini tanishtira boshladilar. Baxtimni qarangki, bir ko'rishda yaxshi ko'rib qolganim – o'sha ustoz guruhiba tushdim. U o'zini tanishtirayotganda ovozi dilimga shunchalar xush yoqdiki, go'yo men so'zlar olamida kezib yurgandekman.

"Aziz o'quvchilar, ilk qaldirg'ochlar, men sizning o'qituvchingiz Rashidaxon Ahmadaliyeva bo'laman", – dedi u asta. Shu kundan boshlab har kuni "alifbe" kitobidagi harflarni o'rganib, yangi she'rlar yodlab bordik. Bir necha oylar o'tib, "Savodxonlik bayramimiz" bo'ladigan bo'ldi. Tantanamiz yaxshi o'tishi uchun juda ko'p harakat qildik. Men "P" harfi bo'ldim.

Mana bugun bayram ham boshlandi. Bizning safda turishimizni birma-bir tasvirga tushirayotgan kishi yonimga kelib meni suratga olayotganda qo'limdagи pufagim "paq" etib yorilib ketsa bo'ladimi! U kishi kulib yubordi, men esa alamimdan yig'lagim kelardi.

Shu zaylda bayram ham o'tdi. May oyi kelib, dam olishga chiqdik. Ta'til shu qadar sekin o'tardiki, maktabni sog'inganimdan ezilib ketdim. Lekin vaqtini bekor o'tkazmadim. Oyimdan do'ppi tikishni o'rgandim. Har bir narsani qunt bilan o'rganish kerakligini mana shu ta'tilda anglab yetdim.

Bugun ikkinchi sinfga boraman. Shunday bo'lsa-da, yana yuragimda o'sha hayajon. Shunday qilib yillar o'tgani sari bilim olib, yuqori sinfga ham qadam qo'ydik. Rashida ustoz "mening yuzimni yerga qaratib qo'ymanglar", – deb nasihat qildi.

Beshinchи sinfga kelib ancha ulg'aydik. Yangi xonalar-u, yangi ustozlar bilan oltinchi sinfga o'tdik. Men ikkinchi sinfdan she'r yozishga qiziqqanim uchun shu sohaga ixtisoslashtirilgan maktabga o'qishga kirdim. Ikki oy o'tib avvalgi maktabimni ko'rishga keldim. Avvalo, birinchi sinfda biz o'tirgan partalar-u, necha-necha yozuvlarimizga guvoh bo'lgan doska turgan xonaga kirdim. Rashida opa meni kutib olganida bir narsani sezdimki, birinchi sinfda uni ilk ko'rganidagi mehrli tabassumi hali ham so'nmabdi.

Ustoz bilan salomlashib, biroz suhabatlashdik. Mendan kelajakda kim bo'lismi ni so'radi. Men ham tabassum bilan: "Ustoz bo'laman!" – deb javob berdim. Ustoz ma'noli qaradi-da, "unday bo'lsa, juda ko'p kitoblar mutolaa qiling, qancha ko'p kitob o'qisangiz, maqsadingizga shuncha tez erishasiz", – dedilar. Bu so'zlarni qalbdan his qilgan holda ustoz bilan xayrashib, yangi maktabga qaytdim.

Oradan bir yil o'tdi. Yana maktabga singlimni olish uchun borib, ingliz tili ustozim bilan uchrashib qoldim. Rashida ustozni esa qidirib topolmadim. Ular bilan shunchalar gaplashgim kelardiki, singlim chiqsa ham, maktabdan ketgim kelmasdi.

Sakkizinchи sinflik paytim. Maktabimizdan topshiriq bo'ldi – tibbiy ko'rikdan o'tish kerak ekan. Aksiga olib o'sha kuni gupullab qor yog'ayotgan edi. Oyimning ishxonasiga kirib, ularni chaqirmoqchi bo'lganimda, bir qizning gapini eshitib qoldim: "Mahalladoshimiz Rashida opa boshiga qon quyilib vafot etibdi, bechora, hali yosh edi..."

Oyoq-qo'lim muzlab ketdi. Ko'zlarimdan oqayotgan issiq yosh yuzimni yuvayotganida ustozimning tabassum bilan qalbimni rom etgan chehrasi ko'z oldimda namoyon bo'ldi.

"Nega, nega o'sha kuni hafsalasizlik qilib ustozim bilan ko'rishmadim... Axir unga besh yil ichida aytolmagan gapimni aytmoqchi edim-ku! Haliyam bo'lsa, aytayin: Ustoz, sizni bir masalada xato qilib ranjitgan edim... Iltimos, meni kechiring! Sizni qadrlovchi, yaxshi ko'rvuchi o'quvchingiz Muslimaxon".





SHOIRAXON OMONOVA  
7-sinf o'quvchisi



## NAVOIY

Kurtak otar yuragimda ijod sehri,  
Mayoq misol yo'llarimni yoritar baxt.  
Kelajakka qo'yilgan eng katta qadam,  
Hali qalbga ko'chib kelar bo'lib maqsad.

Navoiyni o'xshataman daryolarga,  
To'lqinlari yuvib ketar dardlarimni.  
Yana hislar yuragimga kirib kelib,  
Uyg'otishar ijod degan dardlarimni.

Navoiyni o'xshataman samolarga,  
Qushlar qanot qoqib etar erkin parvoz.  
Hatto tog'ni titratguvchi kuchga ega,  
Navoiydan bizga qolgan ulkan meros.



FAZLIDDIN G'ULOMJONOV  
7-sinf o'quvchisi



\*\*\*

Jajji nihollarmiz ijod – gulshanda,  
Ildizi tuproqqa botgan mustahkam.  
Aslo shamollarda bukilmagay qad,  
Bunda buyuk ustoz ushlagay mahkam.

O'sha ulug' ustoz ortidan borib,  
Har bir xitobini qilamiz e'zoz.  
Bu yosh, daryodayin pok ko'nglimizga,  
Quyoshday nur sochar Navoiy ustoz.





DILSHODABONU MATKARIMOVA  
7-sinf o'quvchisi



## TINISH BELGILARI

Tinish belgilari bo'ldi mehmonim,  
"Tire" tushuntirdi menga maqsadin.  
Intildim orzular bilan "undov"ga,  
Lekin topolmadim uning sarhadin.

Topmadim, ko'rinas edi hech nima,  
Go'yo yashirinib olgandi "nuqta".  
Keyin armonlarim boshladi hujum,  
Xayollar, bo'ldi bas, eslashdan to'xta!

Tinish belgilari bo'ldi mehmonim,  
Baxtlarim terish-chun qo'llarim kalta.  
"Vergul" hayotimdan o'tdi oldinga,  
Va ular qayg'uga qo'ydilar "nuqta".



## ONA

Qo'llaringiz qadoqlarga to'ldi ona,  
Bu dunyoning tashvishi-yu kamlaridan.  
Yoningizga faqat pul deb keladigan,  
Farzandingiz injiqlig-u g'amlaridan.

Sochingizga oralabdi bedor tunlar,  
Sizni buncha qiyamasa bebosh hayot.  
Bobom eslab ko'zingizdan yog'ar yomg'ir,  
Qiyinchilik quvonchingiz etdi barbod.

Orzulardan birga quray baxt qasrini,  
Har burchakka ilib qo'yay yurakkinam.  
Qo'llaridan tushurmasdan bir umrga,  
Ka'balarga olib boray kerakkinam.

Farishtalar qo'llaridan tutib har dam,  
Alloh deya qadam qo'ying jannatlarga.  
Rasululloh do'sti bo'ling har qadamda,  
Yo'llaringiz bog'lab qo'yay omadlarga!





MUBINABONU ABDUVALIYEVA  
7-sinf o'quvchisi

### SOG'INCH

Sizni ko'p ko'rmadim, gaplar yig'ildi,  
Sizni ko'p esladim, o'tmish yig'ladi.  
Do'stlikning qadriga yetmagan kunim,  
Ko'ngilning dardiga qoqilgan kunim.

Dunyolar sog'inchni tashlaydi hamon,  
Armonlar hasratin qilyapti endi.  
Dengizga g'arq bo'lib turgan chog'imda,  
Meni bag'ringga bos, do'stim, kel endi.

Tunlari yig'layman sirdosh topolmay,  
Ko'z yoshim ko'tara olmayapti she'r.  
Oymomo sochimni silab har onda,  
Deydi : "G'amlaringni endi menga ber".

Betobsan, sezyapman, yurak bezovta,  
Qiynalib qoldingmi, aytgin, ayta qol.  
Sening sog'ligingni so'ragan qo'llar,  
Sog'inib ketdim-ku, kelgin, kela qol.



GULSANAM MADRAHIMOVA  
7-sinf o'quvchisi



### ONA

Ko'zlardagi nurlar quyoshdan yorqin,  
Xayolim ketadi faqat siz tomon.  
Mehrning olamin kezayotganda,  
Men sizni topoldim, onajon.

Qo'llaringiz ushlab, bo'laman sarmast,  
Sizga ta'zim qilsin butun bir jahon.  
Xayolimga naqsh chizibsiz qarang,  
Naqqoshim mehribon, jonim, onajon.

Bugun sizni ko'rganda, albat,  
Muhabbatni sezdim ko'zlardan shu on.  
Qo'lingizga gullar tutaman yana,  
Bayramingiz bilan aziz onajon!!!





KAMOLA MA'RUPOVA  
7-sinf o'quvchisi



GULSANAM BAHROMOVA  
7-sinf o'quvchisi



## USTOZ

Ilk bora kitobni ko'rganda ko'zim,  
Shodlik qorachig'im aro tutashdi.  
Kecha qalam tutgan edi ustozim,  
Bugun shoir qalbim misli otashdir.

Ma'rifatga tashna menday qiz uchun,  
Vaqtin sarf aylagan aziz insonim.  
Shu sabab, ustozlar, faqat siz uchun  
Rahmatlar aytadi burro zabonim.

Mana ko'ryapsizmi, quchdim zafarlar,  
Bari sizlar sabab, jonajonlarim.  
Yuragimda ungan chechaklar bilan  
Sizlarni qutlayman, ustozjonlarim!



## JO'NATILMAGAN MAK TABU

Bu yer bolalarga to'la. Mehribonlik uyi... Xuddi shu yerni uyi deb biluvchi, ammo o'z uyidagi oilaviy, baxtli kunlari kelishini kutib yashovchi qizaloq – Robiya onasini ko'rmagan. Lekin u hayot ekanligini, qanday chiroyliligin tasavvur qiladi.

U boshqa dugonalaridan har tomonlama farq qiladi. O'rtoqlari yozishni o'rganib olganliklaridan xursand bo'lib, har kuni kundalik yozishadi. Robiya esa onasiga maktub yozadi.

– Oyijon, – deb yozadi doim, – garchi maktublarimga javob bermayotgan bo'lsangiz ham, ularni o'qiyapsiz, buni bilaman. Har kuni o'zim tasavvur qilgan qiyofada tushimga kirasiz. Oyijon, bugun ham yana bir dugonam – Muslimaning onasi kelib uyiga olib ketdi. U juda baxtiyor va xursand edi. Sezib turibman, men ham bir kun kelib, quvonib, sizning qo'llaringizni ushlagancha bu yerdan ketaman...

Robiya har kungi maktublarini mehribonlik uyidagi eng sevimli tarbiyachi opasiga beradi va oyisiga berib qo'yishini iltimos qiladi. Roziya opa ham jilmayibgina maktubni oladi. Ammo onasi qayerda ekanligini hech kim bilmaydi. Robiya yozgan maktublar esa Roziya opaning xonasidagi stol tortmasida yig'ilib turadi va har kuni bittaga ko'payadi...





SHAH RIBONU G'AFFOROVA  
7-sinf o'quvchisi



DIL FUZAXON MAHMUDOVA  
7-sinf o'quvchisi

\*\*\*\*\*

Yana yig'layapman... Qog'oz jiqla ho'l. Boshimni stol ustiga qo'ygancha xayollarim chalkash o'tiribman. Bu hol yana qancha takrorlanadi? Har gal unga xat yozganimda o'zimni shunday g'alati his qilaman... U ketyapti. Uzoqlarga jo'nab ketyapti... O'ylab-o'ylab uni sog'inganimni, qanchalik yaxshi ko'rishimni yozdim. Ketmasligini so'radim. Yozganim sari uning surati ko'z oldimda gavdalandi. Xuddi suhbatlashganday bo'ldim. Xatni konvertga soldim. Uy issiqligi uchunmi hovli juda sovuq tuyuldi. Yomg'ir yog'yapti. Suvning tarnovdan tushayotgandagi ovozi quloqni qomatga keltiradi.

Ko'chaga chiqdim. Uning uyi biznikidan unchalik uzoq emasdi. U yon-bu yonga qaradim. Xatni soldim-u, shoshganimcha uyimga qarab ketdim. Javob xat kelmadi. U ketdi. Olis yerlarga ko'chib ketdi. Juda yomon ahvolga tushdim. O'sha maktubimda o'ziga aytolmagan gaplarimni yozgandim.

Oradan vaqtlar o'tdi. Yana u bilan suhbatlashgim keldi. Yana o'sha holat. Tuyg'ularimni aytib, ikki varaqni to'ldirdim. Tashqariga chiqdim. Asta uning uyiga yaqinlashdim. O'sha tanish quti, faqat baxtinga qulflanmagan ekan. Endi xatni solmoqchiydim. Ne ko'z bilan qarayki, eski maktubim ham joyida turgan ekan. Shuncha narsani yozishga yozibman-ku, manzilni yozishni unutibman...



U sakkiz yoshli qizaloq. Bobosi, buvisi, dadasi bor. Bobosi chet elda ishlaydi. Buvisi – tarjimon. Dadasining bir nechta kompaniyasi bor. Safarlarga kattalar bilan birga chiqib, dunyoning ko'plab davlatlariga borib kelgan.

U har kech maktub yozadi. Turli xil tillarni o'rganayotgani uchun har kuni turli tillarda yozadi. Chunki u hatto onasi qaysi tilda gaplashishini ham bilmaydi. Maktubni yozib bo'lgach, yurakchalar chizilgan, oq varaqdan o'zi yasagan xatjildga joylaydi. Tashqariga qarab, son-sanoqsiz yulduzlarga birnimalarni shivirlaydi-da, maktubni derazadan uchiradi. Ertalab turib, hovliga chiqqanida maktub yo'q bo'lib qolishini Xudodan so'rab, uxlaydi. Ertalab uni quyosh uyg'otishi, toza havoda sayr qilishi va, albatta, hammadan avval hovliga chiqish uchun pushti gullar chizilgan pardali derazani ochib qo'yadi.

Tong. Uni har doimgidek quyosh nurlari erkalab uyg'otdi. Shamollab qolmaslik uchun yotoq kiyimi ustidan qora, tugmalari yaltiroq jemferini kiyib, yuz-qo'lini yuvib ham o'tirmay hovli tomon yugurdi. U maktub egasiga yetib bormaganligini biladi, ammo unda umid bor. Bolalarcha umid...

Hovli katta, ikki yonda maysalar o'sgan, o'rtada keng yo'lak. Yo'lakning o'rtasida kechagi xatjild turibdi. Qizcha maktubni oldi-yu, ko'zida yosh miltillab xonasi tomon yugurdi. Hali yig'ilman, issiq o'rniga yotib, boshini o'rak oldi-da, shu yotgancha anchagacha turmadidi. Kiyinib, xonasini saranjomladidi. Nonushtada buvisiga xarxasha qildi. Noiloj qolgan buvisi uni qabristonga olib bordi. Qizaloq o'zi yasagan qog'oz guldasta va maktubni olib borib, onasining qabri ustiga qo'ydi...





BEHRUZ MO'MINOV  
7-sinf o'quvchisi



BIBIXOJAR ABDUG'ANIYEVA  
6-sinf o'quvchisi

\*\*\*\*\*

Yana yig'layapman... Qog'oz jiqla ho'l. Boshimni stol ustiga qo'ygancha xayollarim chalkash o'tiribman. Bu hol yana qancha takrorlanadi? Har gal unga xat yozganimda o'zimni shunday g'alati his qilaman... U ketyapti. Uzoqlarga jo'nab ketyapti... O'ylab-o'ylab uni sog'inganimni, qanchalik yaxshi ko'rishimni yozdim. Ketmasligini so'radim. Yozganim sari uning surati ko'z oldimda gavdalandi. Xuddi suhbatlashganday bo'ldim. Xatni konvertga soldim. Uy issiqligi uchunmi hovli juda sovuq tuyuldi. Yomg'ir yog'yapti. Suvning tarnovdan tushayotgandagi ovozi quloqni qomatga keltiradi.

Ko'chaga chiqdim. Uning uyi biznikidan unchalik uzoq emasdi. U yon-bu yonga qaradim. Xatni soldim-u, shoshganimcha uyimga qarab ketdim. Javob xat kelmadi. U ketdi. Olis yerlarga ko'chib ketdi. Juda yomon ahvolga tushdim. O'sha maktubimda o'ziga aytolmagan gaplarimni yozgandim.

Oradan vaqtlar o'tdi. Yana u bilan suhbatlashgim keldi. Yana o'sha holat. Tuyg'ularimni aytib, ikki varaqni to'ldirdim. Tashqariga chiqdim. Asta uning uyiga yaqinlashdim. O'sha tanish quti, faqat baxtimga qulflanmagan ekan. Endi xatni solmoqchiydim. Ne ko'z bilan qarayki, eski maktubim ham joyida turgan ekan. Shuncha narsani yozishga yozibman-ku, manzilni yozishni unutibman...

### ERKIN VOHIDOVGA

Qalbingni chulg'agan o'tli alanga,  
Ilhomning nafasi kezar beorom.  
Siz-ku she'riyatning hur osmonida  
Bir umidim kabi porlagan hamon.

"Nido" dostonidan keltirib parcha,  
Misralar o'qisam, kelar hayratim.  
Qanchalar purhikmat ma'nolar anglab,  
Zehnimni o'tkirlash oliy maqsadim.

Ko'zlarim chirt yumib boraman mag'rur,  
Olis yo'l, oxiri ko'rinxas hamon,  
Erkin Vohidovning ijod yo'llarin,  
Davom ettirishlik, bo'lmasin armon.





SARVINOZ MAHMUDOVA  
6-sinf o'quvchisi



FARANGIZBONU MAHAMMADALIYEVA  
6-sinf o'quvchisi



## BOLALIK

Baxtim o'zing, quvonchim o'zing,  
Olisdasan mendan qanchalik.  
Lolalar ni quchgan onlarim  
Asl shodlik sensan, bolalik.

Laylimisan yo go'zal pari  
Ismingni men unutmam sira.  
Kamalakdan rang olgan yog'du  
Bolalikdan qolgan xotira.



## NAVOIY HIKMATI

Yuragimga sig'may ketdim o'zim ham,  
"Xamsa"ni ko'zimga avaylab surtgum.  
Ko'zimning yoshlari oqar tinmayin,  
Men ham Navoiyning bog'iga ketgum.

Mana, turfa gullar atroflarimda,  
Yo'limga poyandoz bo'lar xayollar.  
Shodliklar kel, deydi quchog'in ochib,  
Sochimdan tortqilar mayin shamollar.

Yuragimga sig'may ketdim o'zim ham,  
"Xamsa"ni qo'limda tutaman baland.  
Ko'zimning yoshlari oqar tinmayin,  
Navoiyning o'zi haqiqiy san'at.





MADINABONU ABDUSALOMOVA  
6-sinf o'quvchisi



## BAHOR

Keldi yana yurtim olqishlab,  
Qo'llarida nafis boychechak.  
Qaro qoshli qaldirg'ochlar ham  
Peshvoz chiqar yuzlari chechak.

Boshin egib turgan majnuntol  
Yuzlarini siypadi asta.  
Gullar qiqir-qiqir kulib sho'x,  
Tutqazdilar unga guldasta.

Gurkirab, barq urgan maysalar,  
Yo'llariga bo'ldi poyondoz.  
Shabboda zo'r berib siypalar,  
Ul malak ot mingan chavandoz.



NODIRABEGIM SAIDJONOVA  
6-sinf o'quvchisi



\*\*\*

Oyisi Nafisaga  
Mazali tort pishirdi.  
“Agar bugun besh olsang,  
Besh bo'lak senga”, – dedi.

Maktabidan qaytgach u,  
Oyisiga aytadi:  
“Oyi bugun qornim to'q,  
Ikki bo'lak yetadi”.





GULYORA HOSHIMJONOVA  
6-sinf o'quvchisi



HUSNIRABONU SOBIROVA  
6-sinf o'quvchisi



### GLOBUSGA SAYOHAT

Bir kuni bobom uyga,  
Olib keldi globus.  
Qo'lida bordir yana  
Mittigina avtobus.

Buvim hayron so'radi:  
Nima qilasiz buni?  
Bobom: "Sayohat qilay",  
Deysan o'zing har kuni.

Mana, qo'lingda olam,  
Qilavergin sayohat.  
Ko'rib hatto dengizni,  
Har kun qilasan rohat.



### KAMALAK

Yomg'irdan so'ng chiqadi  
Go'yo samo ko'prigi.  
Ko'rib lol qolar ukam  
Unda ranglar ko'pligin.  
Bir kuni savol berdi:  
"Opa, uning nomi ne?"  
Dedim: "Har ko'rganiningda,  
Anavi – kamalak", – de.  
Unda mujassam bo'lar,  
Yorqin, tiniq yetti rang.  
Qachon chiqsa, ukam der:  
"Opa, kamalak qarang".





GULOBOD NURALIYEVA  
9-sinf o'quvchisi



### SHOIR QALBIGA TA'RIF

Oshuftaqalb bunda bir ne istaydi –  
Purviqor tog'larni kezmoq istaydi.  
Tark etib kir ko'zguli bu binolarni,  
Soflik lazzatini sezmoq istaydi.

Oshuftaqalb bunda bir ne istaydi –  
Pishqirma daryoda suzmoq istaydi.  
Tark etib ko'lmakli oqavalarni,  
Daryo qo'shig'ini buzmoq istaydi.

Oshuftaqalb bunda bir ne istaydi –  
Samimiy, sururbaxsh ko'zlar istaydi.  
Tark etib shaharlik soxtaqalblarni,  
Shirinsuxan til va so'zlar istaydi.

Oshuftaqalb bunda bir ne istaydi...



### MUALLIMIMGA

Dunyolar poyingga cho'ksin bunda tiz,  
Dunyo topganlarning muallifisan.  
Hanuz o'qityapsan minglab o'g'il-qiz,  
Eng yaxshi insonlar muallimisan.

Jomiysan, Lutfiysan Navoiy uchun,  
Sayid Barakasan – Temurga pirsan.  
Olamga ko'rsatgan buyuklar kuchin,  
Oddiy muallimsan, na bir amirsan.

Senga kerak emas oltindan medal,  
Senga kerak emas katta unvonlar.  
Bularning o'rniiga bitta o'quvching,  
Berib tursa yetar turfa savollar.

Qaysi fandan bizga berasan ta'lim,  
Buning ne farqi bor, ne muhimligi!?  
Axir nedan bo'lsa berasan ilm,  
Aziz muallimim, aziz muallim!





GULIRA'NO ANVAROVA  
8-sinf o'quvchisi

### BAHOR TUHFASI

Quyosh boqdi olamga,  
Bahor keldi yurtimga.  
Daraxtlar taqdi marjon,  
Nur taftidan olib jon.

Yuzin ochdi kurtaklar,  
Jonlanishdi novdalar.  
Zarli yashil liboslar,  
Quloch yoyar shunchalar.

Go'zal bahor gullari,  
Nafis, xushbo'y barglari,  
Atrin sochar olamga,  
Hidi shoshar xonamga.

Qushlar yayrar havoda,  
Shodon sayrar navoda.  
Bahoroydan bo'lib shod,  
Dil izhorin aylar yod.

Bahor tuhfasi buyuk,  
Ellar uchun u suyuk.  
Qadri baland bahorning,  
Rizq-ro'z keltirgan oyning.

### ASSALOM, NAVZO'Z!

Assalom, nurli quyosh!  
Assalom, yashil ko'klam!  
Dadil qulochlaring yoz,  
Yashnasin butun olam.

Seni sog'inib kutdik,  
Senga qo'shiqlar bitdik.  
Har lahma bobodehqon,  
Intiq kutdi mehribon.

Sen bilan go'zal olam,  
Yashnagay qir-u dalam.  
Ko'z ochgay tog'da lolam,  
To'shalgay yashil gilam.

Vatan uzra taralsin,  
Karnay-surnay ovozi.  
Yurtim bo'y lab yangrasin,  
Kuy-qo'shiqlar sadosi.

Sen ulashgan rizqu-ro'z  
Baxt-omadga aylanur.  
Hayotimiz bardavom,  
Shodliklarga ulanur.

### NAVRO'Z MUBORAK!

Baxtiyor shodon elim,  
Navro'zingiz muborak.  
Rizq-ro'z, omadlar bisyor,  
Ko'klam fasli muborak.

Nafis gullarga to'la  
Qadami qutlug' bahor.  
Dillarni o'zing shodla,  
Ifor soch erta nahor.



GULSANAM MAMANABIYEVA  
7-sinf o'quvchisi

## HAZRAT NAVOIY

Ma'rifat o'chog'in olov oldirgan,  
Dillarga siymosin mangu qoldirgan,  
Ilm-u ziyo maskanlarin qurdirgan,  
Millat quyoshidir ustod Navoiy!

"Xamsa"si qalblarni doim fath etgan,  
G'azallari dilga huzur baxsh etgan,  
Ajib bir tuyg'u-la ko'ngil zabit etgan,  
Millat quyoshidir ustod Navoiy!

Asarlari mag'zin uqqan har odam,  
Barkamollik sari tashlaydi qadam,  
Hikmatlari hayat yo'lida hamdam,  
Millat quyoshidir ustod Navoiy!

Asrlar oshsa-da mudom yod etib,  
Ulug'vor timsolin bunyod etib,  
O'qib-o'rganamiz ruhin shod etib,  
Millat quyoshidir ustod Navoiy!

Bahor tuhfasi buyuk,  
Ellar uchun u suyuk.  
Qadri baland bahorning,  
Rizq-ro'z keltirgan oyning.



## TINCHLIK POSBONLARI

Ming shukr, ozodmiz, erkin, baxtiyor,  
Ko'zlarda chaqnaydi shodlik yog'dusi.  
Yurtimiz sevuvchi o'g'lonlar bisyor,  
"Tinchlikni asray" deb o'char uyqusi.

Yovga qalqon kuchga to'la bilagi,  
Jonin ayamaydi mard-u jasurlar.  
Vatan obodligi – ezgu tilagi,  
Xotirjam baxtimiz posboni – shular.

Botir o'g'lonlarin faxr-la suyib,  
Keksalar qo'l ochib mudom duoda.  
Tinchlikning beqiyos taftini tuyib,  
Yashashdan ortiqroq baxt yo'q dunyoda!

Tonglarimiz go'zal, sokin tunimiz,  
Shaxdamdir qadamlar, boshimiz mag'rur.  
Farovon o'tadi har bir kunimiz,  
Ozodlik bag'ishlar dillarga surur.





MADINA AZIZOVA  
7-sinf o'quvchisi

## SARBON

(Xudoyberdi To'xtaboyev xotirasiga)

Bir katta sahrodan o'tardi karvon,  
Yuklari juda ko'p, sanog'i yo'qdir.  
Biroq nimagadir yo'qoldi sarbon,  
Bunda vayron bo'lib yig'lagan ko'pdir.

Boshqa sarbon chiqdi yo'qotib g'ubor,  
Mayliga, shundaydir, axir cho'lida bu.  
Lek yo'qolgan inson xaritasi bor,  
Juda ko'p asqotdi uzun yo'lida u.

## O'ZBEGIM QIZLARI

Oftob kabi yorug' yuzi,  
Asal bolli shirin sozi.  
Ibo-hayo bobida ul  
Mohi tobon – o'zbek qizi.

Ro'mollari shamolda  
Yuzlarini o'raydi.  
Hatto shamol uyalib,  
Oynadan mo'rالaydi.

Sochlari mayda-mayda,  
Olcha misol lablari.  
Shunday go'zal qizlarning  
Paxtaday oq qalblari.

## NAVOIYNI ANGLANG!

Dovrug'i ko'klarda inon, har zamon,  
Anglang, hikmatlari barchaga in'om.  
"Panj ganj"idan hayratga tushadi osmon,  
Buni anglash kerak, biling, ey inson.

Eng go'zal maskanni qilgan u makon,  
Nomi ham ulug'dir Hirot, Xuroson.  
Nomlarin bilaylik hamisha, har on,  
Tanimaganlardan qolmasin nishon.

She'r yoza boshlagan deya onajon,  
Emikdosh do'stidir shoh Husaynjon.  
Mavzulari ko'pdir, bag'ri to'la qon,  
Navoiyni anglash bizlar uchun shon.

## ABDULLA ORIPOVNING "BAHOR" SHE'RIGA

"Yana bahor keldi, yana olamda,  
Ajib bir go'zallik, ajib bir bayot".  
Yana o'sha fasl, yana odamda,  
Nafis tuyg'ularni uyg'otar hayot.

Hech rassom emasman men sizga, lekin  
"Kelinchak"ning rasmin tutarman.  
Oymomo uyquda, quyosh-chi sekin,  
Uyg'onib kelishin kutarman.

Tog'lar orasidan mo'ralar quyosh,  
Cho'qqilar ham asta to'kadi ko'z yosh.  
Oqshomdag'i chiroqlar o'chadi birdan,  
Uyqudag'i odamlar ko'taradi bosh.





ZIOLAXON SHOMURODOVA  
6-sinf o'quvchisi



## OVQAT TAYYORLADIM, KELING, DADAJON!

Ish qilib yursalar gohida oyim,  
Men ovqat qilay deb ruxsat olardim.  
Ba'zan shirguruchmi yoki quymoqmi,  
O'zim bilganimcha ovqat qilardim.

"O, qanday shirin-a, qanday shirin" deb,  
Arzimas ovqatim yegan paytingiz,  
"Uy bekacham mening, ishchan qizim" deb  
Maqtovlarga ko'mib erkalardingiz.

Keling, dadajonim ovqat qilyapman,  
Sizga aniq yoqar bu galgisi ham.  
Ancha shirin chiqqan avvalgilardan,  
Axir katta bo'ldim ozroq bo'lsa ham.

Boshimda ro'molim, fartuk belimda,  
Ko'rinishim qanday, ayting dadajon.  
Meni mushtoq qilmay kelaqoling-da,  
Sizziz qorong'u-ku bu yorug' jahon.

Ko'zmunchoq'im deya erkalashingiz,  
Sog'indim, dadajon, juda sog'indim.  
Mana yig'layapti uy bekachangiz,  
Sog'indim dadajon, juda sogindim.

Bugun o'tiribmiz mana to'rtovlon,  
Oramizda yo'qsiz, endi na chora.  
Indamay o'tirar ma'yus, parishon,  
O'rningizga boqib onam bechora.

Dadajon, qayg'urmang, bizni o'ylab siz,  
Endi onamizni bizlar asraymiz.  
"Onangizni aslo xafa qilmangiz",  
Degan gapingizni doim eslaymiz.

Aziz xotirangiz asrab yurakda,  
Ota-onamizni sevib yashaymiz.  
Hamisha birmamiz ayro bo'lsak-da  
Qaynoq mehringizni sezib yashaymiz.





## QODIRIYMEN

Men bir g'arib elning o'g'li,  
Ko'zi mungli, dili dog'li,  
O'zi sher-u, qo'li bog'liq,  
Qalbi yaro Qodiriymen.

Vatanim xor bo'lmagay deb,  
Erk g'ururi sinmagay deb,  
G'animga bo'y sunmagay deb,  
Chekdim jafo Qodiriymen.

Mazlum bo'ldi ona tilim.  
Mahkum bo'ldi dono elim.  
Ko'ksim bo'ldi tilim-tilim.  
Xor-u ado Qodiriymen.

Haq esam-da, ko'rdim zindon.  
Mayli, g'anim kului xandon.  
Tik tutarmen boshni hamon,  
Eg'mam aslo Qodiriymen.

Qo'rkoqlarning qatag'oni,  
Mard elining pok vijdoni,  
Nohaqlik, zo'rlik qurbanı,  
Bir begunoh Qodiriymen.

Mana, keldi men aytgan kun.  
Vatanim hur ozod bugun.  
Shu tabarruk istiqlo'dan,  
Boshim samo Qodiriymen.

Qirq to'rt yillik ijod bog'im,  
Avlodlarim-qalb ardog'im.  
Sizlar-men suyangan tog'im,  
Bo'ling a'lo, Qodiriymen.

Qarang o'ng-u so'lingizga,  
Zamon sizning qo'lingizda,  
O'gitlarim yo'lingizga  
Nur-u ziyo Qodiriymen.

Baxt sizgadir, davron sizga,  
Ozod yer-u osmon sizga,  
E'zozlang deb qalbingizga  
Bergan saboq Qodiriymen.

Erkka yetdim, yillar o'tib,  
Kunni ko'rdim kutib-kutib,  
Nurli peshonangiz o'pib,  
Aylay duo, Qodiriymen.





SAODAT YOQUBOVA  
9-sinf o'quvchisi

## QAYTGIN, BOLALIGIM!

Uzoq-uzoqlarga bosh olib ketsam,  
Balki tog'-u toshni men makon etsam,  
Darbadar oshiqday dunyoni kezsam,  
Qaytib kelasanmi, aytgin, bolalik?

Seni qaydan izlay: dengiz, daryodan,  
Yoki qidiraymi cheksiz sahrodan,  
Yoki izlayinmu olis samodan,  
Qaytib kelasanmi, aytgin, bolalik?

Eh, mening o'ynoqi go'dak chog'larim,  
Gullar iforiga to'lgan bog'larim,  
Qolmas edi qalbda armon dog'larim,  
Qaytib kelsang edi, jo'shqin bolalik!

## SOZIM

Gohida ko'ksimga sig'mas bu yurak,  
Sening-la yangraydi qo'shiqlar, tilak.  
Yuragim egasi sen bo'lsang kerak,  
Sening-la barhayot bo'lgay ovozim.

Sozim, nolishingdan jonlanadi tosh,  
Doimo yonimda sen menga sirdosh.  
Sensiz tashvishlarga bermasman bardosh,  
Sening-la barhayot bo'lgay ovozim.

Mahzun sadolardan eriydi ko'ngil,  
Jonga jon singadi, huzurlanar dil.  
Sendan ayro aslo yasholmasman, bil,  
Sening-la barhayot bo'lgay ovozim.

Sen-la umriboqiy ijodim mangu,  
Yonimda hamrohsan, menda yo'q qayg'u.  
Qalbimga solasan bir ezgu tuyg'u,  
Sening-la barhayot bo'lgay ovozim.

## QADRI BALAND O'ZBEKİSTONIM!

Jannatlardan go'yo qiyos olgan diyor,  
Ajdodlardan menga meros qolgan diyor,  
Yuragimga ezgu hislar solgan diyor,  
Qadring menga osmon qadar, O'zbekiston!

Bu zaminni hadya etmis qodir Olloh,  
Ajdodlarning ruhi bizga doim panoh,  
Seni sevmay yashamoqlik erur gunoh,  
Qadri menga imon qadar, O'zbekiston!

Ko'z tegmasin iqbolingga, munchoq bo'lay,  
Daraxt bo'lsang, men tanangda yaproq bo'lay,  
Osmon bo'lsang, poyingda men tuproq bo'lay,  
Qadri menga ummon qadar, O'zbekiston!





GULMIRA RAVSHANBEKOVA  
9-sinf o'quvchisi

### AJIB DUNYO

Ko'ngilni o'rtagan armon bu dunyo,  
Dildagi dardlarga darmon bu dunyo.  
Yomonlar g'olib-u, yaxshilar ba'zan  
Adolat topolmay qolg'on bu dunyo.

Ko'z ko'rgan narsani haq deb bilamiz,  
"Nechun shunday?" deya yurak tilamiz.  
O'zni aldab ba'zan shodon kulamiz,  
Barcha shodliklari yolg'on bu dunyo.

Umr oqar daryo, oqib ketadi,  
Kim afsus-la ortga boqib ketadi.  
Armonlar yuragin yoqib ketadi,  
Bizni ne kuylarga solg'on bu dunyo.

Gunoh botqog'iga botdik-ku ba'zan,  
G'azabdan tosh kabi qotdik-ku ba'zan.  
Kimgadir tuhmatlar otdik-ku ba'zan,  
Ko'ngil ko'zimizni kech ochg'on dunyo.

Goho bizga achchiq saboq o'rgatding,  
Nima rostdur, nima yolg'on – ko'rsatding.  
Cheki yo'qday g'urbatning ham zahmatning,  
Sinovlarga to'lib-toshg'on bu dunyo.

Balki, sermashaqqat sinovlar kutar,  
Kimmnidir yutarman, kimlardir yutar.  
Qalbimni doim bir umid yoritar,  
Mardlar doim dovon oshg'on bu dunyo.



### SOHIR SO'ZGA MUHABBAT

Ko'nglimdan joy olmish sohir bir navo,  
Boshqalar bir dunyo, men o'zga dunyo.  
Bir ojiz qalamim qo'lda hamrohim,  
So'zning ishqini meni qilmoqda ado.

Yaralgandan beri bu ko'hna ochun,  
Qancha oshiq ash'or bitdi sen uchun.  
Men ham so'z zargari bo'lmoq istayman,  
So'zning ishqini meni qilmoqda zabun.

Yuzlanaman senga dilda armonim,  
Sen mening borlig'im, jonim, jahonim.  
Yashayman to abad sen bilan birga,  
She'riyat atalmish nurli bo'stonim.

Bu gulshanning shoh-u sultonlari bor,  
Men oshiqning dilda armonlari bor.  
Kun kelib she'rxonlar degaylar toki:  
"Gulmiraning go'zal zabonlari bor".





## VATANGA

Har tongim yorug'dir Vatan bag'rida,  
Hayot ishqil bilan urar yuragim.  
Qalbda orzulardan totli nashida,  
Vatan rishtasiga payvand tilagim.

Qalbimda barq urgan ishqim Vatanga,  
Ko'zimga to'tiyo go'zal diyormi.  
Bayotim bulbuldek qo'nib chamanga,  
Tarannum aylagay ko'ngilda borim.

Men so'z sohiblari avlodidirman,  
Nodira, Uvaysiy, Zulfiya qizi.  
Moziydan merosni she'r zavqi bilan,  
Quvvat olib borar yangi ildizi.

Mening taqdirimdir, ey ona Vatan,  
Sening iqbol sari qo'ygan qadaming.  
Yorug' tonglariningda bitib har satrim,  
Baxt quyoshi porlar baxsh etgan daming.



## EY, QOR

Ko'nglimga berasan gul yanglig' chiroy,  
Alam to'lgan qalbga daldasan, ey qor.  
Go'yo men sen bilan borman dunyoda,  
Xush kelding o'lkamga sen yana bir bor.

Yog'sang, dil quvnagay, ko'zlar porlagay,  
Yurakdan ketadi g'am-g'ussa, alam.  
Qani, topsam edi men ham olamda  
Sendayin ko'ngli pok, dili pok hamdam.

Yog'ding yana bu kun ko'nglim to'ldirib,  
Senga qo'shilib men aytaman qo'shiq.  
Mayli, ketsin dildan tarqalib g'ubor,  
Dunyoga kelmagan mendayin oshiq.

Qarg'alar qag'illab kezar bag'ringda,  
Yayrashar, quvnashar ular quvonchdan.  
Meni ham olib ket olis osmonga,  
Dardlarim arisin, yo'qolsin dildan.

Yog'aver, qalbimning beg'ubor tongi,  
Yog'aver to'ldirib yurtimni qorga.  
Yana bir uchrashish nasib etganda,  
Sirdosh bo'l, malham bo'l dildagi torga.

Yodimda bir umr qolgin sen, ey qor,  
Dilimni yayratib yog'aver, ey qor.  
Senga oshiq dillar yayrasin, kulsin,  
Zaminni erkalab quchaver, ey qor!





ZİYODA SAPARBOYEVA  
9-sinf o'quvchisi

### BAXTLI BOLALIK QADRI

Eh! Mening beg'ubor, go'zal onlarim,  
Rosayam sog'indim, sen-chi, ayt menga.  
Betakror, betimsol, sho'x bolaligim,  
Hayot sirlarini aytaymi senga.  
Bahor yana qaytar – kelinchak, gulyuz,  
Bolaligim sira qaytmaydi, afsus!

Bolalik, mislsiz zavq-u shavqlarim,  
Xayol og'ushida yashaganlarim.  
Qaniydi, ketmasang, sho'x-shodonligim,  
Aytgin menga, seni xafa qildi kim?  
Bahor yana qaytar – kelinchak, gulyuz,  
Bolaligim sira qaytmaydi, afsus.

Hoy mening qadrdon, qaytmas bahorim,  
Qayoqqa ketyapsan, ketmagin, to'xta.  
Qaytmaysanmi endi, jon qadrdonim,  
Hech kimga ishonma, gaplardir soxta.  
Bahor yana qaytar – kelinchak, gulyuz,  
Bolaligim sira qaytmaydi, afsus!

Istardim, uka-yu singiljonlarning,  
Bolalik kezlari zo'r – quvnoq o'tsin.  
Istardim, u damlar qaytsaydi deya,  
Xayolda bo'lsa-da, quvonib kutsin.  
Bahor yana qaytar – kelinchak, gulyuz,  
Bolalik baribir qaytmaydi, afsus!!!



### HAYOTDA HECH KIMGA KUNING QOLMASIN...

Armon azobida qolib ketsang ham,  
G'amlar girdobida yonib ketsang ham,  
Bir kun bu dunyodan tonib ketsang ham,  
Hayotda hech kimga kuning qolmasin.

Ko'nglingni yaralab tilib ketsalar,  
Sendan foydalanib ko'kka yetsalar,  
Ko'zyoshlar ing ko'rib huzur etsalar,  
Hayotda hech kimga kuning qolmasin.

Yaqin oralasa sen tomonga yov,  
Kimlarga bo'larsan balki sen bir ov,  
Ichingda yonsa-da alamli olov,  
Hayotda hech kimga kuning qolmasin.

Charxi kajraftordan diling ezilsa,  
Butun olam senga tersdek sezilsa,  
O'rish-u arqog'ing g'amdan eshilsa,  
Hayotda hech kimga kuning qolmasin.

Yaqinlaring sendan o'g'irsa ham yuz,  
Ishongan bog'ingga kelsa hamki kuz,  
Mardona bo'l doim, shodlik kuyin tuz,  
Hayotda hech kimga kuning qolmasin.

Dunyoning yuki gar boshingda tursa,  
Dushmaning do'stman deb qoshingda tursa,  
Boshingga yetsa-yu, oshingda tursa,  
Hayotda hech kimga kuning qolmasin.

Senga tilak tilay: do'sting tonmasin,  
Qalbing g'iybat gulxanida yonmasin,  
Har ne yonsa yonsin, vijdon yonmasin,  
Hayotda hech kimga kuning qolmasin.

"Metinday kuchli bo'l!" – elning tilagi,  
Halollikkdan qaytma, shudir keragi,  
Bordur Ziyodaning bitta istagi:  
"Hayotda hech kimga kuning qolmasin".

\*O'rish – matoning uzunasiga o'tgan iplari

Arqoq – matoning o'rishi bilan ko'ndalangiga kesishuvchi iplari

### ONA TABIAT

Ajib yomg'ir qayg'um yuvib ketadi,  
Qor-la qalbim dardi erib ketadi.  
Osmon o'z qa'riga olib ketadi,  
Tabiat – dardimga darmonim o'zing.

Gohi osmon yig'lar, sinar ko'ngillar,  
Gohi kulib turar, yayraydi dillar.  
Tabiat tiliga tushundim yillar,  
Tabiat – she'rimga ilhomim o'zing.

Tabiatning tilin angladim bu kun,  
Yomg'ir-la o'tirib ko'p suhbat qurdim.  
Bu dunyo yaraldi, bu o'zi fusun,  
Tabiat – sirga kon ummonim o'zing.

Kechalar quyoshni ko'kdan axtardim,  
Kunduzi yulduzni yerdan izladim.  
Goho oyga dilda dardim so'zladim,  
Tabiat – sirlashgan zabonim o'zing!



CHAROSXON TILLAYEVA  
9-sinf o'quvchisi

### YOMG'IR TAROVATI

Yomg'ir yog'ar samodan rizq-ro'z bo'lib,  
Yog'ar yana bir bor ko'ngilni xushlab.  
Sevinadi dillar, jo'shar yuraklar,  
Qololmas hech kimsa qo'lidan ushlab.

Yashil maysalarda o'zga tarovat,  
Mayin shabadalar yelar falakda.  
Jo'sh urar qalblarda shirin harorat,  
Topolmay unga so'z shoir halakda.

Oh! Ona zaminning yoqimli hidi,  
Ko'ngilni quvnatar, dilni yavratar.  
Nega bulbullarning nozikdir didi,  
Yoqimli kuylarin buncha sayratar.

Balki, osmondagi tomchilar asli  
Bir mahzun yurakning faryodimasmi?!

Qalblarni larzaga keltirar sasi,  
Shoh va shoir Bobur nidosimasmi?!

Qalbimning to'rida nafis bir joyni,  
Sening iforingga to'ydirib qo'ydim.  
Yomg'ir tomchilari to'ldirar soyni,  
Toza suvlaringdan ichib men to'ydim.



SHAHRIZODA OTAYEVA  
9-sinf o'quvchisi

Qamar sochar ko'kda yog'du, xayolimda sening yoding,  
Majnuntolim, tinglamayman endi sening oh-u doding.  
Bo'ldi, ortiq qiynamagin menday g'arib bechorani,  
Muhrlagim kelmaydi hech bu yurakka sening oting.

Falak yorishmoqda menga gulzoridan gullar tutib,  
Qo'limdagı surating ho'l, ko'z yoshimning suvin yutib.  
Taqdirimiz qaro bo'ldi qaldirg'ochning qanotiday,  
Ilojisi bo'lsa edi, yashar edim seni kutib.

## OQSHOMLARI MAJNUNTO LLAR

Oqshomlari majnuntollar tun qo'ynida dam oladi,  
Sokin kecha og'ushida ko'ngillarga o't soladi.  
Tuproq ko'cha aro kezgan oyoqlarning tovushiga  
Egilib-la asta-asta salom berib u qoladi.

Ko'ngillarning rohlariga parvo qilmay ketaverdim,  
Kavokibning yog'dusida o'zim sarson kezaverdim.  
Gah gardunning jafosiga giriftorlar bo'lsam hamki,  
Baxt quyoshi borligini ich-ichimdan sezaverdim.

Boraverdim, yuraverdim, yaktagimdan ter yugurar,  
Ichim qaynab, tilim o'ynab, yuragimga qon yugurar.  
Dilsizlarning dillaridan mening qalbim yuz o'g'irar,  
Eh, majnuntol sirlaringni menga aytgin, kimlar bilar?

Ko'z qirimni tashlasam-da, anglayolmam mingdan birin,  
Jafokashim, aytaqolgin nurli yo'lning menga sirin.  
Sochlaringni silaguvchi senga sodiq ul bodning ham  
Arta olarmikan hatto johillarning ko'ngil kirin.

Qo'lim bog'liq, dilim dog'liq, bu dunyodan o'tar bo'lsam,  
Saratonda shu soylardan yuzimga suv urar bo'lsam.  
Majnuntolim, meni kutgin, agar yana qaytar bo'lsam,  
Nashtardayin kiprigimni yuragingga sanchar bo'lsam.

Oqshomlari majnuntollar tun qo'ynida dam oladi,  
Bir-biriga termulishib, ayro qalblar jim qoladi...



## ORZULAR OG'USHIDA

Yer betiga chiqqan maysalar  
Ko'ngil torlarining naylarin chaldi.  
Amu qirg'og'idan asta mo'ralab,  
"Baxtim topdim" deya yana yuksaldi.

Mag'rib-u mashriqdan kelgan sadolar,  
Ilm-u urfon elin bahramand etdi.  
Quyoshdan taralib kelgan tuhfalar  
Odamzod qalbiga mo'jiza eltdi.

Shu'ladek ko'rinar ko'zim oldida  
Hayot chorrahasi kesishgan nuqta.  
Soniylar sayin burchim his etgum  
Yelkamga ortilgan salmoqli yukda.

Shafaq yanglig' olam bo'lur namoyon,  
Kapalakday giryon bo'lib aylangum.  
Viqorga burkangan zamin yuzida  
Jon nisor qilmoqlik uchun shaylangum.

Murg'ak bu qalbimni tog'lar ichidan  
Yastangan vodiya yetaklab chiqdim.  
Oyoqyalang kezib, ajib vodiyan  
Poyonsiz ummonning qa'riga cho'kdim.

Ummonda ko'rinar yalt-yalt etgan nur,  
Sarson bo'lmay deya qalbim tingladim.  
Alvon yelkanli bir kemani ko'rib,  
Hayot qo'shig'ini jo'shib kuyladim.

Baxtim shu aslida, aytaman takror,  
Bilmaganlarim ko'p, qancha behisob.  
Hali men bilmagan baxtlar bisyordir,  
Hali men qilmagan orzular serob!



MADINA BAHODIROVA  
9-sinf o'quvchisi

## YO, RABBIM OLLOH

Bugun quyosh chiqdi ma'yuslik bilan,  
Ko'nglim mahzun tortdi, g'amlari toshdi.  
Yuragim yig'ladi dardlarim bilan,  
Ko'z yoshim daryodan, dengizdan oshdi.

Hayotning bepoyon yo'llari bo'y lab,  
Yugurdim, yeldim-u, yetmadi qo'lim.  
Ummonlarning cheksiz suvlari yanglig',  
Yoshlarim sel bo'ldi, yo'qotdim yo'lim.

Yashayman hayotda yo'lim qidirib,  
Yashayman Ollohga tavakkal qilib.  
Yuzim kuladi, lek yig'laydi qalbim,  
Dardlarim yashirib, yuragim tilib.

Jimjidir bu dunyo, samolar yiroq,  
Qo'lim uzatarman olis osmonga.  
Ollohim, iltimos, o'tinchim xolis,  
Qo'lim uzatmayin aslo yomonga.

Bardosh bergin menga, daryodan oshay,  
Dardlarim orqamga irg'itib otay.  
G'amlarsiz men ham bir ozgina yashay,  
Shodlikning ta'mini men ham bir totay.

Chidayman bariga sen borsan yolg'iz,  
Ishonaman senga, Yo Rabbim Olloh!  
Umid-la yashayman, yuragim ojiz,  
Boqmay qo'yma menga, Yo, Rabbim Olloh!



CHAROSXON ABDULLAYEVA  
9-sinf o'quvchisi



## DILDAGI SO'ZLAR

Bir parcha go'sht misol keldik hayotga,  
Tushunib bo'lmas bu turfa bayotga,  
Istasangiz, qulqoq tuting xitobga,  
Bu kun dilda so'zlar ummondek toshdi.

Chidamas hikmatga o'tkir charxpalak,  
Nomardlar qalblari qilichdan darak,  
Ovunchoq topolmay bu ko'ngil halak,  
Pok dildagi so'zim tinglanmay o'chdi.

Kerakdir oqibat ko'ngli yarimga,  
Nolalar yashirin yurak torimga.  
Aytmoqlik istayman ojiz qalamga,  
Lek u dildan chiqmay qaygadir qochdi.

O'zim bir jonman-u, biroq qalb ikki,  
Yurak ikki qalbga bermoqda dakki,  
Bir vujud bo'lsin u uzilmas toki,  
Aniq manzil topmay xayollar ko'chdi.

O'zga dardin bilmay yerda yuribman,  
Turtib o'tsalar ham, kulib turibman,  
Nihoyat, men shuni anglab yetibman.  
Kim ham bu dunyodan nuqsonisz o'tdi?!

Baqirsam, ovozim yetmas tog'larga,  
Ingrasam, boqmaslar mungli ko'zlarga,  
Hasadgo'y hasadin yoqmas o'tlarga,  
Inson asli nechun dunyoga keldi?!

O'zi bu olamda teng, rostlik bormi,  
Eh odamlar, sizga bu dunyo tormi,  
Asli haqgo'y bugun yo'llarda xormi,  
Nahot bu yo'l bizdan olislab ketdi?!

Aytmoqqa so'z topmay tilim sukutda,  
Dil qulfin ocholmay titrar qo'rquvda,  
Bu mitti yuragim nechun qiynoqda,  
Dardlarin aytolmay azobda qoldi.

Yaratganga shuni aytaman faqat,  
Otasiz qalblarga bergaysan toqat,  
O'tinchim, orzumni etgin ijobat,  
Uzr endi, dil so'zlar daryoday toshdi.





## HAYOT QADRI

Munavvar tong otdi, behisob shukur,  
Tetik qil badanni, vaqtli tur, yugur.  
Anhordagi suvni yuzingga bir ur,  
Qo'ygin ginalarni, kerakmas g'ovur.

Charx misol vaqtingni g'animat bilgin,  
Har bir qadamingni o'ylanib bosgin.  
Noo'rin ishlardan qo'lingni tortgin,  
Babra ol hayotdan, lazzatin totgin.

Do'st yonida har on so'zlarin tingla,  
Ular-la birdamlik kuyini kuyla.  
Volida, padarga baxtingni so'yla,  
Omonat dunyoda ko'nglini xushla.

Jismdag'i ruh ham senga vaqtinch'a,  
Harakating qilgin kuching yetguncha.  
Tebran, quloq tinch-ku, deya yurguncha,  
Yurt uchun kuyib-pish o'la-o'lguncha.



MOHICHEHRA QADAMOVA  
9-sinf o'quvchisi

## HAYOT MAVJLARI

Hayot varaqlarin ko'zdan kechirib,  
Qalbdagi g'uborlar barin o'chirib,  
Sadoqat, oqibat malikasini  
Topdim o'zbegimning Zulfiyasini.

Nazm bog'imdag'i bulbulimdirsiz,  
Ezgulikka tashna qalbim suyanchi,  
Mung'aymagan umr bog'bonidirsiz,  
Izdoshlar ishongan o'tli suyanchi.

Otash qalblarga ko'chgan chaqinsiz,  
Nafis gullardayin qalbga yaqinsiz,  
Gul-u rayhonlarning iforlariday,  
Bahorga burkangan mangu qo'shiqsiz.

Daryolar jilovin, fazo yaylovin,  
Zabt etib mulk etgan matonatdirsiz.  
Uni yorqin, jo'shqin tuyg'ular bilan  
Qalb ila boyitib oshgan dovonsiz.

Yana bahor keldi, sizni so'roqlab,  
Biroz sukut ichra o'ylanib oldim.  
Sizni ko'rmoq istar bu tashna yurak,  
Yosh bir nihol bo'lib, armonda qoldim.



CHAROSXON MATCHONOVA  
9-sinf o'quvchisi



OMONOVA O'G'LJON  
9-sinf o'quvchisi

## O'LKAMIZNI BEZAGAN BAHOR

Nega bahor gulga o'xshaydi?  
Boqib ko'zlar to'ymas sehriga?  
Bulbul, sa'va, qumri xonishi  
Shavq ularashar bahor fasliga?

Barglardagi shudringlar tushsa  
Yerga sekin, sirpanib asta.  
Rassom chizgan bahoriy jilva,  
Ilhom berar dilga birpasda.

Mushkianbar xushbo'y hididek,  
Bahor kirib kelar o'lkamga.  
Chor-atrofda bulbul navosi,  
Xushovozi yoqar dilingga.

Ijodkorning ijodi bahor!  
Kirib kelar har azon – nahor.  
Qalbimizdan ketkazib g'ubor,  
O'lkamizni bezagan bahor!



## TUT DARAXTI

Maktabdan keldim va darrov bobomlarnikiga yugurdim. Bobojonim har doim maktabdan kelishimni intazorlik bilan kutardilar. Men esa darhol yonlariga kirib, ularni mahkam quchoqladim.

- Keldingmi, bolajonim? Bugunam "5" oldingmi?
- Ha buvajon, bugun 4ta "5" oldim.
- Voy, zo'r bo'pti-ku?! Qani shu asal qizimni bir o'pay, - deb peshonamdan o'pib qo'yardilar. Bobom tushlikdan keyin, ko'pincha bog'ga oshiqardilar. Bir tut daraxtiga suyanib, uni silab-siypardilar. Men esa hayron bo'lardim. Bir kuni:
- Buva, nega shu daraxtni juda yaxshi ko'rasiz? Bu daraxt sizga qadrlimi? - deb so'rab qoldim.
- E bolam! Nimasini aytay! U men uchun juda qadrli. Rahmatli amakimdan yodgor. Buni ular bilan birga ekkanmiz. O'shanda olti yosh edim, chamamda. Qiziquvchanligim qursin, darrov amakilari haqida so'ray boshladim.
- Amakingiz-chi? Ular necha yoshda edi? Qanday vafot etganlar? Ayting.
- Mayli, qizalog'im. Hozir shu supaga o'tiraylik. Bismillohi rahmoni rahim. Men ularning bir og'iz so'z aytishlarini kutib, katta ko'zlarimni ularning og'ziga mo'ltiratib qarab o'tirardim. Bobom gap boshladi:
- E, bu paytlarni eslasam, vujudimni titroq bosadi. O'sha bo'yłari baland, qop-qora qosh-ko'zli navqiron amakim ko'z oldimiga keladi. Esimda, o'sha paytda ular 26 yoshda edilar. Men bilan xuddi yosh boladay o'ynardilar, xursand bo'lishim uchun og'zimdan tushganini muhayyo qilardilar. Menga ular dadamdan ham qadrli edilar. Bir kuni amakim meni bog'ga chaqirib qoldilar:
- Kel, Omonjon, kela qol. Mana bu tutni birga ekamiz. Oyog'imni qo'limga oldimda, ular tomon yugurdim. Amakim bilan shu darajada mehr bilan bu ko'chatni ekdikki, uning yonidan hech ham ketmasam, der edim.

Kunlarning birida uyimizga ikkita harbiy kiyim erkak keldi va buvimga bitta konvert tutqazdi. Buvim hayajon bilan bu konvertni ochdi. Unda urush boshlanganligi to'g'risida yozilgan bo'lib, oilamizdan bir erkak ketishi kerakligi

aytilgan ekan. Bu gaplarni eshitgan buvim yig'lab yubordi. Qosh qorayishi bilan maslahat boshlandi. Men eshik tirqishidan ularni kuzatardim.

– Oyi, urushga men ketaman, – dedi dadam. Bu gapni eshitgan buvim yig'lab yubordi. Amakim esa:

– Yo'q, aka, men ketishim kerak. Sizning oilangiz, ikkita o'g'lingiz bor. Kelinoyim bu gapga chiday olmaydilar, – dedi. Dadam esa:

– Esingni yig'. Aqling joyidami?! Sen ham oila qurishing, farzandlar ko'rishing kerak. – dedilar. Amakim:

– Men hali yoshman, kuch-quvvatim joyida. Albatta, urushdan eson-omon qaytaman, katta to'ylar qilamiz. Aka, farzandlaringizga rahmingiz kelsin. Omonni, Mahmudni o'ylang, - dedi. Bu gaplarni eshitgan dadam:

– E, ukaaa, meni qiynama... – deb chiqib ketdilar.

Erta tong otdi. Uyg'onganimda uyda hech kim yo'q edi. Hamma yoqni qaradim. Oxiri ko'cha boshiga chiqdim. U yerda oyim, dadam, buvim va suyukli amakim turardi. Buvim amakimga kulcha non tutqazib, tishlatib oldilar. Keyin buvim, dadam bilan ham ancha quchoqlashib turishdi. Keyin amakim mashinaga o'tirdi. Mashinada amakimning do'stlari ham bor edi. Men amkim buni xayolimga keltirmasdim. Amakim bizlarni tashlab qayoqqadir ketyaptilar, deb o'yladim va yugurdim:

– Amaki, amaki, qayoqqa ketyapsiz? Meniyam olib keting. Amaki, – deb qichqira boshladim. Amakim urushga ketayotganini qayoqdan bilay? Uning dahshatlari haqida, urushga ketayotgan odamning taqdiri haqida men jajji go'dak nimalarni ham bilardim!?

– Bolam, to'xta, - deb oyim, dadam yugurdi. Dadam meni mahkam quchoqlab yig'lab yubordilar. Negadir mening ko'zimga ham nam yugurdi. Dadamni turtdimda, qo'llari orasidan chiqib, uyg'a oshiqdim. O'sha tut ko'chati yoniga bordim. Amakim meni tashab ketdi deb, uni yilib olmoqchi bo'ldim. Ammo ichimda qandaydir bir kuch bunga to'sqinlik qildi, vujudimni titroq bosdi va uyg'a kirdim. Ho'ngrab yig'lay boshladim. Meni ota mehridan mahrum qilishni istamay, jonini xatarga qo'yib, jangga otlangan amakimdan istirohat bog'iga meni tashlab ketib qolganday xafa edim ...

Oradan kunlar, yillar o'tdi. Urush hamon davom etardi. Amakimni juda sog'inardim. Har gal ularni eslaganimda, shu tutning yoniga kelardim. Men 8 yoshga kirganimda uyg'a pochtachi kelib, dadamga bir xat tutqazdi. Dadam xatni o'qib, o'zini yo'qotib qo'ydi. Buvim yugurib keldi-da:

– Hoy, Nurmat. Nima bo'ldi? Razzoqimga bir nima bo'libdimi? Gapirsang-chi?  
– deb bezovtalana boshladi. Dadam zo'rg'a:

– Oyi, bu...bu qoraxat, - deb yig'lab yubordi. Buvim dod-faryod solib yig'lardi. Ularni sira to'xtatib bo'lmasdi. Mening ham bo'gzimga nimadir tiqildi ... Yugurib tutning yoniga bordim va uni quchoqlab, xuddi dardkashini topgan insonday tinimsiz yig'lardim...

Bu gaplarni aytayotgan bobom chin dildan yana siqildi. Men endi bilgandim.

Bu bobom uchun shunchaki oddiy tut daraxti emas, balki uning bolaligidan yodgori, eng qayg'uli damlaridagi dardkashi edi. Endi men ham daraxtga o'zgacha mehr qo'ydim. U endi mening uchun ham qadrli edi, chunki u insoniylik fazilatini hamma narsadan ustun qo'yan bir mehribon qo'l bilan ekilgan edi ...





NARGIZA MATQURBONOVA  
8-sinf o'quvchisi

### ORZULARIM

Orzularim osmondir mening,  
Olib yurar oy va quyoshni.  
Orzularim ummondir mening,  
Charchamagan silliqlab toshni.

Orzularim yulduzdir mening,  
Shu'lalarga chulg'ar osmonni.  
Orzularim irmoqdir mening,  
Mavjlantirar tubsiz ummonni.

Orzularim quyoshdir mening,  
Zulmatda ham socholur yog'du.  
Orzularim – kapalak mening,  
Orzularim – chopqir bir ohu.

Orzularim she'r ekan mening,  
Haybatidan arslon qo'rquvchi.  
Orzularim sel ekan mening,  
Tog' bag'ridan sizib oquvchi.

Orzularim – laylakqor mening,  
Yer ahliga baxt ulashuvchi.  
Orzularim – oq tulpor mening,  
Bulutlarga chin do'st bo'lguvchi.



### O'ZBEK AYOLI

Ko'z tegmasin, gard yuqmasin origa,  
Oy botinmas boqishga ruxsoriga,  
«Shukur» deya ko'nib yashar boriga,  
Basti uzra muqim qirqta kokila,  
O'zbekning ayoli mudom oqila.

So'zlagan so'zlari shirin, muloyim,  
Chehrasidan nur yog'ar kulta doim,  
Joning nisor etgulik o'zbekoyim,  
Mehri go'yo oqib turgan shalola,  
O'zbekning ayoli chunon oqila.

Shams-u qamar lol qolar chiroyiga,  
Qora qoshin kamoniga, yoyiga,  
Hatto osmon alishtirar oyiga,  
Uying yashnab turar uning bori-la,  
O'zbekning ayoli shunday oqila.





## USTOD NAVOIY

Hirot minoridan taralgan shu'la,  
Nizomiy ganjiga panja urgan sher.  
Ma'sum boqqanicha sirli dunyoga,  
Xazina yaratdi buyuk Alisher.

Munavvar quyoshi bo'ldi olamning,  
Mudroq qalblarga ham baxsh etdi shifo.  
U donish so'zlardan tomgan ma'rifat,  
U Layli ishqidan taralgan ifor.

Osmondan termulgan bir parcha oy ham  
Yarim ko'ngli kabi to'lmay gohida.  
Bir go'zal vasfini o'ylab tun-u kun,  
Ul Qays Majnun bo'ldi ishq sahrosida.

Ulug'vor tog'larning bardoshi kabi,  
Farhod komilligi misli bir dunyo.  
Ishqiy satrlarda balqib turadi,  
Shirinning yuzida balqigan hayo.

Ezgulik abadiy, yaxshilik boqiy,  
Lek umr o'tkinchi, bu umr foni.  
Lek foni dunyoda qalbga naqsh qilib  
Nomini qoldirdi ustod Navoiy!



## SABR-U SADOQAT

Azoblarga yetgan bardoshi,  
Qayrilmagan aslo ortiga.  
Mag'rur turgan shu tillo boshi,  
Sodiq qolgan o'zin ahdiqa.

Qayg'urmagan chekkan g'amiga,  
Bukolmagan qaddin dard, alam.  
Saidaxon ko'zin yoshiga  
Ijod ila topolgan malham.

Sabr-u sadoqati, vafosi,  
Sitamlarga yetgan bardoshi.  
Bor mehrini berib ketganlar,  
So'nmas aslo uning safosi.

## SIZ MENGA JUDA HAM KERAKSIZ, OPA

Oollohimdan bizga berilgan ehson,  
Shu mag'rur boshimga qo'ngan tilla toj.  
Ko'p yolg'on aytardim bolaligimda,  
Qurib ketsin, o'sha yolg'onchi durroj.

Sarbonim bo'ladi bosgan yo'limga,  
Shodligin ko'rganda quvnaydi ko'zim.  
Quyoshdek porlatar so'ngan qalbimni,  
Baxtimni kuylovchi mitti yulduzim.

Sog'indim bolalik shirin kuylarin,  
Xotiram titaman, olsaydim topa.  
Bir nafas ko'rmasam o'ksiydi ko'nglim,  
Siz menga juda ham keraksiz, opa!

O'qib-o'qib nahot shunday bo'ldimmi?  
O'zimcha osmonga uzataman qo'l.  
Sizsiz bir odim ham otolmayman-ku,  
Sizsiz ko'nglim suvsiz – qurib qolgan cho'l.

Ulg'ayganda bildim qadringiz, opa,  
O'ynamaymiz endi siz-la qo'g'irchoq.  
Avvalgiday endi soch tortqilash yo'q,  
Ko'rishganda siz-la ochamiz quchoq.

Hayot chiroqlari yonyapti asta,  
Mashinalar emas, kerak o'yinchoq.  
Sochlardan endi jamalagim yo'q,  
Qo'llarimda esa o'sha ko'zmunchoq...

Yana sizni eslab, sog'indim, opa,  
Qo'llarimga bugun tutganda qalam.  
Balki, siz ham har dam eslarsiz meni,  
Shuncha xafa qilib qo'ygan bo'lsam ham.

Ulgurmadi, afsus, qilaman attang,  
Doimgiday yana men kechga qoldim.  
Shunchalar harakat qilsam-da, ammo  
She'rni sizdan keyin qo'gozga soldim.

Nima bo'lsa bo'lsin, sog' bo'lsangiz, bas,  
Baxtdan porlab tursin chaqnoq ko'zingiz.  
Bir umrga ajralmay bo'laylik birdam,  
Menga do'st kerakmas, do'stsiz o'zingiz!



SHARIFA OZODOVA  
8-sinf o'quvchisi



## BUVIJONIMGA

Sizdek buvim borligiga  
Ming shukurlar qilayin.  
Tan-joningiz sog'ligini  
Ollohimdan so'rayin.

Niyatlarim xolis bugun,  
Oshsin orzum amalga.  
Buvijonim, yuzga kiring,  
Chalinmang hech kasalga.

Sizning aziz boshingiz  
Ne tashvishlar ko'rmadi,  
Guldek nozik qalbingiz  
Qay azoblar chekmadi.

Bu qaro ko'zlariningiz  
To'kdi qancha achchiq yosh.  
Buvijon, yuzga kiring,  
Doim bo'ling bizga bosh.

Sochlaringiz oqligin,  
Qorlarga qiyos etdim.  
Kuchli bardoshingizni  
Tog'larga qiyos etdim.



Sizning umr yo'lingiz  
Doimo saboq bizga.  
Buvijon, yuzga kiring,  
Ezgu tilaklar sizga.

Men sizning poyingizga  
To'shagayman jonimni.  
Duo-la bezagaysiz  
Har lahza, har onimni.

Sharifa nevarangiz  
Yozdi sizga atab she'r.  
U sizni jondan sevar,  
“Buvijonim – jonim” der.



LAZIZA SHARIFBOYEVA  
8-sinf o'quvchisi



### JAHONIM ONAM

Dardli bu dunyoda nima topganim,  
Nima izlaganim bila olmadim.  
Mehringizga to'yib yashadim har dam,  
Jon desa, jonimning jahoni onam.

Ko'kda quyosh, qalbimizda bo'lsin ziyo,  
Tashvishlardan ozod bo'lsin bu dunyo.  
Mehrining cheki yo'q farishtaganim,  
Jon desa, jonimning jahoni onam.

Bag'ringizda baxt sharbatin ichdim,  
G'am-qayg'u neligin sira bilmadim.  
Taftingizda ayoz hech ham sezmadim,  
Jon desa, jonimning jahoni onam.

Shodlik-u baxtimda yuring har doim,  
Bu dunyo turguncha turing iloyim.  
Umrin osmonida to'lgan humoyim,  
Jon desa, jonimning jahoni onam.





RUXSHONA YO'LDOSHEVA  
8-sinf o'quvchisi



MUSHTARIYBONU BAHODIROVA  
8-sinf o'quvchisi



## KIMYO – MO'JIZALAR MAYDONI

Kimyo fani fanlar ichra  
Mo'jizaviy bir maydondir.  
Uning sirin anglaganga  
Yumush, ish ancha osondir.

Mendeleyev jadvalidan  
O'rIN olgan elementlar.  
G'aroyibdir bir-biridan  
Moddalar-u reagentlar.

Farovon, to'kis hayotni  
Yaratish uchun dunyoda.  
O'qing, uqing siz qunt bilan  
Kelajak bordir kimyoda!



## HAYOTGA DIL IZHORIM

Muhabat-la gul-u tikoning bilan,  
Qalbimdag'i orzu-armoning bilan,  
Gohida chin, gohi yo'lg'oning bilan  
Seni mangu jordan sevarman, hayot.

Ketsam, ortda biron izim qolarmi?  
Bahorlarim tugab, kuzim qolarmi?  
Elim ichra mangu so'zim qolarmi?  
Seni mangu jordan sevarman, hayot!





### SHE'RIYAT GULI

Qalba darmon bo'lib yashnagan gulim,  
Tunlar ifordingdan yorishar dilim.  
Ba'zida bahorda bag'ri qon, tilim,  
Bo'lsang-da tinglaysan qayg'u va sirim.  
Sen sabab ardoqlar meni bu elim.

Men senga hech qachon qilmam xiyonat,  
Sen sabab o'rgandim imon, diyonat.  
Sen berasan menga kuch va matonat,  
Abad yasha, mening jonim omonat,  
Yo'qlagin yo'qlikka ketgan u kunim.

Mening so'zim sen-la dunyoni kezar,  
Shirin kalomlarim dillarni bezar.  
Unutilish hissi qalbimni ezar,  
Mening g'arib ko'nglim she'riyat sezar,  
Inchunun abadiy yashnagin, gulim!



### MEHR BERAYLIK

Mehr qimmat emas va yoxud arzon,  
Barchaga qilaylik uni armug'on.  
Tangri in'om etgan shundayin imkon,  
Mehrni ulashib yashaylik, do'stlar.

Mehr olmos emas, mehr oltinmas,  
Mol-u davlat bilan sotib olinmas.  
Ulashib, kam qolib hech kim nolinmas.  
Mehrni ulashib yashaylik, do'stlar.

Kimdir shoh, kim sulton va yo bir gado,  
Ajal yetar, bo'lurmiz barchamiz ado.  
Oxiratga savob yig'ib doimo  
Mehrni ulashib yashaylik, do'stlar.





## TONG TASVIRI

Ko'k yuzini bezar jilvakor,  
Jamolini ochganda quyosh.  
Shafaq ila yorishar olam  
Gullar unga bo'ladi sirdosh.

Yer yuzida yayrab nish urgan  
Maysa dedim: shudring jolasi.  
Ko'ksimdag'i tug'yon aslida,  
Dedim: misli quyosh nolasi.

Saharda esgan mayin sabolar,  
Eltadi menga gullar iforin.  
Barg yuzida shabnamni o'psam,  
Eslatar har chog' yurtim bahorin.

Tonggi orombaxsh o'sha yellar,  
Yulduz qanotining tovlanishidir.  
Tog' ko'ksida barq urgan quyosh,  
Bodom gullarining nozlanishidir.



PARIZODABONU BUNYODOVA  
8-sinf o'quvchisi



## SHE'RIYAT NIMA O'ZI?

Shoir kim-u, she'riyat nima o'zi,  
Savolimga har dam javob izlayman.  
Qalb tug'yoni yoki dil izhorimi,  
Tushunolmay hali-hanuz o'layman.

Bilganim, she'riyat – misli bir daryo,  
Sho'ng'iganing sari kengayar go'yo.  
Mavjlari qirg'oqdan toshgani sari,  
Hayratga solishi emasdur ro'yo.

Mening ham qalbimda g'alati hislar,  
Qo'limnga qog'oz-u qalam tutqazar.  
Qirg'og'idan toshgan daryo misoli,  
Dilimdagi so'zlar qog'ozga ko'char.

Kun kelib shoira bo'lish istayman,  
Elning dardi ila yonish istayman.  
Xalqim, senga manzur she'rlar yaratib,  
Ogahiya izdosh bo'lish istayman.





SUNNATULLA RAJAPOV  
8-sinf o'quvchisi



## BOBUR SOG'INCHI

Tavallud topdilar Andijon elda,  
Sarson bo'ldilar goh dasht-u qirlarda,  
Goho Afg'oniston, goh Hindistonda,  
Ona yurt ishqila o'rtandi Bobur.

Qanchalar yiroqlab ketgani sari,  
Yurt sog'inchi o'rtar, ketmasdi nari.  
Omad, shon kelsa ham ochilmas bahri,  
Vatanga talpinib yashadi Bobur.

Yengdilar qanchalik kulfat-g'amlarni,  
Qog'ozlarga to'kdi bor alamlarni,  
O'zga elda qurdi taxt - qasrlarni,  
Shunda ham yurtini qo'msadi Bobur.

Yillar to'fonida sinaldi bobom,  
Lek taslim bo'lindi, kurashdi mudom,  
Sha'niga dostonlar etadi davom,  
Dillarda abadiy yashaydi Bobur!



## ONA TILIM

Menga baxt tilovchi bo'lgandek samo,  
Turgani uchun ham baxtga to'libman.  
O'z tilim madh etay dildan doimo,  
Abdulla bobomdek bulbul bo'lib men.

O'zbek tilin bilsin har o'g'il, har qiz,  
Tilimda yangrasin betakror sozim.  
Har dilni sehringga etavergin jalb.  
Qadring baland bo'lsin, yangra, ovozim!

## OTAJON, ONA!

Yurak yig'laydi-yu, ko'zlarda nam yo'q,  
Sog'inch o'ti ezar bugun ko'nglimni.  
Go'yoki yurakka tegdi daydi o'q,  
Go'yoki yuragim xohlar o'limni.

Kimlarnidir izlar, intizor bu ko'z,  
Nega azoblidir, eh, hayot yo'lim?  
Bugun yuragimdan chiqar bitta so'z:  
"Bunday yashagandan afzaldir o'lim".

Yurak isyon qilar, jism turar jim,  
Qalbim kimlarnidir izlar parvona.  
Yurak, sen menga ayt, senga kerak kim?  
Menga siz keraksiz, otajon, ona!

\* \* \*

Hammada ham ona bor, ammo  
Hamma bilmas qadrini uning.  
Bilib qo'ygin shafqatsiz samo,  
Uni olar kutmagan kuning.

Shundan keyin qolib noiloj,  
Qabriga ko'p tutasan gullar.  
Ammo endi ular foydasiz—  
Onangni shod qilmaydi ular.

Undan ko'ra tirik paytida  
Gilam bo'lgan, yurgan yo'liga.  
Qabriga gul qo'ygandan ko'ra,  
O'sha gulni bergil qo'liga.

\* \* \*

Nima bo'ldi bu yuragimga?  
Isyonlar yo'q, vujudim sokin...  
Titroq, o'ylar yo'qolar asta,  
Yurak sevdi, azoblar tekin.

Nima bo'ldi bu yuragimga?  
Ingraydi-yu, baqirmas ammo,  
Yurak sevdi, sevilmay lekin,  
Shundan beri chiqmaydi sado.

Nima bo'ldi bu yuragimga?  
Ortib borar sukut tobora.  
Qalbim – bola uyqusiday tinch,  
Tanim daydi ruhdek ovvora.

Nima bo'ldi bu yuragimga?  
Hissiyotlar daryodek toshar.  
Kimdir aytar: u – go'zal bir tush,  
Shunday tushki, o'ngingda yashar.



HAYOTXON OTABEKOVA  
8-sinf o'quvchisi



## QOR

Mayin momiq kabi yog'ar oppoq qor  
Daraxt novdalarin siypalab asta.  
Kurtaklarin ochgan daraxt shoxlari  
Ajib oq libosin kiyar birpasda.

Daraxt kurtaklari yuzin berkitib,  
Mayin qor raqsini tomosha qilar.  
Qor bilan yuzlarin yopgan maysalar  
Ajib go'zallikning guvohi bo'lar.





MASHHURA İBRAGIMOVA  
7-sinf o'quvchisi



## USTOZ

Ilm nuri aro yaralgan shu'la,  
Yillar o'tgan sari yuksalar kengroq.  
Dunyoda shundayin insonlar borki,  
Yonidan ketsangiz, ko'nglingiz mushtoq.

Onamday oqila, mehribon ayol,  
Har so'zi xazina, har so'zi rangdor.  
Hammaning ongida faqat bir xayol,  
"Menga kulgu hadya etsaydi takror!"

Sizni sog'inamiz har on intizor,  
Har kecha tushlarning mehmoni sizsiz.  
Kimningdir oyisiz, kimningdir guli,  
Men uchun eng porloq nurdirsiz tengsiz.

She'rlaringiz shodlik baxsh etar dilga,  
Har bandida go'yo sizni izlaymiz.  
Qo'limizdan tutib, chorlaysiz baxtga,  
Siz bilan zavq ila shodon o'qiymiz!



## O'ZING KIFOYA

Vatan! Qalbimdagı muqaddas tuyg'u,  
Hamisha barhayot tabarruk tuproq.  
Sen haqda o'ylasam, chekinar qayg'u,  
Yurakda mavjlanar yoqimli titroq.

O'zga bir yurtlarga bo'lmasman shaydo,  
Chunki menga beminnat bergansan hayot!  
Yursam, yo'llarimga to'kilar yulduz,  
Sendan har qayg'umga topgumdur najot.

Orzu-maqсадларим topmas nihoya,  
Yayrab o'smoqdaman, porloq istiqbol.  
Dunyolar kerakmas, o'zing kifoya,  
Bugun jamolingdan butun olam lol.

Yana yuksalmoqqa sezib ehtiyoj,  
Olg'a intilamiz, yurakda g'urur.  
Har ezgu niyatga topilur iloj,  
Muhimi, bayrog'im hilpirar mag'rur.

Men shoir emasman va yoki notiq,  
Qalbdagi tug'yonning chizgilari bu.  
Asli sening madhing bundan-da ortiq,  
Seni ardoqlayman, maqsadimdir shu!





BARCHINOY SAN'ATBEKOVA  
7-sinf o'quvchisi



## BAHOR

Barglarga qarasam, shudring tushibdi,  
Samolarda qushlar uchib yuribdi.  
Dunyo bezanibdi xuddi kelinchak,  
Boychechak shamoldan qochib yuribdi.

Daraxtlar go'yoki oq to'nin yechib,  
Vatanim mo'jiza, sehrga to'ldi.  
Bolalar samoga varrak uchirib,  
Beg'ubor yuraklar mehrga to'ldi.

Tashqarida mayin shabada esar,  
O'ynashar, yayrashar anvoysi gullar.  
Bahor kelganidan quvonib kuylar  
Xushovoz, xushnavo, oshiq bulbullar.



ATAJANOVA HULKAROY  
7-sinf o'quvchisi



## BAHOR YOMG'IRI

Daraxtlar shoxlarin to'zdirib har yon,  
Shamollar esadi u yon va bu yon.  
Qayga shoshar ekan, qay manzil tomon,  
Seni dim istabman, bahor yomg'iri.

Har tomching-la tomar ezgulik nuri,  
Senda jamuljamdir sof mehr tafti.  
Bobo dehqonlarning eng ulug' baxti,  
Seni dim istabman, bahor yomg'iri.

Shitirlashing erur yurakka malham,  
Zamin ham oladi sen yog'ganda dam.  
Rangorang kamarin taqibdi olam,  
Seni dim istabman, bahor yomg'iri!





ZARNIGOR RO'ZIMATOVA,  
7-sinf o'quvchisi



\*\*\*

Men dardlarga ezilmay qo'ydim,  
Hayot ko'z o'ngimda mavjlanmas.  
Yuragimga alamni ko'mdim,  
Qalbim quvonch ila zavqlanmas.

Qalb og'risa, o'zimdan dedim,  
Baxt kulmasa, dedim taqdirdan.  
Mehr ko'rmay ancha o'trandim,  
Zavq chekindi menday haqirdan.

Hayot, sendan o'tingum juda,  
Ortda qoldir armonlarimni.  
Baxt qo'shig'i ila to'ldirgin  
Har daqiqam, har onlarimni....

Men kurashdan qo'rmasman also,  
Chekinmayman ortimga hecham.  
Faqat menga mehr in'om et,  
Shunda meni yenga olmas g'am!

Shunda menden chekinar alam!  
Senga rahmat, qadrdon qalam!



## OTA

Yig'lamangiz bu dunyoda, otajon,  
G'amlar qalbingizni qo'ymasin ezib.  
Otajon, yurakda dardlaringiz ko'p,  
Bildirmay deysiz-u, qolaman sezib...

O'tkir nigohingiz eslatar menga  
Farzandlik burchi, ham or-u nomus.  
Siz menin suyangan ulkan tog'imsiz,  
Nasihatlarining hayotiy qomus.

Siz menin mehribon otajonimsiz,  
Qalbingiz bir ummon, mehrga to'la,  
Baxtimga sog' bo'ling, yurgaysiz omon,  
Dunyoyim siz bilan sehrga to'la.





SARVARA KARIMOVA  
6-sinf o'quvchisi

### QALBIM OSHNOSI

Mana, yana tomchilamoqda yomg‘ir,  
Go‘yoki dardlarim tushungan havo.  
O‘zim ovutmoq-chun derazam ochsam,  
Uzoqlardan taralar ajib navo.

Bilmayman, bu qanday sas, qanday ovoz,  
Balki, bu osmonning nola, faryodi.  
Balki, shitirlagan yomg‘ir tomchisi,  
Yoki odamzodning so‘ngsiz xayoli.

Nimaligin anglamadim, bilmadim,  
Lekin bu ohangni eshitar dilim.  
Goh o‘yga tolaman, goho esa jim,  
Shunday taskin topar bu mahzun ko‘nglim.

Mana yana tomchilamoqda yomg‘ir,  
Go‘yoki g‘amlarim tark etdi ko‘nglim.  
Lekin boyagi sas to‘xtamas sira,  
Oshno bo‘lgan ekan bu sasga dilim.

Yuvdi ko‘z yoshlaram shu kecha yomg‘ir,  
Qalbdagi g‘amlarim oldi bechora.  
Yomg‘ir tindi. Quyosh chiqdi ketidan,  
Keyingisin kutarkanman, nachora.

### ONAJON, SOG‘INDIM SIZNI JUDA HAM!

Esimda, yoshligim o‘tgan ko‘chalar,  
Esimda, siz yopgan shirmoy kulchalar,  
Sog‘inchdan yuragim mungli kuy chalar,  
Onajon, sog‘indim sizni juda ham.

Chehrangizni ko‘rib quvonar ko‘zim,  
Derdingiz: “Quvonchim, mening yulduzim”.  
Ishoning bu, albat, mening chin so‘zim,  
Onajon, sog‘indim sizni juda ham.

Ko‘zimga yosh to‘lsa, ovutardingiz,  
Agar men quvonsam, quvonardingiz.  
Istadim bir qarab jilmayishingiz,  
Onajon, sog‘indim sizni juda ham.

O‘zingiz “Quyosh” deb atalgan najot,  
O‘zingiz farishta, faqat yo‘q qanot.  
Dunyoda o‘rningiz bosolmas hech zot,  
Onajon, sog‘indim sizni juda ham.

Ko‘nglingiz og‘ritgan bo‘lsam, kechiring,  
Ijobat bo‘lguvchi duolar qiling.  
Tushlarimga kiring , tabassum qiling,  
Onajon, sog‘indim sizni juda ham.

Ona, kutib turing, hali boraman,  
Yonimda siz uchun sovg‘a olaman.  
Men sizga munosib farzand bo‘laman.  
Sizni juda – juda yaxshi ko‘raman!

Ona, Onajonim!..





SARVINOZ BOLTAYEVA  
6-sinf o'quvchisi



## KAPALAK

Turfa xil kapalaklar  
Qanot qoqarkan go'zal.  
Ajib gullarga qo'nib,  
Biri biridan o'zar.

Quyoshning nurlaridan  
Zavqlanib chunon uchar.  
Ochilgan g'unchalarni  
Sevinchga to'lib quchar.

Kapalagim, senga gul  
Yoqishini bilaman.  
Do'stlaring bilan kelsang,  
G'uncha sovg'a qilaman!



## KAPALAKJON

Kapalakjon, kapalak,  
Qo'nsan guldan gulga.  
Kela qolgin, kapalak,  
Ochasan mendan nega?

Bog'imga kirgan chiroy,  
Taralar xushbo'y ifor.  
Bo'lsin senga u saroy,  
Quvnashaylik, ey dildor.

Seni ko'rsa ko'zlarim,  
Porlab ketar sevinchdan.  
Ketmagin, hoy kapalak,  
So'lib qolmay o'kinchdan.

Sayr etayin sen bilan,  
Yayraylik birga-birga.  
Gul terayin sen bilan,  
Ulashaylik do'stlarga!





## BAHOR KELDI

Bahor keldi ko'k libos bilan,  
O'rik guli unga ko'rak, chiroy.  
Hamma yoqqa taratib ifor,  
Yurtimizga xush kelding, Bahor.

Qaldirg'ochlar uchishib shodon,  
Ayvonomiga uya qurmoqda.  
Chug'ur-chug'ur qilib tong sahar,  
Yurtimizga xush kelding, Bahor.

Bahor she'r-u shoirlar fasli,  
Zulfiyaxonim ham ilk kuni  
Tug'ilganlar bahorga xumor,  
Yurtimizga xush kelding, Bahor

Bahor berar dillarga quvonch,  
Sumalakdan totamiz yana,  
Boychechakka yetishdi diydor,  
Yurtimizga xush kelding, Bahor.

## SIZSIZ BU OLAMDA TENGI YO'Q INSON

Onalar – dunyoda juda ulug' zot,  
Ta'riflashga tillar ojizdir biroq.  
Qancha maqtasam-da, bo'lar bu kamroq,  
Ona ulug' inson, buyukdir, o'rtoq!

Sizni har dam, ona, yaxshi ko'raman,  
Ko'rganimda doim quvnar ko'zlarim.  
Har soniya, har vaqt sizni qo'msayman,  
Madhingiz aytmoqqa ko'pdir so'zlarim.

Qizalog'im dersiz, erkalab-suyib,  
Xavf-xatardan mudom qilib himoya.  
Nima kerak bo'lsa, boricha berib,  
Bo'lasiz o'zingiz bizga hamsoya.

Mehr berib jon dildan yaxshi ko'rasiz,  
Sehringiz bir dunyo, aziz onajon!  
Doim bizlarni deb kuyib-pishasiz,  
Sizsiz bu olamda tengi yo'q inson!





NILUFAR JUMABOYEVA  
6-sinf o'quvchisi



\*\*\*

Hayot sinoviga boqib mardona,  
Hulkar va Omonga ota ham ona.  
Baxning sadolarin taratgan zamon,  
Hijronda qoldirdi Hamid Olimjon.

Zulfiyaxonimdek bo'lish osonmas,  
Udir matonatli, vafodor ayol.  
Ular biz izdoshga yo'l ko'rsatguvchi,  
Dengizda mayoqday, kechada hilol.

Zulfiyaxonim e'zozlab so'zni,  
She'riyatga bag'ishlab o'zni,  
Mushoiralardan yayraydi ko'ngil,  
O'tli ijodiga bog'lanadi dil.

Sizdan o'rgansalar arzir sadoqat,  
Bahorni kutgan urug'dek toqat.  
O'zbekning qizisiz ardoqli,  
She'ringizda yashaysiz abad!



### SUMALAK SEHRI

Keldi fasli navbahor,  
Chechak yerdan bo'y cho'zar.  
"Omonlik-somonlik" – deb,  
Buvilar ko'zga surar.

Yangilanish, yasharish,  
Beg'ubor yoshlik asli.  
Xalqimizning tilida  
"Dehqonning bedor fasli".

Doshqozon atrofida,  
Yig'iladi yosh, keksa.  
Sumalakni yeganda,  
Ketar ekan g'am-g'ussa.

Arazlashgan yarashar,  
Tosh solib orzu etar.  
Yosh-u keksa bridayin,  
Shodlikka to'lib ketar.

Sumalakning xush hidi,  
Dimog'larni chog'laydi.  
Sumalak ko'ngillarni,  
Bir-biriga bog'laydi!





UMIDBEK REYIMBERDIYEV  
6-sinf o'quvchisi



SHABNAM EGANOVA  
6-sinf o'quvchisi



### MANA BAHOR KELYAPTI

Uyg'onadi kurtaklar,  
Dala-dashtda chechaklar,  
Entikadi yuraklar,  
Do'stim, bahor kelyapti.

Qo'llarimizda varrak,  
Quchar osmon-u falak.  
Mana bahordan darak,  
Do'stim, bahor kelyapti.

Qozonlarda sumalak,  
Atrofi to'la malak,  
Aytamiz ezgu tilak,  
Do'stim, bahor kelyapti.



### ONAMNI SOG'INGANIMDA

Sog'insam keladi yoshlar ko'zimga,  
Goho kelolmayin qolsam o'zimga,  
Itroat qilmasa dilim so'zimga,  
Men sizni eslayman, aziz onajon.

Kulish o'rninga men yig'lasam nogoh,  
Suratingiz menga tashlaydi nigoh.  
Ta'riflashga so'zlar ojiz qolsa goh,  
Men sizni eslayman, aziz onajon.

Tushlarimda kezib yurganmiz birga,  
Oppoq libos kiyib, jilmayib menga.  
Uyg'ongim kelmaydi bu tushdan sira,  
Men sizni eslayman, aziz onajon.

Poyingizga guldan to'sharman gilam,  
Quvonchdan qo'limga olgayman qalam.  
Bizga kulib boqsin butun bir olam,  
Men siz-la baxtliman, aziz onajon!





SHAHRIZODA AHMEDJONOVA  
6-sinf o'quvchisi



### SHE'RIMGA

Xayolimda kechgan o'ylarim  
Vazn qolipiga solib yozarman.  
Ba'zan sig'may qolar turoqqa,  
Qofiyaga qalbni olarman.

She'rim!..  
Sen menin dilimdagi gul,  
Zabonimni aylagan bulbul.  
Qalam, qog'oz bo'ldi sirdoshim,  
Seni tanib, gulladi ko'ngil.

She'rim!..  
Sen menin umrim ovunchi,  
Yuragimning sevinch-u nuri!  
Qalbim ummonidan izlagan,  
Eng qimmatli gavhari-duri!



### XAYOLOT OLAMI

Mening suzib yurganim,  
Ilm-urfon ummoni.  
Unda har fan bir orol,  
Tanitadi dunyonni.

Goh "orollar" ochib biz,  
Goh kitoblar o'qiymiz.  
"Yelkanlar"ni yig'ib goh,  
Go'zal she'rlar to'qiymiz.

Suzdim xayolan izlab,  
"Ona tili" orolin.  
Barcha sirin ochaman,  
O'qib, uqib kitobin.

Ona tilim, olib bilim,  
Hikmat durin tuzarman.  
Ilm ummonida hali  
Uzoqlarga suzarman.





GULIRA'NO OTABEKOVA  
6-sinf o'quvchisi



## OGAHIY BOBOMIZ VA IJOD MAKTABIMGA ATAB

Mutafakkir shoir, donishmand siymo,  
Zabardast mutarjim, ham Piyri kalom.  
Ko'hna Xivamizning shoir o'g'loni,  
Buyuk so'z sohibi – Oga hiy bobom.

Fors, arab tillarin mukammal bilgan,  
Tafakkur daryosin mohir g'avvosi.  
Javohirlar, dur-u gavharlar tergan,  
She'riyat mulkida dillar e'zozi.

G'azal, muxammaslar birdayin go'zal,  
Mustahzod – barkamol, ruboiy – yetuk.  
Mazmundor har asar, tabarruk har so'z,  
Ey donishmand bobom, siz mangu buyuk.

Mana sizga atab maktab ochildi,  
Qadamjolaringiz chamadir gulgun.  
Haykalingiz bizning ro',  
Go'yo termuladi hammadan mamnun.

Sizdan meros turar ona tut bog'da,  
Yangi nihollarni ekamiz biz ham.  
Siz hali tirksiz, yonimizdasiz,  
G'azallar o'qiysiz shu bog'da har dam.

Ijod maktabidir jonajon maktab,  
Bizlar sizning mitti izdoshlaringiz.  
Kelajakda, albat, biz ham siz kabi  
She'riyat bog'ida bog'bon bo'lamiz.

Tashakkur aytamiz yurtboshimizga,  
Shinam, ko'r kam maktab bag'ridamiz biz.  
Ona Vatanimiz ishonchin oqlab,  
Ilm olib, barkamol inson bo'lamiz.





MARJONA ABDUMALIKOVA  
9-sinf o'quvchisi

Ming sinov berdi hayot,  
Dardlar chekkan, bedorim.  
Men uchun najotimni  
Asra, Parvardigorum.

Ozorlar berdim har dam,  
Hayotdagi panohim.  
Men uchun yashar onam,  
Asra har vaqt, Ollohim.



### “ASRA ONAJONIMNI” SHE'RIGA NAZIRA

“Unut, ming g'am, dard chekdim,  
Unutdim tik shonimni.  
Faqat Olloh, tiz cho'kdir,  
Asra onajonimni!”\*

Bo'lsa ham menda gunoh,  
Doim olgan yonimni.  
Ozorlar berdim nogoh,  
Asra mehribonimni!

Tunlari bo'lgan chirog';  
Ham quyoshim, ham oyim.  
Yuragida ko'pdir dog',  
Asra uni, Xudoyim.

Bemor bo'lsam tunlari,  
G'amlar chekkan ziynatim.  
Baxtim o'ylar kunlari,  
Asra mening Jannatim.

\*Halima Xudoyberdiyeva satrlari



SEVINCH AKRAMJONOVA  
9-sinf o'quvchisi

Eshitaman tovushlarini,  
Sayroqi qush yoqar baridan.  
Sovg'a qilgan kitoblari-yu,  
Rangi o'ngan ko'yaklaridan.

Hayot charxi aylanaverar,  
Oqqan daryo oqmay qolmaydi,  
Vaqt o'z hukmin o'tkazaverar,  
Ammo unda onam bo'lmaydi.



### “ONAM YODI” SHE'RIGA NAZIRA

“Bolaligim. Avji saraton.  
Dala. Tog‘-u toshlar ko‘ymakda.  
Onam ishga otlanadi tong,  
Rangi o‘ngib ketgan ko‘ylakda.”\*

Shamol yuzin mayin siypalab,  
Ko‘zda yoshni artib yeladi.  
Va samoda suzgan bulutlar,  
Qo‘shilishib bag‘rin tiladi.

Rangi o'ngan o'sha ko'yakda,  
Onam hamon yo'lda boradi.  
Qo'llariga bitilgan chiziq  
Haqiqatga dardin yoradi.

Yuragimning dard nolasini  
Kuyga solar asl sozanda.  
Ammo onam allalarini  
Chala olmas hech navozanda.

\*Halima Xudoyberdiyeva satrlari



MUXLISA HAMIDJONOVA  
9-sinf o'quvchisi



YORQINOV QO'ZIBEKKOVA  
9-sinf o'quvchisi

### ONA QALBI

Olis-olislarga termilgan ko'zlar,  
Tinim bilmay sog'inch haqida so'zlar,  
Xomush ko'rindi - ma'yusdir yuzi,  
Farzandini o'ylar kecha-kunduzi.

Horg'in ko'zlaridan to'kilib ko'zyosh,  
Yuragiga qayg'u-hasrat in qurar.  
Chuqur botib borar bo'lib go'yo tosh,  
Onaning dardini yangilab turar.

Axir bu mushtipar onadir - o'sha,  
Farzandin yuborgan o'tli janggohga.  
O'g'li bilan birga qalbini qo'sha  
Jo'natgan urushga - ayovsiz chohga.

Urush tugadi-yu, lekin onaning  
Yolg'izgina o'g'li qaytmadi bu kun.  
Va fayzin yo'qotib dil koshonaning  
Bag'rida uyg'otgan sog'inchlardan un.

Shu o'ylar onaning yuragin ezar,  
Tinimsiz chorasiz ko'nglini kezar.  
Xomush ko'rindi - ma'yusdir yuzi,  
Farzandini o'ylar kecha -kunduzi...



### KO'NGIL SADOSI

Hayot so'qmog'ida yurarkan inson,  
Yo'lida uchraydi, beshak, to'siqlar.  
Gohida g'amgindir, gohida shodon,  
Hayot kuylayverar turfa qo'shiqlar.

Pand yeydi ba'zida ko'ngil sirdoshsan,  
Nohaqlik asiri bo'lar goho qalb.  
Daryo to'lar ba'zan oqqan ko'zyoshdan,  
G'amlar tinim bilmay qilaversa jalb.

Lek sinovni yengish uchundir hayot,  
Biling yengolmaydi qaynoq sabrni.  
Tabassumlar qilib yashagan zahot  
Unutib yuborar inson jabrni.





MUXLISA RAJABALIYEVA  
9-sinf o'quvchisi



## TONG

Ufqdan ko'tarilgan quyoshning nuri,  
Tongning otganidan beradi darak.  
Nurlarga to'ladi inson shuuri,  
Shodlikdan yorishar har bir dil, yurak.

Maysalar erinib ochishadi ko'z,  
Shamol mayin yelpar daraxt ko'ylagin.  
Shudring yaproqlarga aytar izhor – so'z,  
Olamning eng go'zal oppoq tilagin.

Sayroqi bulbullar ko'ngilga yorqin  
Hislarni baxshida etajak in'om.  
G'amlar unutilar, qayg'ular horg'in,  
Ollohga shukurlar aytamiz shu on.

## BAHOR

Lolalar ochilar bamisol gilam,  
Qaldirg'och peshtoqdan aylaydi makon.  
Yulduz kabi porlar ko'ngil zavqi ham,  
Nurlarin sochgaydir yurt, quyoshiston.

Maysalar ochishar erinib ko'zin,  
Bog'larni qoplagay qiyg'os kurtaklar.  
Ko'ngillarga ko'chgan shukrona so'zin,  
Aytishadi bot-bot ezgu tilaklar.

Shu zayil o'lkamga kiradi bahor,  
Nafosat bog'ini aylaydi bunyod.  
Shodliklarga to'lar unda har nahor,  
Unda bo'lur ko'ngil g'amalrdan ozod.





## YORUG'LIK YOG'DUSI...

O'n ikki yoshligimda,  
G'o'r-u beboshligimda.  
Yurardim ko'p tutoqib,  
Qalbimda nurlar yoqib.

O'qishga qodir edim,  
Maktabga hozir edim.  
Yugurardim shoshardim,  
Shamoldan ham oshardim.

Birdan qoqilib tushdim,  
Ko'zimga parda tushdi.  
Ko'zlarim bo'ldi ojiz,  
Tushkunlikni qildim his.

Dadam keltirdi do'ktor,  
Dedi, bir davo yo'qdir.  
O'qishni xo'p xohlardim,  
Kitoblarni yo'qlardim.

Endi o'qiy olmayman,  
Deb ham o'ylardim xolis.  
Bilim ola olmayman,  
Axir, ko'zlarim ojiz.

14 yoshga to'lgan kun,  
Olib keldilar ustoz.  
Dadam dedilar shunda:  
O'qigin, husnixat yoz.

Ojiz ko'zlarimda ham,  
O'qiy boshladim shu on.  
Bularni ko'rib onam,  
Bo'ldilar juda shodon.

Hayotni ko'rdim shunda,  
Qalbim ko'zi ila men.  
Va o'yladimki shunday,  
Ustoz, ulug' zotsan sen.

Qalbimga yorug' yog'du,  
Bo'lib kirdi ustozim.  
Aytib o'taman har on,  
Ustoz, sizgadir ta'zim!





SITORA NAIMJONOVA  
9-sinf o'quvchisi



### KO'NGIL KITOBI

Nurini sochsa kitob,  
Tafakkurga foydali.  
Topgan ilmni shu tob,  
Dilimizga joylaylik.

Aylansin chin o'rtoqqa,  
Tushmasin qo'limizdan.  
Chiroq bo'lib har chog'da  
Porlasin yo'limizda.

Farzandlaring shod, quvnoq,  
Humo qushi boshingda.  
Nurin taratar har chog',  
Mehr bor quyoshingda.

Ollohim suygan o'lka,  
Dunyolar ham olgan tan.  
Syrating go'zal, ko'r kam,  
Ko'ksimdag'i jon - Vatan.

### QOR PARCHALARI

Oppoq libos kiyar archalar,  
Qarshilaymiz bu dam qish faslin.  
Ko'kdan tushib oq qorparchalar,  
Tuhfa etar ko'nglimga vaslin.

Mushtoq kutdim bu kunni har tong,  
Sog'inganman. Qorni quchaman.  
Sovqotsam-da, o'ynab qorbo'ron,  
Chanalarda tinmay uchaman.

Zavqin tuyib qor parchalarning...

### O'ZBEKISTON

To'kilgan kindik qonim -  
Suyugimsan, sen o'zing.  
Tengsiz O'zbekistonim,  
Buyugimsan, sen o'zing.

Totuvlik ko'rking asli,  
Mehribonlik senga xos.  
Bag'ring xushbo'y nafasli,  
Ko'ngillar qilar ixlos.

### QUVONCH QORI

Erib ketar qo'limda,  
Oppoqqina pardek qor.  
Men tuyaman ko'nglimda  
O'zgacha bir zavqi bor.

Erib ketar qorbobo,  
Boshsiz qolar chelak ham.  
Yana qor yoqquncha to,  
Intiq kutaman har dam.

## ONA VA VATAN

Onam meni har doim  
Gulqizim deb suyarlar.  
So'zlari ham muloyim,  
G'amimni yeb kuyarlar.

Bir lahza ham ayamas  
Aslo bizdan jonini.  
Biroq mudom sezdirmas  
Ko'rgan tashvish onini.

Koyiydi, xato qilsak,  
Yaxshilik tilab bizga.  
Onajonlardir, beshak,  
Mehribon o'g'il-qizga.

Vatan onamga qiyos,  
Sevaman shuning uchun.  
Ona Vatan oldida  
Bilaman, ko'pdir burchim.

Men intilib, albatta,  
Har on xizmatga shayman.  
Onajon, Vatan, siz-la  
Asli baxtli yashayman.



## EZGULIK BAYROGI

O'zbekning o'zligin anglatgan,  
Davlatim, faxrim-u taxtimsan.  
Ajdodlar yodini eslatgan,  
Ulug'lar e'zozi – baxtimsan.

Rango-rang ranglaring tovlar,  
Bo'lding sen Temurning ardog'i.  
Sen bo'lsang, yurakda nur yonar,  
Mag'rursan, yo'q ta'rif adog'i.

Hilpirab yuksakda sensan bosh,  
Sen bilan, kelajak hur, porloq.  
Ezgulik yo'lida sen quyosh,  
Osmonni yoritgan nur – Bayroq.



## QOCHOQ SHODLIK

Ko'plab kulgichlar yetaklab,  
Osmonlarda uchar quvonch.  
Barcha hislarni erkalab,  
Boshqalarga berar ishonch.

Ba'zan bo'lib qolar ayyor,  
Xursandchilik qilar har on.  
Sho'xlik bo'lsa u tez tayyor,  
Ulg'aymasdan hali-hamon.

Ishongandim senga doim,  
Ketib qolding uzoqlarga.  
Qaytib kelgin sen, iloyim,  
Tushib qolmay tuzoqlarga.



## “QAYDA BOR” SHE’RIGA NAZIRA

O’tar kunlar misli yel,  
Lek har dami zavqqa boy,  
Mehnatsevar, dilkash el  
Hech bo’sh kelmas, bo’lmas voy.  
Bunday el har joyda bor,  
“Bizda bori qayda bor”.

Yerni qo’msaydi osmon  
Arosatda bulut – oq,  
Hayot mazmunli hamon,  
Jonajon ona tuproq.  
Tuproqlar har joyda bor,  
“Bizda bori qayda bor”.

Bu tabiat betakror  
Yashil, go’zaldir libos,  
Bo’lib mahliyo, dil yor  
Mehribonlik unga xos.  
Tabiat har joyda bor,  
“Bizda bori qayda bor”.

Pand-nasihat so’zlari  
Mehrli boqar faqat,  
Bizdir ko’rar ko’zlari  
Bobolardir baquvvat.  
Bobolar har joyda bor,  
“Bizda bori qayda bor”.

Beqiyosdir har yog‘i  
Shukur yurt-tinch, sog‘-bu tan  
Mehrlidir quchog‘i  
Muqaddasdir bu Vatan,  
Vatanlar bor, dard oshkor,  
“Bizda bori qayda bor”.



E’ZOZA ABDUTOLIPOVA  
9-sinf o‘quvchisi

## SARDOBAJON

Sahar...  
Ko‘zin suvda ochdi Sardobajon,  
Beshigini quchib qochdi Sardobajon,  
Onasini yelkasiga mingazdirib,  
Suвлar yutib, suвлar kechdi Sardobajon.

Tandirida uzilmagan nonlar qoldi,  
To‘y – havasda bitgan yangi tomlar qoldi,  
Pishib-pishmay dalasida xomlar qoldi,  
Ko‘zyoshlarda oqib ketdi Sardobajon.

G‘unchalamay yanchildi dil kurtaklari,  
Yakson bo‘ldi duv ko‘kargan teraklari,  
Vahimadan dukullagan yuraklari,  
Hasratlari to‘lib – toshgan Sardobajon.

Ey Ollohim, qora kunlar bo‘lsin tamom,  
Sardobajon, tushunamiz holing yomon,  
Ming bor shukur, joning omon, boshing omon,  
Albat, do‘ppi topiladi, Sardobajon.

Ko‘zlarining art, qara, xalqing cho‘zmoqda qo‘l,  
Karvon-karvon saxovatga to‘lmoqda yo‘l,  
Yurtboshimiz madadkordir – xotirjam bo‘l,  
Ona xalqning mehrini ko‘r, Sardobajon.

\*Muhammad Yusuf satrlari



DILAFRUZ G'OFUROVA  
9-sinf o'quvchisi



### QUYOSH ISHQI

Qarang, qanday charog'on osmon,  
Quyosh yerni sog'ingan chog'i.  
Nur taralgan go'zaldir har yon,  
Bahor ochdi yana quchog'in.

Quyosh qishni yoqtirmay qo'ygan,  
U ko'klamni sevar men kabi.  
Bahor esa oftobni suygan,  
Porloq bo'lsin oshiqlar qalbi.

To'lib-toshar quyosh hislari,  
Horg'in tun-la almashinar joy.  
Yosh kelinchak sog'inch islari,  
To tonggacha cho'zib borar bo'y.

Zulmat osmon sokin yotadi,  
Firoq dardi ezadi hamon.  
Shu dam ko'kdan nurlar otadi,  
Xasta yotgan yosh bahor tomon.



### KO'NGIL SO'ZI ...

Tinchlik garoviga tikib tan-u jon,  
Va sergak tuolsa hamisha, har on,  
Yurtning xizmatida bo'lsa har o'g'lon,  
Qolar dorilomon kunlar abadiy ...

Hamisha asrasa aziz vatanni,  
Unutib qo'ymasa shavkat-u shanni,  
Har dam qalqon qilsa vujud-u tanni,  
Qolar dorilomon kunlar abadiy...

O'g'lonlar burgutdek marra ko'zlasa,  
Shijoat haqida yurak so'zlasa,  
Dillardan tinimsiz mehr qo'zg'alsa,  
Qolar dorilomon kunlar abadiy ...





### EHTIROM ...

Ko‘rdik qancha kasb-hunar,  
Yurakni chorlar bari.  
O‘ylasam, mehr unar,  
Ustozlik – kasb gavhari.

Notekis xato yo‘li  
Yiqitsa, qilmay shafqat.  
Ustoz suyanchiq bo‘lib –  
Qo‘lin cho‘zar beminnat.

Yetaklab borar har chog‘,  
Bilimlarning koniga.  
Bilmaydi – nedir charchoq,  
Mashaqqat bo‘stonida.

Qolar bo‘lsang noiloj –  
Jonkuyar mudom o‘zi.  
Va ma’naviy ehtiyoj –  
Asqotar har bir so‘zi.

Arzir, ming ta’zim qilsang,  
Qadrin bilib bu zamon.  
Tugamas, bitmas, bilsang –  
Ustozlarga ehtirom.



ABROR KARIMOV  
9-sinf o‘quvchisi



### “DA’VAT” SHE’RIGA NAZIRA

“Kunduz yurib yozdim, tun turib yozdim,  
Yozganda ko‘ksimga tig‘ urib yozdim.  
Dardlarimga siyoh kor qilmay qolgach,  
Qalamni qonimga botirib yozdim!”\*

Bizga merosdir bu bog‘-u chamanlar,  
O‘tgan bobolardan – buyuk zotlardan.  
Qaddingni tik tutib, ko‘zla marralar,  
Vataning sarhadin asrab yovlardan.

Har qarich yeriga tushirmayin gard,  
Aslo Vataningga qilma xiyonat.  
Yurtingni deb garchi kechsang jondan gar,  
Noming tarixlarda qolgaydir, albat.

Yurtning bayrog‘ini ko‘klarga ko‘tar,  
Dunyo tanib, endi aytsinlar ash‘or.  
Jannati yurtimning bog‘-u rog‘lari  
Barcha dostonlarda yozilsin takror.



\*H.Xudoyberdiyeva satrlari



## SINOVLI SAFAR

Kunlarning birida bir sayyoh uzoq safarga ketagidan bo'lib qolibdi. U ko'zlagan manzili yetib borishi uchun baland tog'lar, so'lim vodiylar, cho'l-u biyobonlardan o'tishi kerak ekan. Nihoyat, safarga yetadigan oziq-ovqat va tangalarni olibdi-da, jo'nab ketibdi. Haligi mashaqqatl yo'llarni qiyinchiliklarsiz bosib o'tibdi. Faqat cho'lga kelganda ancha tashvishlarga uchrabdi. Qumli shamollar uning yo'lda davom etishida halal beraveribdi. Shunday bo'lsa-da, harakat qilishni to'xtatmabdi, biroq ancha vaqtdan so'ng charchabdi, madori qolmabdi.

Bora-bora na yeyishga oziq-ovqati, na ichishga suvi qolibdi. Faqat cho'ntagidagi tangalar turgan edi. Lekin ularni na yeyishning iloji bor, na ichishning. Sayyoh bor kuchini to'plab, yo'lida zo'rg'a davom etibdi. Uning bu ahvolini bir sehrgar jin ko'rib qolibdi, rahmi kelganidan shunday debdi:

– Hoy odamzod, ko'rib turibman. Seni anchagina tinkang quribdi. Mening senga rahmim kelyapti. Shu desang, men yashirin polizda bodring yetishtiraman. Buni hech kim bilmaydi. Men bodringni yaxshi ko'raman. Sen polizdan qorningni to'ydirish uchun bir dona bodring olishing mumkin. Ular sehrli. Manzilingga yetib borguningcha senga mador bo'ladi. Unutma, bittadan ortiq bodring olsang, hamma bodring ko'zdan g'oyib bo'ladi va sen hech vaqosiz qolasan. Polizdan chiqqan zahoting ko'zdan g'oyib bo'ladi, bu haqida ham hech kimga aytma.

Sehrgar jin so'zini tugatib, sayyohni polizga yetaklabdi. Poliz juda ham g'aroyib ekan. U erda faqat bodringlar bor ekan. Sayyoh egilib, bukilib, bodringlarni terishga oshiqibdi. Endi bitta bodringni olay deganda o'ylab qolibdi:

– Bir donadan ortiq ololmayman, shunday ekan, eng katta bodringni olishim kerak, – debdi o'ziga o'zi.

Shunday qilib, u eng katta bodringni izlashga kirishibdi. Uning ko'ziga sal naridagi bodring, enda olay desa, undan naridagisi kattaroq ko'rinish ketaveribdi. Shu yo'sinda polizdan qanday chiqib ketganini o'zi ham bilmay qolibdi. Ortiga qarasa, poliz g'oyib bo'lgan ekan.

Ochko'zligi tufayli hech vaqosiz qolgan sayyoh yo'lda davom etibdi. Manzilga etganda esa poliz haqidagi bilganlarini odamlarga aytmoqchi bo'lgan-da, oshqozoni qattiq og'rib, to'satdan joni uzilgan ekan.



ZAMIRA SHERMAMATOVA  
8-sinf o'quvchisi



## BOLALIK QO'SHIG'I

Bolaligim – beboshligim,  
Men o'zingni sog'indim.  
Chang ko'chalar orasida  
Men izingni sog'indim.

Endi menga bo'lmas hamroh,  
Qo'g'irchoqlar olar dam.  
Zilol suvli ariqlarda  
Kulcha non oqmas hech ham.

Maktab bilim bulog'idir,  
Tinim bilmay o'qidim.  
Va nihoyat, bolaligim,  
Senga qo'shiq to'qidim.

Bolaligim – beboshligim,  
Men o'zingni sog'indim...





SHAHLO DAVRONBEKOVA  
8-sinf o'quvchisi



MAHLIYO AHMADQULOVA  
8-sinf o'quvchisi

### HAVAS

Mehr berib barcha o'g'il-qizlar uchun,  
Boringizdan siz kechasiz bizlar uchun,  
Qoladigan ertangi nur – izlar uchun,  
Ustozlarim, men ham sizdek bo'lgim keldi.

Mashaqqatni doim tutib – siz yashirin,  
O'rgatasiz tinim bilmay ilm sirin,  
Bu hayotda Sizday bo'lmoq boldan shirin,  
Ustozlarim, men ham sizdek bo'lgim keldi.

Ko'rsatasiz, to'g'ri yo'lni xato qilsam,  
Sevinaman,xatolarim barvaqt bilsam,  
Nima qipti, ustozlikka men intilsam,  
Ustozlarim, men ham sizdek bo'lgim keldi.

Yo'llarimni yoritgaydir har bir saboq,  
Shogirdlarning yutug'idan qalbingiz chog',  
Mehnat qilib Sizlar kabi yaratib bog' –  
Ustozlarim, men ham sizdek bo'lgim keldi.

### VATAN MADHI

Sen nur bo'lib keng olamga sochilgan,  
Sen mehrsan – yuraklarda jo'sh urgan.  
Sen chechaksan – bahorlarda ochilgan,  
Har tong iforlari dilda ufurgan.

Sen oydirсан – har on turasan kulib,  
Sen yulduzsan – nurlar qilasan tortiq.  
Sen mehrsan – dillar mahliyo bo'lib.  
Baxtni his etolmas, o, bundan ortiq.

Sen singlimsan – meni yurakdan suygan,  
Sen ukamsan – menga qayg'urgan har on.  
Sen otamsan – baxtim qalbidan tuygan,  
Va baxshida qilgan bizlar uchun jon.

Sen bobomsan – tinmay nasihat qilgan,  
Sen buvimsan – bizni o'ylagan har dam.  
Ostonasan – bizlar mangu intilgan,  
Azal qismatimga bitilgan – Vatan.



GULBAHOR YORQINNOVA  
8-sinf o'quvchisi



## ONALAR

Sizlar dunyoning boqiy tirkagi,  
Ma'suma, mehribon, aziz onalar.  
Sizlar kelajakning mangu keragi,  
Oilalar baxtidir, fayzi onalar!

Tilaysiz olamga tinchlikni,  
Farzandlar baxti – sanalar.  
Bolalar iqibili – sizga kuch, madad,



## ZOMIN TOG'LARI

Viqor-la tog'laring turar kekkayib,  
Archalar har tomon qurshovga olar.  
Yurakka joylanar navo seskanib,  
Sening bu mo'jizang umrbod qolar.

Ilhom baxsh etadi nurli samolar,  
Har tarafda sirli, go'zal dalalar.  
Meni maftun etgan nafis lolalar.  
Xushbo'y gullar atri har on taralar.

Dilimga g'ulg'ula solar soylaring,  
Ko'ksida yayraydi gulgun binafsha.  
Yurakka o'q qadar qorli yoylaring,  
Suvar oqib tushar ne toshlar osha.

Shunday go'zal ekan Zomin tog'lari,  
Har lahzada she'rlar bitmoqqa undar.  
Ko'zing qamashtirar hatto bog'lari,  
"Yana kelasanmi?" deb mendan so'rар.



## QUYOSHSIZ, ONA...

Hayot zahmatlarin totgan,  
Yashab kelgan yona-yona.  
Ba'zida g'amlarga botgan,  
Qalbim quyoshisiz – Ona!

Yomonlikdan mudom qochgan,  
Mo'jizalar sirin ochgan.  
Ezguliklar nurin sochgan –  
Qalbim quyoshisiz – Ona!

Atirgulday hid taratgan,  
Bizni misli gul yaratgan,  
Himmati cheksiz Yaratgan –  
Qalbim quyoshisiz – Ona!



NE'MATILLO BOBOJONOV  
8-sinf o'quvchisi

## SHE'RIYAT KUYCHISI

Qalamni ohista olib qo'liga,  
Bitikka tushirdi nurli so'zlarin.  
Boshchilik qildi u ijod yo'liga,  
Va kamtardek tutib biroz o'zlarin.

She'riyat shu shoir ila porladi,  
She'rлari doimo yuksakda turar.  
Jozibador she'rлar bizni chorladi,  
Ijod bog'ida-ku har doim yurar.

Ilhomlar keladi,she'rлar tug'ilgar,  
Abdulla Oripov bizlarga suyuk.  
She'rлarin o'qigan shu zumda bilar,  
Negaki ul zotning siymosi buyuk.

She'rлarida ayol,Vatan va inson,  
Go'zal so'zlar bilan ta'rif etilgan.  
Insonlar she'rлarni o'qishar hamon,  
Chunki nurli she'rлar qalbga bitilgan.

Abdulla Oripov-yurt qahramoni,  
Xalqni o'ylar edi, xalq bilan birga.  
Eli ila o'tdi uning har oni,  
Shoirning pok ruhi barchaga tirkak.

U insonni sevaman, ey azizlarim,  
Aytgan har bir so'zi bizlarga hamroh.  
Senga doim rahmat, tashakkur aytay,  
U zotni bizlarga yuborgan Alloh.

## BAG'ISHLOV

Botir Zokirovga

Abadiy yashaysiz qalblarda hamon,  
Yuraklarda yangrar sehrli qo'shiq.  
Tuyg'ular oshiqar kuyingiz tomon,  
Siz bilan hamrohmiz buloqday jo'shib.

San'atning misli bir nuri bo'lib siz,  
Maftun qilib dilni yangrar so'zingiz.  
Musavvirlar aro tanho bo'libsiz,  
Ezgulik suratin chizgan o'zingiz.

Kuylaringiz, albat, to mangu tinmas,  
Asrlar oshsa ham o'chmas nomingiz.  
Va sizni unutish aslo mumkinmas,  
E'zozolab yashaymiz ehtiromingiz.





## AYYORLIK

Chiroyli bir o'rmonda,  
Ayyor tulki bor edi.  
Va uning qorni ochgan,  
Yegulikka zor edi.

Qornini to'ydirish-chun  
Otlandi u qishloqqa.  
Go'shtlar u yoqda tursin,  
Zordir nonu pishloqqa.

Tovuqlarning oldiga  
Kelib bir gap boshladi:  
-Mening ahvolim yomon,  
Deb ko'zlarin yoshladi.

U so'zlayotgan vaqtida,  
Uydan chol chiqib qoldi.  
Tulkiga qarab shu chog',  
Qo'liga tayoq oldi.

Tulkining ahvoli voy,  
Chol uni quva ketdi.  
Shu tariqa ertagim  
Nihoyasiga yetdi.

Hissadan hissa shuki,  
Ayyorlikka qo'l urmang.  
Va dangasa bo'l mang hech,  
Egri yo'llardan yurmang.



JAVOHIR KELDIYOROV  
8-sinf o'quvchisi



## NADIR ILHOM?

Nadir aslida ilhom,  
G'am-g'ussa yoxud tuyg'u?  
Yurakka bermay orom,  
Naqshin chizib yashar u.

She'rlarda ko'rsatib bo'y,  
Go'zallik baxsh etadi.  
Shoirlar surganda o'y  
Darhol kelib-ketadi.

Shundan axir har onda,  
Qalbda tinmaydi ijod.  
Va she'riyat jahonda  
Abadiy bo'lar hayot.





MOHIRA ABDUAZIZOVA  
8-sinf o'quvchisi



GULSANAM ESHQULOVA  
8-sinf o'quvchisi

## MAS'ULIYAT – MUVAFFAQIYAT

O'zbek xalq maqoli

Hayotimda 1992-yilning noyabr oylari katta o'zgarishlarga sabab bo'ldi. Choshgoh vaqt. Mayin shabada ko'ngilga orom bag'ishlaydi. Hovlida tarixiy kitob mutolaa qilyapman. Shu vaqt darvoza taqillab qoldi. Kitobning qiziq joyiga kelgan bo'lsm ham, eshikni ochdim:

Assalomu aleykum!

Vaaleykum assalom! Nima xizmat?

– Abdulla Oripov shu yerda yashaydimi?

Menman Abdulla Oripov.

Bizni hokimiyatdan jo'natishgan edi. Bilasiz, Vatanimiz Mustaqillikka erishdi. Har qanday davlat Mustaqil bo'lgandan so'ng, o'z Davlat ramzlariga ega bo'lishi lozim. Bizga shunday topshiriq berilgan: "Har bir kuchli shoir-u shoiralarga madhiya uchun she'r yozishlarini yetkazing".

– Tushunarli, qachongacha yozib berishim kerak?

– Birinchi dekabr so'nggi muddat.

– Rahmat! Uyga kirsalaring bo'lardi, bir piyola choy qilardik.

– Mayli, bir kun o'tiradigan bo'lib kelamiz.

Tun. Boyo'g'li hadeb ukkillaydi, lekin g'ashim kelmaydi. Ijod olamiga sho'ng'iganman ... Kechasi bilan faqat bir necha bandgina yoza oldim, xalos.

Ikkinchchi kecha ham shu zaylda o'tayotgan bir pallada farzandlarim onasi: "Uyga kirib, uxlasangiz bo'lardi. Kecha ham tayinli uxlamadingiz", – dedi. Eshitmagan bo'ldim-u, baribir javob berdim:

Uxlayver, men hozir kiraman, ishim bitay deb qoldi.

– Mayli, tezroq yoting!

Subhidam. O'g'lim Ne'matning: "Dadajon, nonushtaga chiqing. Choyingiz sovub qoldi-ku!" deganini eshitmadim. Ko'zim ilinibdi. Uning so'zlari go'yo kechasi bilan o'rganib chiqqan chet el madhiyalaridek tuyilib ketdi. "Hozir" dedim-u,



## RUCHKA NOLASI

Ruchka – mening dastyorim,  
Tilga kirdi u bir kun.  
Shunday dedi menga u:  
– Boshim og'rib ketdi-ku.  
Buncha boshim tishlaysan,  
Meni siqib ushlaysan?  
Etigimni kiydirgin,  
Ishlatib bo'lgandan keyin.



hayolimga kelgan misralarni qog'ozga tushirdim. Nonushta qilayotganimda haligi odamlar eshik qoqishdi. Bugun 1-dekabrligi yodimdan ko'tarilibdi. Ularga tezda she'rimni olib chiqib berdim. Lekin, baribir, negadir ko'nglim g'ash edi. Choshgoh vaqt. Hokimiyatga borish hayolimda. She'rimning qayeridir kamday. Borsam: "Sizning she'ringizni topshirib bo'ldik" deyishdi. Shu bilan 9-dekabrgacha ko'nglim g'ashlanib yurdi. Bozorga chiqqandim. Mendan madhiya uchun she'r so'rab kelgan haligi odamlar ko'chamiz boshida turardi. Qo'rqedim. Hayolimda: "Abdulla aka, biz sizga ishongandik, ishonchni oqlamadingiz", deydigandek tuyulardi. Biroq...

Bu dunyoda mendan baxtli inson topilmasa kerak. Ollohga shukur!!!

## ZULMAT

To'rt devor orasida, olti kishilik tor xonada yettinchi bo'lib o'tiribman. Militsiya xodimlari meni kechadan oldingi kuni olib kelishgan edi:

Kichkina hovli. Farzandlarim bilan suhbatlashib o'tirardim. Birdan vahima bilan bir guruh odamlar keldi. Farzandlarimni, ayolimni zor yig'latishdi-ya... Aybim nima ekanligini hatto bilmas edim...

Odatda aybsiz kishi uch kunda chiqarilib yuborilardi. Bugun uchinchi kun! Zax xonaning burchagida devordagi tuynukchaga qarab o'tiribman. Bir kishi xonamiz yoniga keldi. Shu onda boshimni ko' tardim. Qorachadan kelgan, novchagina bir odam menga qarab:

Ha, mulla Abdulla, nima bo'di?

Tanidim. O'shanda "O'tkan kunlar" qissamni endigma yozib bo'lgan edim.

Kimdir qattiq baqirdi:

Abdulla!!!

Gavdali rus va Hasan Xo'janazarov degan odam qonli ko'z bilan qarab turardi. O'shanda nimalardir deb do'q-po'pisa qilib ketishgandi.

Hozir ham o'sha Hasan Xo'janazarov, faqat negadir xursand edi:

Eslaysanmi? O'shanda men seni ogohlantirgan edim. Sen kim

bo'libsanki, buyuk rus davlatiga to'rtta gaping bilan qarshi chiqasan?

Men uni faqat tingladim. U biroz ezmalandi-da, ketdi.

Bugun beshinchini kun. Yarim kecha. Oymomo tuynukdan mo'ralab, yuzimga nur sochardi. Ko'zim yumuq. Allakim xonamiz oldiga keldi-da, "Boboy" deb sekingina imladi:

Nimalar bo'lyapti?

Kamida bir haftada Abdulladan qutulamiz ...

Tushundim. Ular meni o'ldirishmoqchi. Adashadi. Men o'lmayman. Abadiy ozod yurda yashayman!

Ertaga oltinchi kun ...

## YOLG'ON

1970-yilning bahori. Mening jannatim - Qovunchim. Har tomon: uylar cheti, daraxtlar etagi, ko'chalar yonlariga qadar yam-yashil! Ular xursand! Axir ko'klam... Maysajonlar juda ham ajoyib musiqa bastalayapti... Mayin shabada esa bu ohangraboni har tomonga yoymoqda. Bu shabada qachon bo'ron bo'larkan-a? Men tuygan ovozni yana kimlar eshitibdi ekan? Bu darakchilarni ertan-indin qish yana o'diradi, axir!

Maktabga ketayotgandim.

- Muhammad! - orqadan o'rtog'im Furqat chaqirdi.
- Ha, nima?
- Bugun tarix fanidan domla munozara darsini o'tarkan-ku. Tayyorlandingmi?
- dedi shoshib.

- Yo'q, qaysi mavzuda?

- Nima edi-ya... Haa, "Rossiya - Turkiston qalqoni" mavzusida.
- Bo'pti-da. Yur, kechroq bo'lsa ham maktabga borib, tayyorlanib turamiz.

Maktabga kirib borar ekanmiz, atrofni nihollarning, maysalarning sekin, bilinar-bilinmas tebranishlari kishi yuragini qizdirardi...

Dars. Ustozimiz Rossiya haqida nimalarnidir tushuntirar, gohida bittaiKKitalardan so'rab qo'yardi. Men domлага qarab turardim-u, lekin xayolim uyimiz boshidagi dalada edi. Bobomlardan eshitishimcha, avval qishlog'imizda Dukchi eshon qo'zg'aloni bo'lganmish...

- Muhammad!!!

Cho'chib ketdim:

- Ha, domla! - dedim darhol xayolimni yig'ib.
- Xo'sh, Rossianing Turkiston uchun qilgan behisob yaxshiliklaridan misollar ayt-chi!

- Iya, domla, Rossiya bizga yaxshilik qilmagan-ku! Amir Temur, Alisher Navoiy, Qodiriy, Cho'lponni gapir desangiz, gapiraman. Lekin...

- Ahmoq, nima deyapsan? Yo o'lmoqchimisan, tentak?!

Yerga qarab, ichimda domлага: "Bor gap! Sizlar qo'rkoqlik qilib, rost so'zni bizzdan yashirayapsiz...", - deb gapirinar edim. Ustoz g'azab bilan o'shqirdi:

- Yo'qol chiqib ket! Ko'zimga ham ko'rinxma!!!

Yuragim tez-tez urardi. Dalaga qarab yugurib ketdim. Maysajonlar ustida, majnuntol soyasida xayol surib yotibman. Osmondag'i patga o'xshash bulutlarga tikilib: "To'g'ri, hozircha ular yutar. Biroq ertaga bo'lmasa, indin men g'olib bo'laman. Ey maysajonlar, men siz uchun shamol bo'laman!" - deb o'rnimdan turib, uyg'a qarab chopib ketdim.



MUBORAK ABDUNABIYEVA  
7-sinf o'quvchisi



SARVARBEK SUYUNOV  
7-sinf o'quvchisi



## CHIROYLIGIM NAVRO'Z!

Eng chiroyli kelindir Navro'z,  
Qalblardagi tantana bu so'z,  
Go'zal kelin jamoli ko'z-ko'z,  
Chiroyligim, chiroyli Navro'z!

Ovozingdan olovlanar dil,  
Sho'x sozingdan sozlanar ko'ngil,  
Pardozingdan rang olar bu el,  
Chiroyligim, chiroyli Navro'z!

Kelganing xo'p soz bo'ldi,  
Qayg'ular qog'oz bo'ldi,  
Orzular hamroz bo'ldi,  
Chiroyligim, chiroyli Navro'z!

Robbim senga yetkazdi, shukur,  
Baxt shamoli esGANI shudir,  
Jon Navro'zjon, endi ketmay tur,  
Chiroyligim, chiroyli Navro'z!



## BAHOR

Bahor sevgi fasli, ishqiy kuy chalar,  
Yangilanish fasli, uyg'onmoq fasli.  
Maftunkor ifori shirin bunchalar,  
Har guli misoli jannatdir asli.

Bu ko'klam biz uchun g'amxo'rlik demak,  
Qizlar moychechakdan kiyishadi toj.  
Shod bo'lamiz, kelsang, bahorim, beshak,  
Biroq ketsang, senga bo'lamiz muhtoj.

Senga qoyilman men, senga barcha lol,  
Sendan ko'plab ilhom oladirman men.  
Turfa kashfiyotni yaratib darhol,  
Zavqlar ularhasan yuragimga sen.

## ORZU

Ona, ko'nglimdagi bor javharimsiz,  
Siz menga homiysiz, siz menga najot.  
Dunyoda eng qimmat dur, gavharimsiz,  
Menga quvonch ila bergansiz hayot.

Ko'zingiz ko'zimning qorachig'ida,  
Abadiy yashaydi, abadul-abad.  
Bir istak yotadi, ko'nglim tubida  
Hojiona qilsam, deyman-da, albat.



JASMINA TURSUNALIYEVA  
7-sinf o'quvchisi



### VATAN

Qaynoq quchog'ingda quvnoq qizingman,  
Bog'lari bahorim, suyanchim Vatan.  
Sen falak bo'lsang gar, men yulduzingman,  
Senga fido bo'lsin mehrim, jon va tan.

Daryodek jo'shqin bo'l, obizamzamim,  
Jannatning ifori gulzorlaringda.  
Bu koinot ichra kichik olamim,  
Ajib ta'rifdasan ash'orlarimda.

Yuragim to'rida, qalbim qa'rida,  
Doim ardoqdasan ko'taray ko'kka.  
O'zbek sadoqati va g'ururida,  
Vatanim, bo'y cho'zgin bu kun yuksakka.



### "O'ZBEK" SHE'RIGA NAZIRA

"Qiyosi yo'q uning mehri bir daryo,  
O'xshasa o'ziga o'xshaydi o'zbek.  
Boshqa millatlarni bilmadim, ammo  
Dunyoda bolam deb yashaydi o'zbek".\*

Tandirida issiq kulcha-yu noni,  
Siylasa, olamni siylaydi o'zbek.  
Duoga qo'l ochar har bir insoni,  
Dunyoga yaxshilik tilaydi o'zbek.

Xor qildirib qo'ymas yovga Vatanin,  
Tinch, farovon hayot istaydi o'zbek.  
Kerak bo'lsa berar jonin va tanin,  
Yurtini ko'ksida asraydi o'zbek.

Yurak-la qo'riqlar u sarhadlarni,  
Doim olg'a qadam tashlaydi o'zbek.  
O'stirgan u qancha Muhammadlarni,  
Kelajak avlod deb yashaydi o'zbek.





DILNOZA JABBOROVA  
7-sinf o'quvchisi



### “OLDIMDAN OQQAN SUV” SHE'RIGA NAZIRA

“Yashamoq – farog‘at, yashamoq – azob,  
Bekorga egilmas sizdan boshqa ko‘k.  
Ko‘ngillarni ovlab umrim bo‘pti sop,  
Sizning ketishingiz xayolda ham yo‘q”.

Bemehr farzandni mehrga o‘rab,  
Achchiq ko‘zyoshlarni ichga yutasiz,  
Holsiz holingiz-la holimni so‘rab,  
Onajon, har damda meni kutasiz.

Dardlaringiz behad to‘lib ketgan dam,  
Aytib ovunibsiz, tun-u saharga,  
Bir ishni do‘ndirib qo‘yolmasam ham,  
Vaqt-bevaqt chopibman faqat shaharga,

Katta shaharlardan topib kichik nom,  
Eng aziz insonim, sizni yo‘qotdim.  
Qaynoq bag‘ringizdan otilib mudom,  
Vijdon azobining qa‘rida yotdim.



\*Muhammad Yusuf satrlari



### FASLI NAVBAHOR

Eshik qoqib bir parivash qiz,  
Kirmoqlikka so‘raydi izn.  
Jilmaygancha otash, oftobyuz,  
Yosh nihollar bezaydi izin.

Lola ko‘ylak kiyganda olam,  
Quyosh boqar havas-la shirin.  
Binafshajon, nechuk boshing xam,  
Qalbingda ne alam yashirin?

Qanotidan yog‘dirib salom,  
Kapalaklar kelar mehmonga.  
Ko‘k somsalar pishirsa onam,  
Shukronalar aytay zamonga.

Jimir-jimir oqadi soylar,  
Oy yuziga tutmislar ko‘zgu.  
Dilga ajib orzular joylar,  
Boychechakning niyati ezgu.

Kengliklarda qushlarning sasi,  
Kuy chaladi o‘ksik ko‘ksimga.  
Poyimdagи yalpizning isi,  
Bo‘y taratar shirin bo‘g‘zimga.

Mayin shamol uyg‘onib sahar,  
«Jilmay» deya yuzim silaydi.  
Chiroyligim fasli navbahor,  
Yurtga baxt va tinchlik tilaydi.





SEVARA MURODJONOVA  
7-sinf o'quvchisi



UMID ABDUJABBOROV  
7-sinf o'quvchisi



### ONA SOG'INCHI

Ko'zlarim yo'llarda men senga mushtoq,  
G'am-alamdan qanday topaman panoh,  
Yuragimda o'tinch, bo'g'zimda bir oh,  
Men sizni sog'indim, mehribon onam.

Jilva qilar mehr-la boqishlaringiz,  
Qizim, qo'zim degan, olqishlaringiz,  
Tushlarimga kirar yurishlaringiz,  
Men sizni sog'indim, mehribon onam.

Sizni yaxshi ko'rар yomon qizingiz.  
Bilaman, men sizning yorug' izingiz,  
Nurlarga chulg'ansin gulgун yuzingiz,  
Men sizni sog'indim, mehribon onam.

Yildan yil orttirdim talay do'st-u yor,  
Yurakda bitta his bisyor va bisyor,  
Tilimga talmashar u takror-takror,  
Men sizni sog'indim, mehribon onam.

Onajon! Bu so'zning mazasi shirin,  
O ona, mehringda quyosh yashirin,  
Ajab saodatdir ona sog'inchin,  
Men sizni sog'indim, mehribon onam.



### MEHR QUSHIMSIZ, AZIZ ONAJON!

Hayot bo'stonida ulug' bog'bonim,  
Qorong'u dunyoda yorug' osmonim,  
Ko'nglim ko'chasida o'zingiz doim,  
Mehr quyoshimsiz, aziz onajon!

Quyoshim, oyimsiz, ko'nglim yoritgan,  
Eng go'zal qo'shiqsiz, g'amim aritgan,  
Hayotning eng ko'rkam gullarin tutgan,  
Mehr quyoshimsiz, aziz onajon!

Niyatim bor, bir dona mening,  
Dunyoda onalar yig'lamasinlar.  
Topolmay sarsonman qiyosing sening,  
Mehr quyoshimsiz, aziz onajon!





CHAROS SHAMIDDINOVA  
7-sinf o'quvchisi



## BAHOR

Bahor kulib turar yurtim poyida,  
Asta-sekin kelar qadamin tashlab.  
Daraxtlar bezanar turgan joyida,  
Keladi ortidan oftobni boshlab.

Murg'ak go'dak misol o'smoqda lola,  
Yuzga kulgi oldi butun mavjudot.  
Yurtimdan olisga ketmoqda nola,  
Hatto yaproq qushday chiqarar qanot.

Ko'kda quloch ochdi ko'klam lochini,  
Bahor taftin tuydi har makon, har joy.  
Yana ko'klam kiyди billur tojini,  
Oy kutib o'tkazdi tunlarni bedor.

Quyosh nurlaridan baxtga to'ldi dil,  
Mehrdan ochmoqda kurtaklar ham ko'z.  
Quvonch iforini taratar ko'ngil,  
Bahorning yuragi – kelmoqda Navro'z.



## ONAM

Mehrli so'zingiz tutsa olamni,  
Quyoshdan porlagay qaro ko'zlarim.  
Unutajak, albat, hasrat-u g'amni,  
Sizga atalsa gar yurak so'zlarim.

Bo'yningizdan olar bo'lsam gar quchib,  
His qilarman issiq, qaynoq taftingiz.  
Bamisol osmonda parvozlar etib,  
Buncha nurli orombaxshdir kaftingiz.

Poyingiz tubiga egib boshimni,  
Jannat tuprog'ini ayladim tavof.





HILOLA SAFAROVA  
7-sinf o'quvchisi



### KO'NGIL KALOMI

Salom – odobning boshi,  
Aslo qilmagin kanda.  
Porlar quvonch quyoshi,  
Ko'ngil salom berganda.

### O'ZBEKİSTONIM

Yuksaltiray g'urur bayrog'in,  
Yashnab borar so'lim bo'stonim.  
Dilga ilhom bergen bog'-rog'ing,  
Nurga to'lsin, O'zbekistonim...

### ONAJONIM

Mehringiz misli buloq,  
Nurga to'la kaftingiz.  
Quyosh singari qaynoq,  
Onajonim taftingiz.



### KITOB

Mening eng yaqin do'stim,  
Nuri misli oftobdir.  
Mehrini sevib o'sdim:  
Qadrdonim – kitobdir.

### GULLAR

Hovlimizda gullar bor,  
Hidlaganda yayrayman.  
Yo'qolib dildan g'ubor,  
Qushlar kabi sayrayman.

### KOPTOK

Ajoyib koptogim bor,  
Sakrab-sakrab to'ymaydi.  
Qo'limdan tushirsam gar,  
Yer tepinib qo'ymaydi.

### OLMAXON

Sakraysan shoxdan shoxga,  
Tinim bilmaysan har on.  
Ko'ngling doim yong'oqda,  
Yong'oqsevar – Olmaxon.





## TOVUS

O'ziga berib oro,  
Doim yuradi bardam.  
Tovus turfa rang aro  
Maqtanib yashar har dam.

## KAPALAK

Bulutlarni quchasan,  
Moviy ko'kdagi malak.  
Sen chiroqli uchasan,  
Kapalakjon, kapalak.

## BAHOR

Bahor kirib kelar bag'ishlab quvonch,  
Ketmoqda qalblardan barcha sog'inchi.  
Insonlar tuymoqda dildida ishonch,  
Iforga burkandi dilning o'kinchi.

Daraxtlar kurtagin yozar erinib,  
Gullar ham ko'ngilni to'ldirar zavqqa.  
Maysalar ko'z ochar, biroz kerilib,  
Shu onda to'lamiz bizlar ham shavqqa.

Bahor taftin tuyar ko'kdagi qushlar,  
Parvozi, ovozi baxsh etar huzur.  
Boychechak gullari dilimni xushlar,  
Olamni tutadi faraxbaxsh surur.



SEVINCH ABDUMO'MINOV A  
7-sinf o'quvchisi



## BAHOR

Bahor, sirli mo'jiza yaratding kelib,  
Olamga iforing taratding kelib –  
Hayratda o'zingga qaratding kelib,  
Xush kelding betakror, ko'klam navbahor.

Sen kelsang tabiat, ko'nglum uyg'onur,  
O'zingla keltirding sen qalbimga nur.  
Seni kuta, oqdi ko'zlarimda dur,  
Xush kelding betakror, ko'klam navbahor.

Bulbullar sayrashar muhabbat kuyin,  
Daraxtlar kuylashar tabiat sirlin.  
Dengizlar o'ylashar bahorning sirlin,  
Xush kelding betakror, ko'klam navbahor.





DILNOZA ABDUVOHIDOVA  
7-sinf o'quvchisi

### ONA ...

Og'ir kunda dilda qarog'im,  
Tashvishlarim senga so'yladim.  
G'am-anduh-la gullagan bog'im,  
Suyanchim deb seni o'yladim.

Shirin so'z-la ochmadim og'iz,  
Madadkorim, tayanchim yolg'iz.  
Baxtim uchun kurashding tanho,  
Hamisha mehringga chanqoqman, ONA...



ULUG'BEK ABDUQODIROV  
6-sinf o'quvchisi



### KO'KLAM NAFASI

Yurakda o'ynaydi go'zal bir tuyg'u,  
Axir bahor fasli o'lkamga keldi.  
Insonlar bahorni sevishib mangu,  
Bolalar shodlikdan yugurib-yeldi.



### KO'KLAM

Qo'lga olmoqlikka qo'rqedim qalamni,  
Oshkor aylamasin dardim qog'ozga,  
Yurakda yashirin hasrat, alamni  
Aytgim keldi oppoq qorga, ayozga.

Ko'ksimda yonuvchi bu otash, bu o't,  
Kumush qor ko'zidan yoshin to'kmasin,  
Bag'riga bir tig' sanchganday shu tob,  
O'ksik bu qalbini tirnab o'tmasin.

Qorga aytilmagan o'shal-o'shal dard  
Sog'inib kutganim, chorlayman takror.  
Yuzlarim siypalab, kelsayding agar  
Chiroying madh etib, kuylayman bahor!

Dimog'larga yoqar ko'klam nafasi  
Go'yoki boshlanar xayoliy safar.  
Bahorning ajib bir xushbo'y nasha'si  
Bizni uyg'otadi har erta sahar.



RUXSHONA ABDULLAJONOVA  
6-sinf o'quvchisi



## BAHOR BAYRAMI

Ko'klamoyim keldi yurtimga,  
Gullarining bo'yin taratib.  
Qushlar uchsa, shodon yurdim-da,  
Sayrashlari dilim yayratdi.

Bahor fasli kelganda kirib,  
Nishonlanar rango-rang bayram.  
Dillarimga quvonch to'ldirib,  
Bulbullar ham kuylardi bu dam.



## VATAN HISSI ...

Mangu yashaysan dilda,  
Vatan – mening borimsan.  
Qalbim senga intilgan –  
Iftixorim – orimsan.

Yuragimda jo'sh urar,  
Shod-hurramlik bulog'i.  
Iforlaring ufurar,  
Yashnatib ko'ngil bog'in.

Quchog'ing issiq-qaynoq,  
Taftidan mehrim ortar.  
Qayerda bo'lsam har chog',  
Doim o'ziga tortar.

Eslatadi onamni,  
Borligingni tuyaman.  
O'zingni – yagonamni  
Onamdayin suyaman.

Onajonim singari  
G'amxo'rimsan – borimsan.  
Seni suyganim sari  
Porlayvergan orimsan.





ZULFIYAXON ISMOILOVA  
6-sinf o'quvchisi



IBROHIM TURSUNBOYEV  
6-sinf o'quvchisi



### EZGULIK ELCHISI

Derlar fasllarning kelinchagi,  
Ko'rk erur har ungan chechagi.  
Xush kelding elimga, gulbahor,  
Ezgulik elchisi – navbahor.

Qaldirg'och chug'uri xush navo,  
Tog'laring, bog'laring bahavo.  
Yuzimni silagan yel – bahor,  
Go'zallik elchisi – navbahor.

Quvonch-u shodliklar fasli bu,  
Uyg'onish, tiriklik asli bu.  
Ko'nglimni ko'tarib kel, bahor,  
Ezgulik elchisi – navbahor.

Nomi ham dillarga zavq berar,  
Keksa-yu yoshni quvontirar.  
Men seni sevaman, bil, bahor,  
Go'zallik elchisi – navbahor.



### “QAYDA BOR” SHE'RIGA NAZIRA

O'sib yotar bug'doylar,  
Sariq rangda tovlanib.  
Oltin bo'lib vodiylar,  
Qizg'ish rang jilolanib,  
Bug'doylar har joyda bor,  
“Bizda bori qayda bor”.\*

Ajib bir tusda gullar,  
Xushbo'y hid taratardi.  
So'lim rangdadir ular,  
Bog'da yashnab yotardi.  
Gulzorlar har joyda bor,  
“ Bizda bori qayda bor ”.\*



\*Muhammad Yusuf satrlari



SEVINCHXON SAIDOVA  
6-sinf o'quvchisi



DILNOZA ESHQULOVA  
6-sinf o'quvchisi



### ONAGINAM

Onadan hech qachon uzolmaysan qarz,  
Ne ish qilsang ham baribir kamdir,  
Aybdor bo'lsang gar berar senga dars,  
Gina zarda solsang, ko'zlar ni namdir.

Iltimos, Ollohim asra onamni,  
Ne ish qilsa ham bizni o'ylaydi har choq,  
Azob chekar har on deya bolamni,  
Mendan umidvordir ko'nglidir oppoq.



### ONA

Yog'du yog'iladi go'zal yuzidan  
Gullar ochiladi yurgan izidan.  
Hech narsa ayamas o'g'il-qizidan  
Onamday bo'lolmas hech qaysi inson!

Ko'zlar ni namlanib qolsa-da yoshga  
Bizlar deb o'zini berar Quyoshga.  
Bolam deya bizni ko'tarar boshga  
Onamga o'xshamas hech qaysi inson!

Hayot dardlaridan ko'ngli tilingan,  
Mehnati har dam ko'zdan bilingan.  
Har yaxshi narsani bizga ilingan,  
Onamga o'xshamas hech qaysi inson!

### BAYROQ

Yurt bayrog'in ko'ksimga qadab,  
Har mavjidan olaman nafas.  
Gar bo'yiga bo'y qo'shsam sharaf,  
Menedan baxtli inson bo'lolmas.

Hilpiragan bayroq g'amin yeb,  
Yashamoqlik asli ulkan baxt.  
Butun dunyo hayron qolsin deb,  
Yashnataylik misoli daraxt.

Biz shu yurtning o'g'il-qizlari,  
Maqsad sari tashlaymiz qadam.  
Maqsadimiz bir xildir bari –  
Bayrog'imiz ko'tarmoq har dam.



ZULHAYO MINGBOYEVA  
6-sinf o'quvchisi



### KO'KLAM QO'SHIG'I

Qushlar qo'shig'in aytib,  
Betakror nahor keldi.  
Yurtimga yana qaytib,  
Maftunkor bahor keldi.

Quyoshning zarrin nuri,  
Buloqlarni toshirdi.  
Barq urib dil sururi,  
Zavqimizni oshirdi.

Barcha bobodehqonlar,  
Bog' qilmoqqa shaylandi.  
Qalbda ezgulik – donlar,  
Quvonchlarga aylandi.

Tashrif etganda ko'klam,  
Olam navoga to'ldi.  
Diyorimizda ko'klam-  
Bahor gulchambar bo'ldi.



### ZOMINGA SAYOHAT

Zominga kiriboq quchog'in ochib,  
Kutib oldi baland, oq qalpoq tog'lar.  
Oyoqlar ostiga oq gilam to'shab  
Kutib oldi bizni betakror chog'lar.

Mayin, xush shabboda. Ozgina sovuq.  
Ammo, oshirardi kishi zavqini.  
O'sha mag'rur tog'lar bo'y-bastin kerib,  
O'zga mahliyolar ko'ngil shavqini.

Hordiqlanar edi suv jilosidan,  
Soy labida binafsha-yu boychechak.  
Yerda qor, ammo ular darak berar,  
Kirib kelganidan bahor – kelinchak!





MUSHTARIY TOSHPO'LATOVA  
6-sinf o'quvchisi



### SHAFTOLI

(she'riy ertak)

Bir kuni shaftoli maqtanib qoldi,  
Hammadan shirinman- deya jar soldi.

Bundan shamol g'azab otiga mindi,  
Ko'p o'tmay daraxtning shoxlari sindi.

Shaftoli tanida og'riq sezildi,  
Jarohatlar olib – bag'ri ezildi.

Bog'bon kelib qoldi so'ng o'sha chog'da,  
Shaftoli yotardi to'kilib bog'da.

Qurisa – qoqisi foyda bo'lar deb,  
Tomga joylashtirdi qishning g'amin yeb.

Biroq to'la ekan qushlarga ovul,  
Ular bog'bon yo'q payt qildi tanovul.

Do'stlar, shuning uchun maqtanmoq yomon,  
Kamtar bo'lavering – har qanday zamon.

Kimki gar maqtansa, voy bo'lar holi,  
Mana maqtanolmas endi shaftoli.



### SO'Z QUDRATI

(mitti ertak)

Bir bor ekan, bir yo'q ekan. Qadim o'tgan zamonda ikkita qirolik bo'lgan ekan. Ular azaldan bir-biriga dushman ekan. Ularning nomlari ham bor bo'lib, Oq qirolik va Qora qirolik deb atalar ekan.

Kunlardan bir kun Oq qirolik elchi sifatida bir askar yuboribdi. Askar Qora qirolikka borib, darvozada qo'riqchi bo'lib turganlarga shunday turibdi:

– Men Oq qirolikning elchisiman. Meni qirol oldiga olib kiringlar. Soqchilar uni qirol oldiga olib borishibdi. Elchi Oq qirolik tomonidan aytilgan hamma gapni oqizmay-tomizmay aytibdi-da, maktubni tutqazibdi. Qora qirolikning qiroli bu gaplarni eshitib, keltirilgan nomaga ko'z yogurtirib bo'libdi-da, so'ng o'zi ham maktub yo'llabdi.

Maktubda shunday so'zlar yozilgan ekan:

“Qadrdom Oq qirol, aytganlarini barchasi to'g'ri. Men bularning barchasini bugunoq xalqimga aytaman. Sen ham xalqingga ayt. Ishonamanki, bu, albatta, xalqlarimizga yoqadi. Qadrdoming Qora qirol”.

Shundan keyin ikkala qirolik ham tinch-totuv yashay boshlashibdi. Chunki Oq qirol elchisiga quyidagi xabarni etkazishni buyurgan ekan:

“Qadrdom, qancha yillardan beri jang qilib, begunoh xalqimiz safi kamayib ketyapti. Yana shunday davom etsak, oxiri voy. Xalqimiz qirilib ketsa, sen va mening qirolligimizning hech kimga keragi bo'lmaydi”.

“Qadrdom, qancha yillardan beri jang qilib, begunoh xalqimiz safi kamayib ketyapti. Yana shunday davom etsak, oxiri voy. Xalqimiz qirilib ketsa, sen va mening qirolligimizning hech kimga keragi bo'lmaydi”.





## MUNDARIJA

KIRISH SO'ZI .....	5
IBROYIM YUSUPOV NOMIDAGI IJOD MAKTABI.....	6
ABDULLA ORIPOV NOMIDAGI IJOD MAKTABI.....	28
HAMID OLIMJON VA ZULFIYA NOMIDAGI IJODMAKTABI.....	54
MUHAMMAD YUSUF NOMIDAGI IJOD MAKTABI.....	84
IS'HOQXON IBRAT NOMIDAGI IJOD MAKTABI.....	98
ERKIN VOHIDOV NOMIDAGI IJOD MAKTABI.....	114
ABDULLA QODIRIY NOMIDAGI IJOD MAKTABI.....	186
OGAHİY NOMIDAGI IJOD MAKTABI.....	198
HALIMA XUDOYBERDIYEVA NOMIDAGI IJOD MAKTABI.....	258

PREZIDENT TA'LIM MUASSASALARI  
AGENTLIGI

## IJOD BOG'IDAN GULDASTA

Muharrir: Alisher SA'DULLAYEV  
Texnik muharrir: Sanjar G'OFUROV  
Dizayner: Innesa KIM  
Dizayner va sahifalovchi: Gulzoda NAZIROVA

Nashriyot litsenziyasi AI № 015, 20.07.2018.  
Bosishga 2021-yil 23-iyunda bosishga ruxsat etildi.  
Bichimi 60x84 1/8 Shartli bosma tabog'i 32.09  
“Times New Roman” garniturasi  
Adadi 500.

“Zamin nashr” nashriyoti 100053.  
Toshkent sh. Bog'ishamol ko'chasi 160-uy  
Tel: 71 235-44-82, 235-44-86  
[www.zaminnashr.uz](http://www.zaminnashr.uz)

